

M. ABDULLAYEVA, D. DJUMABAYEVA

# JAHON ADABIYOTINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH



13+22

el. Abdullaev et al.

Sohon Adabi Yotim

Osmanbekov

interpretive meto-

dearam boyob-

emich

**Abdullayeva M., Djumabayeva D.**

**JAHON ADABIYOTINI O‘QITISHDA  
INTERAKTIV METODLARDAN  
FOYDALANISH**

(9-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limi misolida)

**Metodik qo‘llanma**



**TOSHKENT - 2019**

**DK: 638.1 (575.1)**  
**BK: 46.91**

Abdullaeva M., Djumabayeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish. // Metodik qo'llanma // Toshkent-2019, "GOLD-PRINT NASHR" nashriyoti, 180 b.

**Taqrizchilar:**

R.Ahmedova

ToshDO'TAU "Tarjima nazariyasi"  
kafedrasи o'qituvchisi

S.Eshpo'latova

ToshDO'TAU  
akademik litseyi o'qituvchisi

Mazkur qo'llanmada adabiyot o'qitishda zamonaviy pedagogik usullar, badiiy asarlar tahlilida interaktiv metodlardan foydalanish usullari sida nazariy-metodik tavsiyalar berib o'tilgan. Adabiyot o'qitish kasiga oid innovatsion yondashuvlar va tahlillar o'rinni olgan. Ishning etaga tatbiqi jahon adabiyoti misolida o'r ganilgan.  
Metodik qo'llanma oliy o'quv yurti talabalari, magistrant, tadqiqotchi va a'lim maktablari o'qituvchilariga mo'ljalangan.

Shbu metodik qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti uslubiy ining 2019-yil 26 apreldagi 4-sonli yig'ilish qaroriga asosan nashrga etilgan.

78-9943-14-175-9

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Barcha sohalarda bo‘lganidek, adabiyoto‘qitishda ham innovatsion yondashuv bugungi kunda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining asosini tashkil qiladi. Hozirgi globallashgan davrda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloq qilish va yanada takomillashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu o‘rinda, Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz. “Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”<sup>1</sup>.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ta’lim jarayoni kishilik jamiyatining barcha erishgan yutuqlari, yangiliklari, kelgusi taraqqiyotining assosi omilidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda jamiyatning taraqqiy etishi, avvalo, fanning oldiga mazmunan va mohiyatan yetuk tadqiqotlar yaratish talabini qo‘ymoqda.

O‘quvchi ma’naviy dunyosi, tafakkuri nutq boyligi shakllanishida nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki, jahon adabiyotining ham o‘z o‘rni va ta’siri bor. Shu nuqtai nazardan qo‘llanmada umumta’lim maktablarida jahon adabiyotini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni targ‘ib qilishni nazarda tutadi. Bu o‘z navbatida, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan bugungi talablarni o‘zida aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Mavzuning dolzarbliği ayni shular bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston. 2016. – B. 14.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyoti  
t el ya’ni jahon adabiyotiga qiziqishi qadimgi davrlarga borib  
aladi. Jumladan, jahonning eng buyuk ko‘zga ko‘ringan  
ilkorlaridan hisoblangan V.Shekspir, A.S.Pushkin, Ch.Aytmatov  
rlari o‘z davrida ham bugungi kunda ham mashhurdir.  
Aytmatov ijodi va asarlari tahlili, ularning badiiy qimmati,  
uvchining qardosh xalqlar bilan adabiy munosabatlari  
salasini G‘aybull Salomov, Asil Rashidov, Ilhom G‘aniyev va  
stam Ibragimov singari olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida batafsil  
itib bergenlar. Shuningdek, Chingiz Aytmatov ijodi qirg‘iz va  
adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan, adib ijodiga jahon  
biyotshunosligida ilk yuqori baho Lui Aragon tomonidan  
lgan edi.

“Rus va qirg‘iz adabiyotshunosligida A.Akmataliyev,  
agdanov, V.Navikov, V.Voronov va boshqalar tomonidan adib  
i turli jihatlardan o‘rganilgan. Adib ijodi A.Rashidov,  
lo’shjonov, Sh.Sharipova va boshqa olimlar tomonidan tahlil  
tadqiq etilgan”<sup>2</sup>. Bir qancha bitiruv malakaviy ishlari va  
zodlik dissertatsiyalari yoqlangan.

“Yirik asarlari dunyo ahliga taqdim etgan yozuvchining  
ja xos mahorati va milliy epos an’analari bilan uyg‘unlashgan  
ari tadqiqi olima Pariza Mirzaahmedova tomonidan tahlil  
gan”<sup>3</sup>.

Shuningdek, yozuvchining badiiy asarlari tarjimonи sanalgan  
Rashidov o‘z monografiyasida ijodkor asarlari tahlil qilinib,  
og‘zaki ijodiga bog‘liq ekanligi hamda unga bo‘lgan mehr-  
abbati haqida to‘xtalib o‘tadi. Qolaversa, ushbu ishda yozuvchi  
la bitilgan bir qancha ilmiy maqolalardan ham keng

---

metova R., Oxunjonova O., Ametova O., Aliqulova H. Ona tili va adabiyot. —Toshkent,  
B. 278.

захмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч. Айтматова Дисс.  
ил. наук. —Москва, 1981.

foydalanildi. Jumladan, D.Aliyeva<sup>4</sup>, O.Fayzullayev<sup>5</sup>, S.Qorayev, N.Jbanova<sup>6</sup>, N.Sizdiqboyev<sup>7</sup>, S.Meliyev<sup>8</sup>, P.Mirzaahmedova<sup>9</sup>, B.Mo'minova maqolalarida yozuvchi poetik olamining o'ziga xos qirralari, uslubi va mahorati haqida to'xtalib o'tilgan. Mazkur ishlar adib hayoti va ijodini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda adib araslari poetikasiga doir qimmatli ilmiy-nazariy fikrlar keltirilgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiy etib borishi shoir va yozuvchilarining hayoti va ijodini yangicha interaktiv metodlar asosida o'qitishni talab qiladi.

Ch.Aytmatov, A.S.Pushkin, V.Shekspir hayoti va ijodini o'rganishda innovatsion texnologiyalarga yondashgan holda interaktiv usullarning o'ndan ortiq turlari tatbiq etilishi va asarlari tahlilida ulardan samarali foydalanish o'quvchilar bilim-malakasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lif samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, adabiyot ta'lifida interaktiv usullarning o'rni, ahamiyati va turlari haqida metodik adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud. Adabiyot o'qitish metodikasiga oid darslik va qo'llanmalarda turli interaktiv usullarni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. Ayniqsa, bu borada Q.Yo'ldoshev hammuallifligidagi "Adabiyot o'qitish metodikasi", B. To'xliyevning "Adabiyot o'qitish metodikasi", M.Ochilovning "Yangi pedagogik texnologiyalar", O'.Tolipov, M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiyl

<sup>4</sup> Aliyeva D. Yozuvchining poetik olami. // Jahon adabiyoti. – 1998, – № 12. – B. 147.

<sup>5</sup> Fayzullayev O. Yozuvchining ilmiy fantaziysi. // Jahon adabiyoti. – 2005, – № 6. – B. 29.

<sup>6</sup> Jbanova N. Chingiz Aytmatovning falsafiy mushohadalari. // Til va adabiyot ta'lifi. – 1998, – № 3. – B. 34.

<sup>7</sup> Sizdiqboyev N. Chingiz Aytmatov badiiyatining ayrim qirralari. // Til va adabiyot ta'lifi. – 2008, – № 12. – B. 18.

<sup>8</sup> Meliyev S. "Asrga tatigulik kun": roman badiiy strukturasining ayrim xossalari. // O'zbek tili va adabiyoti. – 2010. – № 2. – B. 11.

<sup>9</sup> Mirzaahmedova P. Davrimiz allomasi. // Jahon adabiyoti. – 2004. – № 3. – B. 144.

oslari”, L.V.Golish L., D.M.Fayzullayevaning “Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish”, G.Yo’ldoshev, S.Usmonovning “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” va boshqa pedagogik texnologiyaga oid o‘quv ‘llanmalarida atroflicha fikrlar bildirilgan. Biroq interaktiv usullarning ta’limiy xarakterdagи turlari fikrlashni o‘stirish, nyoqarashni kengaytirishdagi ahamiyatiga oid tadqiqotlar 9-sinf abiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limi misolida olib rilmagan.

Zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar kundan kunga ojlanayotgan bir paytda jahon adabiyotining yirik vakillari ‘Igan Ch.Aytmatov, A.Pushkin, V.Shekspir kabi ijodkorlarning yoti va ijodini innovatsion yondashuv asosida yangicha nuqtayi zardan amaliy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu abli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ularning hayot yo‘li, arlarini o‘rganishda o‘qitishning interaktiv usullaridan foydalanish jahon adabiyotini o‘qitish sifatini oshirishga, ummadaniy qadriyatlarni to‘la tushunishga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga todik tomondan yordam beradi. Ayniqsa, badiiy asarlarni o‘qitishda, tahlil qilishda interaktiv usullardan foydalanishning uvor ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan ochib berishga xizmat etadi. 9-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limidagi ijodkorlarning asarlarini tahlil qilish, amaliy mashg‘ulotlar olib berish, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarida mavzu zasidan kurs ishlari, referatlar yozishda qo‘l keladi.

## I BOB. TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Adabiyotning asosiy maqsadi insonni tarbiyalashdir. Insonni har tomonlama barkamol, ma'naviy yuksak qilib tarbiyalashda adabiyotning o'rni katta. Har bir millatning adabiyoti o'ziga xos milliy xususiyatlarni aks ettirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni ham tarannum qiladi. Shu nuqtayi nazardan bugungi yoshlarni nafaqat o'zbek adabiyoti balki, **jahon adabiyotining aadir asarlari bilan tanishtirish**, ulardagi umumbashariy qadriyatlarni targ'ib qilishda o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'linda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya — shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida o'quvchi yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli tarzda shakllanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrning o'rtalarida AQShda paydo bo'lib, bir qancha rivojlanish bosqichlariga ega. Dastlab, bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha "ta'linda texnologiya" deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifodalagan bo'lsa, keyinchalik texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan. 80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL)da biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi deb ta'riflanadi.

Ushbu tushunchani chet el olimlari, qolaversa, o'zbek pedagog olimlari ham turlicha ta'riflashadi. M. V. Klarin, B. T. Lixachev, V. P. Bespalko, I. P. Volkov, N. Saydahmedov,

B.Ziyomuhamedov va boshqa olimlar fikrlari bilan birga YUNESKO tomonidan keltirilgan ta’rif eng maqbولي hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyasi pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlataladi. Bu (fan predmeti) “texnik va inson resurslarini hamda ularni, o’z oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli”. Pedagogik texnologiya o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldin belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Endi, shu o‘rinda, “Innovatsion texnologiyalar” terminiga diqqat qaratsak. “Innovatsiya” - yangilik, yangilik kiritish, degan ma’nolarni ifodalaydi. 2018-yil - “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqida shunday deydilar: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya — bu kelajak degani. Biz bu kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, innovatsiyani nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy sohaga, balki ta’lim sohasida ham qo‘llash bugunning dolzarb masalalaridandir. Shu bois, biz mazkur qo‘llanmada adabiyot o‘qitishda innovatsion yondashuvni targ‘ib qilish bilan birga,

<sup>10</sup> Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2018. -B. 19-20.

o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganmoqchimiz.

## **INTERAKTIV METODLARNING MAZMUNI VA TURLARI**

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o‘qitish usullari haqida so‘z yuritiladi. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shularni adabiyot darslarida interaktiv metod texnologiyalarini keng qo‘llab, amalda tatbiq etish mumkin. Ushbu usul o‘quvchilarni ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini yaratish, kichik guruhlar bilan ishlashdan iborat. Bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayot o‘quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy interaktiv metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An’anaviy tarzda dars olib borish o‘z o‘rnini innovatsiyalarga, noan’anaviy dars o‘tish shakllariga bo‘shatib bermoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya biz kutgan samarani beravermaydi.

“Yangi pedagogik texnologiya bu – ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan o‘qitishning faol usullarining umumiyligi nomlanishi bo‘lib, uning turlari, shakllari, vositalari hamda amalga oshirish yo‘llari ham turli-tumandir. Shulardan biri interaktiv usullar hisoblanadi. “Interaktiv” atamasi aslida inglizcha “interaktiv” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zaro ta’sirlashish” ma’nosini bildiradi

va biror faoliyat yoki metodda o‘zaro babs-munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etish nazarda tutiladi.

“Interaktiv ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim. Interaktivlik esa ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Mantiqiy nuqtayi nazardan interaktivlik ijtimoiy subyektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi”<sup>11</sup>. Interaktiv ta’limda inson fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi 60 dan ziyod interaktiv strategiya (usul)lar bayon qilingan. Bu strategiyalar o‘zining soddaligi, o‘ta ommaviyligi va o‘qitish samaradorligi hamda talabalar fikrlash qobiliyatini benihoya rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Badiiy asarlarni o‘qitish, nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki chet el namoyandalari bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish, ularning hayoti va ijodiga qiziqishini oshirish, asarlarini tahlil qilish, ularni tushunish, boshqa xalqlarning turmush tarzi, milliy urf-odatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishida adabiyot darsliklaridagi “Jahon adabiyoti”ning o‘rnini beqiyosdir. Shu orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish, tarbiyalash kabi muhim jihatlarni qamrab oladi.

Ilg‘or pedagogik ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida bir talay natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish,

<sup>11</sup> Мухамедов Ў. ва б. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. — Т.: 2016. — Б. 4.

ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar ***interaktiv metodlar*** nomi bilan qo'llanilmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, ta'limda interaktiv usullar qo'llanilganda o'qitish, o'rganish ishlari o'qituvchi bilan o'quvchi, o'quvchi+o'quvchi, o'quvchi+sinf kabi oraliqda amalga oshiriladi. Shular o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahsmunozara, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosini tashkil etadi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi-o'quvchi guruhi"ning o'zaro birlarini hurmat qilishlari, tushinishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimi munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"<sup>12</sup>. Natijada o'qituvchi butun sind o'quvchilar bilan ishlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Barchamizga ayonki, har bir darsning o'z maqsadi, vazifasi mavjud bo'ladi, shundan kelib chiqqan holda vazifalar odatda topshiriq sifatida gavdalananadi. Mazkur topshiriqnini bajarib, biror natijaga erishish uchun, avvalambor, ma'lum usullar majmuasidan

<sup>12</sup> Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob: Metodik qo'llanma.—Toshkent. Nizomiy nomidagi davlat pedagogika universiteti. 2012. —B. 122.

foydalaniлади. Бу усул турли vositalar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi yuqorida aytilgan usullar majmuasi vosita hamda materiallarni, ijtimoiy muhit holati va sharoitini o'zaro uyg'unlashtirgan holda darsni tashkil etadi. Mana shu oraliqda olib borilayotgan faoliyati esa interaktiv usul deb nomlanadi.

An'anaviy dars – ma'lum bir muddatga mo'ljallangan bo'lib, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuga kirish, uni yoritish, mustahkamlash va yakunlashdan iborat ta'lim modelidir. An'anaviy ta'lim tizimida dars o'tishda ko'proq ma'ruza, savolvjavob, amaliy mashq kabi usullardan foydalaniлади. Va shu orqali faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchilar bu vaziyatda faqatgina tinglovchi bo'lib qoladi, xolos. Bu tarzda o'qitilgan o'quvchilarning asosiy vazifasi asosan tinglash, zarur o'rnlarda yozish, savollar bilan murojaat qilganda qaytarish, kamdan kam holatlarda so'zlashdan iboratdir. An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik amaliy mashg'ulotlarda ham yetakchilik qiladi. Bu tarzda qabul qilingan bilimlar juda tez unutiladi. Xususan, "amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrauning o'rganishlariga ko'ra, shaxsning tabiiy-psixologik imkoniyatlari muayyan shaklda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni: Shaxs manbani o'zi o'qiganida 10%; ma'lumotni eshitganida 20%; sodir bo'lgan voqeа-hodisani yoki jarayonni ko'rganida 30%; sodir bo'lgan voqeа-hodisani ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50%; ma'lumotni o'zi uzatganda ya'ni so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida 80%; o'zlashtirgan bilimlarni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90% hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi"<sup>13</sup>. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars

<sup>13</sup> Мухамедов Ӯ. ва б. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. —Т.: 2016. — Б. 5.

samaradorligi ancha past bo‘lib, o‘quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladi. Kamchiliklari sifatida shuni aytib o‘tish joizki, o‘quvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladi, o‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi, o‘quvchilar o‘qituvchi bilan bevosita erkin tarzda muloqotga kirisha olmaydi, eslab qolish darajasi hamma o‘quvchilarda bir xil bo‘lmaganligi sababli, sinf bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qolishi, mustaqil o‘rganish va yechimlarni yechishda, qaror qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaganligini aytish mumkin. An‘anaviy ta’lim berishdan farqli o‘laroq, interaktiv o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Hozirgi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. Adabiyot darslarida ta’limning interaktiv usullardan foydalananish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o‘rgatadi, ko‘pchilik oldida o‘z fikrini mustaqil bayon etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o‘rgatishi lozim. Dars jarayonida asosan uch maqsad ko‘zda tutiladi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Bu uch maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interaktiv metodlarni qo‘llab dars o‘tish yaqindan o‘qituvchiga ko‘mak beribgina qolmay, samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘zlashtirilayotgan tajribani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘quvchilarga o‘zaro ta’sir harakati orqali yo‘naltirish, interaktiv metodlarni qo‘llab dars o‘tishning asosi bo‘lib, bunday yondashuvda o‘qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o‘quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi. Bugungi darsga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri bu - har bir darsda o‘rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo‘lishidir, ya’ni darsdan ko‘zlangan maqsad va o‘quvchilar

imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning qay darajada murakkabligini aniqlash, avvalgi o‘rganilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarni aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va turli xil qo‘srimcha ma’lumotlar berib borish, ko‘rsatmali, ko‘rgazmali vositalar bilan boyitish, interaktiv metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatlar yaratishdir.

- Interaktiv metodlarning ahamiyatiga quyidagilarni keltirish mumkin:

- “o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;
- o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi;
- umumiyl vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar;
- o‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’ullikni his qiladilar”<sup>14</sup>.

**Interaktiv usulning mazmuni** quyidagilardan iborat:

Interaktiv ta’lim shunday tashkil qilinishi lozimki, unda auditoriyadagi barcha o‘quvchilar harakatga kelishi kerak;

O‘quvchi o‘zini erkin his etishi va boshqalar bilan tortinmasdan fikrlasha olishi zarur;

Ta’lim beruvchi - dars jarayonini tashkil qiluvchisi hamda uni boshqarib, nazorat qiluvchisi hisoblanadi;

Bunday usullar natijasida o‘quvchilarning bilim saviyasi oshib, fikrlash qobiliyati rivojlanishi zarur.

**Interaktiv ta’limning asosiy mezonlari:** norasmiy bahsmunozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, seminarlar soni

<sup>14</sup> Ahmedova H.O’zbek tili o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. —T.: Navro’z. 2016. —B. 50.

ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalar kiradi. Interaktiv usulda inson fikrlashni rivojlantiruvchi 60 dan ortiq interaktiv usullari mavjud. Shularga misol tariqasida aytadigan bo‘lsak: “Aqliy hujum”, “Pinbord”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Muzyorar”, “Bumerang”, “SWOT tahlil”, “FSMU texnologiyasi”, “Sinkveyn”, “Charxpalak”, “Keys- stadi”, “Debat”, “Zanjir”, “Yelpig‘ich”, “Tushunchalar tahlili”, ”SMS”, “SAN”, ”KBI”, ”Domino” va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu metodlardan “jahon adabiyoti” bo‘limini o‘qitishda qo‘llash, oddiy va sodda, shu bilan birga ommaviyligi, o‘qitish samaradorligini oshirishi hamda bilim oluvchining dunyoqarashini kengaytirishi bilan ahamiyatlidir.

Ta’lim bosqichlarida jahon adabiyoti namoyandalari va ularning asarlari o‘quv dasturlariga kiritilgan.

Umumta’lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligida jahon adabiyotining yirik vakillari hisoblangan Ezop, J.Svift, H.K.Andersen, A.S.Ekzyuperi, N.Dumbadze kabi ijodkorlarning hayoti va ijodi o‘rganiladi.

Umumta’lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limi bo‘yicha Ezop va uning masallariga bag‘ishlangan 7-8-mavzularda “Audio topshiriq”, “Taqdimot” kabi ZPTlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. E’tiborli jihat shundaki, o‘quvchilarning yosh jihat, psixologik holati, bilim saviyasiga qarab mos keladigan interaktiv metodlarni qo‘llash yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotining barcha sohalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimiga, ta’limning barcha turlarida o‘quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali

ta’lim sifatini uzlusiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini orttirishga keng e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-sentabrdagi RF-3501-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 21-fevraldagagi 12-son bayoniga asosan “Elektron ta’lim” Milliy tarmog‘ini tarkib toptirish loyihasi doirasida Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida “Elektron ta’lim” tarmog‘i shakllantirilganligi, ushbu tarmoq kontengentini boyitishda elektron ta’lim resurslari qamrovini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash o’rinlidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida ham “Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o’zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o’zbek tili va adabiyoti fanini o’qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish” borasida ulkan vazifalar qo‘yildi<sup>15</sup>.

Bu jarayonda multimedia ilovalarining vujudga kelishida mashg‘ulotlar ssenariylarini yaratishda fan o’qituvchilari faoliyat ko‘rsatishayotgan bo‘lsa, texnik jihatdan kompyuter dasturchilari, audio-video muhandislar ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Nazarimizda, elektron adabiyotlarni yaratishni jadallashtirish muammosini hal qilish, avvalo, soha olimlari, metodistlar va fan o’qituvchilarining pedagogik dasturiy vositalar bilan yetarlicha tanish bo‘lishi, pedagogik dasturiy vositalarni ona tili adabiyot ta’limi jarayoniga tatbiq qilishga doir metodik ko‘rsatmalar

<sup>15</sup> Abdullayeva M. O’zbek tili va adabiyotini o’qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Ma’ruza matnlari. – T.: 2017. – B. 43.

tayyorlanishiga bog'liq bo'lmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosini multimedia vositalari tashkil qilib, ularga audio, video vositalar, taqdimotlar, videodarslar, interaktiv mashqlar, test topshiriqlari, lug'atlardan foydalanish va boshqalar kiradi.

**Multimedia** (multimedia - ko'p muhitlilik) – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishiga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio- va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir.

Multimedia texnologiyalarining afzallikkleri va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud (bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli film va rolklarni hamda tovushli axborotlarni);


- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismalarini kattalashtirish imkonи mavjud;

- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini hisoblash, ilmiy o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishloy berish imkoniyati;

- tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko'rsatilayotgan axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni kerakli qismidan ma'lumot olish hamda tushuntirishga kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

- statik yoki dinamik tasvirga monand uzlusiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish;

- global Internet tarmog'iga ulanish uning resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjud;



- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishslash mumkin.

Bundan tashqari tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko‘rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo‘yish mumkin.

## Multimedia



Mazkur usul nafaqat “Jahon adabiyoti” bo‘limida balki adabiyotning deyarli barcha mavzularida qo‘llash, hattoki murakkab mavzularda ham foydalanish mumkin.

Ushbu usul o‘qituvchi bilan o‘quvchining munosabatlarini mustahkamlaydi va tomonlar bir-birlarini o‘zaro tushunishga asos yaratadi. Bu orqali ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari, qolaversa, mulohaza qilish qobiliyati rivojlantirilib, o‘quvchilarning kengroq fikrlashiga yo‘l ochib beriladi. Shundagina, erkin qaror chiqara olish, o‘zini nazorat qilish, biror masala bo‘yicha tahlil va tanqid qila olish, ijodiy yondashishga undashga sababchi bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi ta’lim jarayonida munosabatga kirishar ekan, ular o‘rtasidagi hamkorlik katta natijalarga erishishga asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi interaktiv metodlardan foydalanganda bir necha qoidalarga amal qilishi lozim:

- dars o‘tiladigan xonaning dars o‘tishda qulayligiga e’tibor qaratish joiz. Ya’ni o‘quvchilarni guruhlarga ajratganda, o‘rin al mashganlarida oson bo‘lishi uchun qulay sharoit yaratilishi lozim;

- turli ijodiy vazifalar uchun kerakli bo‘lgan jihoz va materiallarni tayyorlab qo‘yilishi maqsadga mos keladi;

- o‘quvchilarni katta yoki kichik guruhlarga bo‘lganda alohida e’tiborli bo‘lish talab etiladi. Guruhlashda tasodifiy raqam lab, qatorlab, ro‘yxat bo‘yicha yoki o‘zlarining xohishlariga binoan qilish mumkin;

- vaqt masalasi eng asosiy masalalardan biri hisoblanib, vaqt reglamentiga e’tiborli bo‘lish zarur;

- darsga, o‘tilayotgan mavzuga barcha o‘quvchilarni jalb qilib, qiziqtira olish;

- o‘quvchilarning darsga tayyorligiga ahamiyatli bo‘lish kerak.

Umumta’lim maktablarining 6-sinf adabiyot darsligining “Jahon adabiyoti” bo‘limiga J. Rodarining “Hurishni eplolmagan kuchukcha” asari keltirilgan bo‘lsa,

III chorak 37- mavzuda Muso Jalil va uning “Ishonma” she’ri kiritilgan hamda 46-47-mavzularda esa Abay va uning “Nasihatlar”i darslikdan o‘rin olgan.

Shulardan J. Rodarining hayoti va uning “Hurishni eplolmagan kuchukcha” asari uchun dasturda 3 soat ajratilgan bo‘lib, ijodkor hayoti va ijodi o‘rganilgandan keyin mustahkamlovchi qismda **“Nuqtayi nazaring bo‘lsin”** metodini qo‘llash o‘quvchilarda muayyan muammoni o‘z nuqtayi nazari bilan tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

**“Nuqtayi nazaring bo‘lsin”** usulida o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va shu jarayonda o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtayi nazarini o‘zgartirishga

ishontiradigan g'oyalarni eshitib, o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo'llaniladi. O'qituvchi ochiqdan ochiq savollar bilan dars jarayonida faol bo'lмаган о'quvchilarni munozarada ishtirok etishga yo'naltiradi.

### **"Nuqtayi nazaring bo'lsin" metodini o'tkazish bosqichlari:**

1. Tayyorgarlik: o'qituvchi sinfning to'rt burchagi yoki sinfning ma'lum ochiq joyiga to'rtta jadval osib qo'yadi.
2. Sinf o'quvchilaridan 6 yoki 8 nafar xohlovchini sinf taxtasiga chaqiradi.
3. Ishtirok etmayotgan o'quvchilarni band qilish uchun topshiriq beriladi.

Ushbu metodni boshlashdan avval o'qituvchi darsga yo'l-yo'riqlar berishi zarur, jumladan:

1. Biror bir fikr yoki mavzu o'qib berilganidan keyin o'quvchilar o'zlari mos deb bilgan jadvallar oldiga borib turishi kerak.
2. Agar muammoga sizni fikringizni o'zgartiradigan asosli dalil eshitsangiz, o'z o'rningizni bo'shatib, o'sha joyga o'tishingiz mumkin.
3. Sinfdoshlarining ta'kidlariga o'z fikringizni bayon qilishga tayyor turing.
4. O'qituvchi darsda ishtirok etmagan o'quvchilarga topshiriq yoki vazifa beradi, masalan:
  - ularning fikricha ahamiyatli tomonlarini yozib boring;
  - dars davomida o'z o'mini o'zgartirmagan o'quvchilarni yozib boring;
5. O'z nuqtayi nazaringizni asosli dalillar bilan ifodalashga tayyor turing.

- eng asosli dalillar berilgan javobni yozib borishni ham qatnashmagan o‘quvchilarga vazifa qilib beradi”<sup>16</sup>.

O‘qitishning interaktiv metodlari orqali ta’lim jarayoni shunday tashkil etiladiki, bunda o‘quvchilar bilish jarayoniga to‘liq tarzda jalb qilinib, o‘rganuvchilarning bilgan va o‘zlashtirayotgan bilimlari to‘g‘risida mustaqil fikr bildira olishga o‘rganadilar. O‘zlashtirilayotgan yangi mavzuni o‘quvchilar hamkorlikda o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon qila oladilar. Eng asosiy jihatni o‘quvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlab, birdamlik asosida amalga oshiriladi. “Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv faoliyat to‘rt asosiy elementni o‘zida mujassamlashtiradi: *o‘zaro xayriyohlik, shaxsiy mas’uliyat, birligida hamda guruhlarda ishslash ko‘nikmalari*”<sup>17</sup>.

Umumta’lim maktablarining 7-sinf adabiyot darsligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu darslikning “Jahon adabiyoti” bo‘limiga R.Hamzatov. “Ona tilim”, “Kenja nevaram Shahrizodga” she’rlari, Ch. Aytmatovning “Oq kema” qissasi, Maxtumquli she’rlari hamda E.S.Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarlari keltirilgan. Ularning asarlaridan parchalar keltirilgan. Aynan E.S.Tompson asarlarini o‘qitishda ularning mohiyatini ochish uchun bugungi adabiyot o‘qitishda innovatsion yondashuv muhim hisoblanadi. Ta’lim bosqichlarining 7-sinf “Jahon adabiyoti” bo‘limi E.S.Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini o‘qitishda “Bumerang” metodini qo‘llash yaxshi samara beradi. Quyida “Bumerang” interaktiv texnologiyasi haqida ma’lumot beramiz:

**“Bumerang interaktiv texnologiyasi** – o‘quvchilarni dars jarayonida, sinfdan tashqari turli adabiyot, materiallar bilan ishslash,

<sup>16</sup> Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarining qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar . – T.: 2016. – B. 96.

<sup>17</sup> Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. —T.: Navro’z. 2016. —B. 52.

o‘rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholashga qaratilgan.

Mazkur texnologik mashg‘ulot davomida o‘quv materiallarni chuqur yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin fikrlashga qaratilgan.

U turli mazmun va xarakter (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishda yaroqli bo‘lib, o‘z ishiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriglarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi va o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashga imkon beradi.


“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlashni mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu interaktiv usul ta’lim bilan bir qancha tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- ko‘nikuvchanlik;
- o‘zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatini samarali tashkil etish;
- o‘zini xolis baholash”<sup>18</sup>.

---

<sup>18</sup> Abdullayeva M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – Toshkent. 2017. – B. 77.



Umumta'lim mактабларининг 8-сinf адабиёт дарслигининг “Jahon адабиёти” бо‘лимидан Fuzuliyning “O‘landan so‘r...”, “Ma’ni jondan o‘sondirdi...” г‘азаллари;

R.Tagorning “Nur va soyalar” hikоясидан parcha hamda S.Yesenin she’rlари о‘рин олган bo‘lsa, 9-sinf адабиёт дарслигининг “Jahon адабиёти” бо‘лигига V.Shekspirning “Otello” tragediyasi, H.Haynening she’rlари, A.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” hamda Ch.Aytmatovning “Asrga татигуллик кун” романларидан parchalar keltirilgan.

Ushbu bebaho jahonga yuz tutган асаларнинг о‘zbek kitobxonларига yetib kelishida tarjimonларимизнинг о‘рни beqiyos. Ta’lim bosqichларининг адабиёт дарсликлари “Jahon адабиёти”да бо‘лигига kiritilgan асаларнинг ko‘philigidа аса tarjimonлари haqida ma’lumotlar ketirilmagan. Jumladan, 5-6-sinf адабиёт дарсликларда keltirilgan badiiy асаларни kim tarjima qilganligi kiritilmagan. Bunday jahon адабиётининг nodir асалари tarjimonларимизнинг beminnat xizmatлари асосида darsliklarga kiritildi, xalqimiz qo‘liga yetib keldi. Quyida shu haqda qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. “Abay nasihatлари”ni Nosir Fozilov tarjima qilgan bo‘lsalar, “Kichkina shahzoda” асари esa Hayriddin Sultonov nomi bilan bog‘liq. “Guliverning sayohatlари” асарини bo‘lsa, Vahob Ro‘zimatov hamda Sotiboldi Yo‘ldoshevlar tarjima qilishadi. “Hellados” асарининг 5- синф о‘quvchilari qo‘liga yetib borishida tarjimon Nizom Komilning xizmatлари katta. Dasrlikdagи tarjima асалар tarjimonлarning jonkuyarligi va tinimsiz mehnatlари evaziga vujudga kelmoqda.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda o‘quvchilarni jahon адабиёти namunalari bilan yaqindan tanishtirish, umumbashariy qadriyatлarni targ‘ib etuvchi ijod mahsullarini yosh avlod ongiga yetkazish, ularni dunyo yozuvchi va shoirlari асаларидан bahramand etishga alohida e’tibor

qaratilmoxda. Zero, yaxshi asarlar tarixiy-madaniy qadriyatlarni, boy ma'naviy merosni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ularning ma'naviy- mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Darsliklarda jahon adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga o'girilgan bir qancha asarlari jamlangan. Adiblarning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar, ularning hikmatli so'zlari, asarlarining yaratilish tarixi ham bayon etilgan. Yoshlarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, kitob tanlash va mutolaa madaniyatini shakllantirishda jahon adabiyotining o'rni katta. O'quvchilar bu orqali dunyo adabiyoti manzaralarini kuzatishga, ongi tafakkurini boyitishga, ular qalbini ezgu g'oyalar bilan to'ldirishda jahon adabiyoti namunalari o'ziga xos "ko'prik" vazifasini o'taydi.

Har bir xalqni, o'z adabiyoti dunyoga tanitadi. Har bir millatning esa jahon taniydigan, sevadigan, ardoqlaydigan adibi yoki shoiri bo'ladi. Bizda Alisher Navoiy, ruslarda A.S.Pushkin, qirg'izlarda Ch.Aytmatov, inglizlarda esa V.Shekspir kabilar jahon taniydigan ana shunday buyuk siymolar hisoblanadi. Bizning tadqiqot ob'yektimiz 9-sinf adabiyotining "Jahon adabiyoti" bo'limi ekanligini inobatga olib, ushbu ijodkorlar asarlari tarjimonlari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Pushkining "Yevgeniy Onegin" asarini dastlab o'zbek tiliga Oybek tarjima qilgan bo'lsa, darslikka M.Kenjabek tarjimasi kiritilgan. U Oybek tarjimasiga tayanib o'girgan va ayrim joylari o'zgartirilgan, tuzatishlar kiritilgan, mukammallashtirilgan holdagi nusxasi darslikdan o'rin olgan. Pushkin asarlarini Cho'lpon, G'.G'ulom, Mirtemir, E.Vohidov, A.Oripov, Muhammad Ali, A.Suyun, H.Xudoyberdiyeva, Zulfiya, A.Muxtor kabi ko'plab ijodkorlarimiz tarjima qilgan.

Keyingi asarimiz V.Shekspirning "Otello" tragediyasini G'afur G'ulom o'zbek tiliga tarjima qilgan. G'.G'ulom Shekspir asarlarini tarjima qilib, "Tanlangan asarlar" besh jildlik kitob

holida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida 1981-yil nashr ettiradi. Ushbu asarlar J.Kamol singari aslidan tarjima qilinmagan bo‘lsa-da, ya’ni tarjimon uning asarlarini rus tilidan o‘girgan bo‘lsa ham asl mazmuni o‘zida saqlangan. Shekspirning o‘lmas asarlarini H.Olimjon, Sotti Husayn, Cho‘lpon, M.Shahzoda, Yashin, Uyg‘un, T.To‘la, G‘.G‘ulom, Q.Mirmuhammedov, J.Kamol kabi bir qator mashhur yozuvchitarjimonlar tomonidan ommaga tanishtirilgan. Keyingi paytda Shekspir asarlarini o‘zbek tilida keng tarqalishiga sabab, uning asarlari umrboqiyligi va tarjimon Jamol Kamol say’-harakatlari evaziga vujudga keldi. O‘zbek o‘quvchilari Rumiya va Shekspir singari jahon klassiklarini Jamol Kamol orqali o‘qishadi. Xususan, uning tarjimasida Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Rumiying olti kitobdan iborat “Ma’naviy masnaviy” asarini, buyuk ingлиз dramaturgi V.Shekspirning o‘nlab asarlarini bevosita ingliz tilidan, A.Pushkinning “Motser’t va Sal’eri”, Yan Raysinning “Oltin tulpor” asarlarini rus tilidan o‘zbek tiliga o‘giradi. J.Kamol she’rlari o‘nlab tillarga tarjima qilinadi. Shekspir asarlari haqida tarjimon quyidagicha fikrlarni bildiradi: “Shekspir ijodi – bashariyatning buyuk darsxonasi. Aqlimni tanibmanki, Shekspirni o‘qiyman. Bir necha yil chet el adabiyotidan, Shekspir ijodidan institut talabalariga dars berdim. Keyin tarjima qilishga kirishdim. Shekspir tufayli ingliz tilini o‘rgandim. Shekspir saylanmasining besh tomligini nashrga tayyorladim. “Hamlet”, “Otello”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra”, “Afinalik Timon” kabi asarlarini inglizchadan tarjima qildim va ular “Jahon adabiyoti durdonalari” seriyasida nashr etilmoqda<sup>19</sup>”, - deydi tarjimon Jamol Kamol. Agar ikkala ijodkor-tarjimonlarni bir-biriga qiyoslaydigan bo‘lsak, asar dastlab G‘.G‘ulom orqali bizga yetib kelgan. Aynan

<sup>19</sup> Muhammadiyev N. Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon J. Kamol // Yoshlik – 1989. – № 4. – B. 23.

“Otello” asarining ikkita tarjimasini bir-biriga qiyoslasak, ularda katta farq yo‘qligiga amin bo‘ldik. Mazmuni saqlangan holda G‘.G‘ulom rus variantiga tayanib ish ko‘rgan. Ba’zi juz’iy o‘zgarishlar kuzatilgan, xolos. Shuning uchun ham darsligimizga G‘.G‘ulom tarjimasi kiritilgan.

Chingiz Aytmatovning asarlari jahon xalqlari tomonidan sevib o‘qiladi. Uning asarlari inson qalbidagi nozik tuyg‘ularni jumbushga keltiradi. Insoniylik, vatanparvarlik, erk, mehr-muhabbat, sadoqat, burch kabi tushunchalar asarlarida aks etadi. Shuning uchun ham ta’lim bosqichlarida uning bir qancha asarlari darsliklarga kiritilganligi bejizga emas. Masalan, 7-sinf adabiyot darsligining “Jahon adabiyoti” bo‘limiga “Oq kema” asari kiritilgan. Taniqli adabiyotshunos olim, ijodkor tarjimon Asil Rashidov uzoq yillardan beri Chingiz Aytmatov hayoti, ijodini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Uni haqli ravishda Aytmatovning o‘zbek tarjimoni deb biliшadi. Shu bilan birga, u Aytmatov asarlarining o‘zbek kitobxonlariga muhabbatli targ‘ibotchisi<sup>20</sup>. Asil Rashidov Ch.Aytmatov asarlarining ilk tarjimoni. Adibning juda ko‘plab asarlari A.Rashidov tarjimalari orqali bizga yetib kelgan. Aytmatov asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan cheklamay, ularni kitobxonlar o‘rtasida qariyb ellik yildan buyon muhabbat va izchillik bilan targ‘ib-tashviq qilib keladi. Asil muallimning Aytmatov asarlariga tahlillari va o‘ziga xos sodda, ishonarli talqinlari kitobxonni Aytmatovga yaqinlashtiradi, muhabbat uyg‘otadi, bu asarlarni qayta qayta o‘qishga chorlaydi. Asil muallim o‘quvchini o‘qishga ilhomlantiardi, hayotiy, ma’naviy saboqlar chiqarishga ko‘maklashadi. Axir adabiy tahlil va talqindan kuzatiladigan bosh maqsad shu emasmi!<sup>21</sup>.

<sup>20</sup> Komilova S. Asil Rashidov Aytmatov targ‘ibotchisi. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – № 3.- B. 15.

<sup>21</sup> Komilova S. Asil Rashidov Aytmatov targ‘ibotchisi. //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – № 3.- B. 15.

Tarjimon Aytmatov asarlarini tarjima qilganligi haqida shunday deydi: “Qirg‘iz adabiyotiga dabdurustdan kirib qolishimga sabab, Chingiz Aytmatovning ijodi, xususan, uning ohangrabodek o‘ziga tortgan “Jamila” qissasi bo‘lsa, bu yo‘ldagi so‘qmoqlarda ilk bor beminnat shamchiroq tutgan saxovatpesha G‘aybull Salomov edi. “Jamila”dan keyin “Sarvqomat dilbarim”, “Alvido, Gulsari”, “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun” asarlari tarjimasi ustida o‘tirgan paytlarimda ham do‘stim menga ko‘makdosh bo‘ldi<sup>22</sup>.

Asar nomi turlicha ekanligini ko‘rishimiz mumkin: “I dolshe veka dlitsya den” romani tarjimasida A.Rashidov do‘stlarining bahsi ibratli bo‘lganini aytadi. Ya’ni dastlab “Asrga tatigulik kun” deb o‘girilgan bo‘lsa, biroz vaqt o‘tib qirg‘izcha nasri “Ko‘lum qaritar bir kun” (“Asrni qaritgan bir kun”) nomi bilan nashr ettirilgach, “Asrni qaritgan kun” deb o‘zgartirilgani to‘g‘risida aytib o‘tganlar.

B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonovlar boshchiligidagi o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinf va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmuasida jahon adabiyoti bo‘limiga J.Londonning “Hayotga muhabbat” va A.Dodening “So‘nggi saboq” hikoyalari kiritilgan.

A.Rafiyev hamda N.G‘ulomovalar hammuallifligidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsligining “Jahon adabiyoti” bo‘limiga J.Rumiyning ruboilari, S.Sheroziyning g‘azallari, J.Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi, Ch.Aytmatovning “Jamila” qissasidan parcha kiritilgan.

Ushbu darslikda J.Londonning “Hayotga muhabbat” asarini “Muammo” texnologiyasi asosida o‘qitish darsni samarali tashkil qilishga xizmat qiladi.

---

<sup>22</sup> www.uzhurriyat.uz

“Muammo” texnologiyasi o‘quvchilarni mavzudan kelib chiqib, turli muammoli masala yoki vaziyatlarning to‘g‘ri yechimini topish, muammo mohiyatini anglashga doir malakalarini shakllantirish, yechimning ayrim usullari bilan tanishtirish, yechimni topish uchun mos usullarni to‘g‘ri tanlash, muammoning kelib chiqish sabablari, shuningdek, yechimni topishga yo‘naltirilgan harakatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashga o‘rgatadi.

Ta’lim jarayonida “**Muammoli ta’lim texnologiyasi**”ni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni  
guruhlarga ajratib, ularni mos  
o‘rinlarga joylashtirgandan so‘ng,  
mashg‘ulotni o‘tkazish qoidasi  
bilan tanishtiradi




Har bir guruh a’zosi rasm yoki  
matndagi hayotiy lavha bo‘yicha  
birgalikda aniqlangan ma‘lumotni  
vatman qog‘ozlarga flamaster  
yordamida yozadi

Berilgan vaqt niyoyasiga yetgach,  
guruhlar o‘z ishlarini namoyish  
qiladi



O‘qituvchi guruhlari tomonidan  
tanlangan muammolar yozilgan  
qog‘ozlarni almashtirgan holda  
guruhlarga qayta tarqatiladi

Har bir guruh a’zosi qog‘ozlarga  
yozilgan muammolar orasidan  
o‘zini qiziqtiradigan muammoni  
tanlab olib, uni o‘qituvchi  
tomonidan tavsiya qilingan  
jadvalda qayd etadi va tahlil qiladi



Sinf jamoasi o‘qituvchi rahbarligida  
guruhlari hamda har bir  
o‘quvchining ishini muhokama  
qilib, eng yaxshi ishni tanlaydi

O‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi



O‘quvchilar topshiriqni individual ravishda bajarishlari uchun  
o‘qituvchi tomonidan quyidagi jadval tavsiya etiladi<sup>23</sup>:

<sup>23</sup> Мухамедов Ў., Усманбаева М., Рустамов С. Таълимни ташкил этишда замонавий ширерфаол методлар. - Т.: 2016. – Б. 31.

Muammo turi	Muammoning kelib-chiqish sabablari	Muammoning yechini yo'llari
1.		
2.		
...		

Ushbu metodlarning xarakterli jihatni biror masala yoki mavzu yuzasidan bitta asosga, g'oyaga tayanishni inkor etadi. Muloqot jarayonida o'quvchilar har tomonlama keng fikrlashga o'rgatibgina qolmay, vujudga kelgan muammodan chiqib ketish va qanday xulosaga kelishga turki bo'ladi. Qolaversa, alternativ fikrlarni taroziga tortib ko'rish orqali, o'ylab qaror chiqara olish, tanqidiy fikrlash va muloqot qilishga o'rgatadi. Shunga ko'ra, dars individual, juft, katta- kichik guruhli tarzda tashkil etiladi. Multimedia, ko'rgazmali vositalar, rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Ta'limning keyingi bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, B.To'xliyev muallifligidagi akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan Adabiyot (majmua) darsligining I bosqichida "Jahon adabiyoti" namoyandalaridan Rudakiy va Firdavsiyning hayoti va ijodi o'rganishga kiritilgan. Aynan mumtoz badiiy asarlarni o'qitish ba'zi jihatlariga ko'ra mushkuldek tuyuladi. Biz bilamizki, uzoq asrlar davomida nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida an'anaviy tarzda she'riy asarlar yozish yetakchilik qilgan. Nasriy asarlar esa murakkab xarakterga ega bo'lib, she'riy va nasriy matnlarning aralash kelishi ustuvorlik qiladi. Shuning uchun ham biz bunday asarlar tahlilida janr xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishimiz lozim.

Ushbu o'rinda g'azallarni tahlil qilishda, ularning mazmun va mohiyatini ochishda quyidagi usullarni qo'llagan holda o'qituvchi

o‘z maqsadga yetibgina qolmay, balki, o‘quvchilarning ham o‘rganilayotgan mavzuni yaxshi o‘zlashtirishi hamda qiziqishini orttirishga sabab bo‘ladi:

“Sharhlab o‘rganish”, “Usuli hijo”, “Ilmi qiroat”, “Lug‘at bilan ishslash”, “Ilmi bayon”, “Ilmi g‘ariba”, “Ilmi insho”, “Ilmi mantiq”, “Ilmi muammo”, “G‘azal tahlili” kabi usullarni keltirishimiz mumkin. AL adabiyot darsligining aynan “Jahon adabiyoti” bo‘limida keltirilgan Rudakiy ijodini o‘qitishda ham shu usullarni qo‘llash mumkin. Yuqoridagi metodlardan misol tariqasida **“G‘azal tahlili”** usuliga to‘xtalib o‘tamiz.

Ushbu metodni qo‘llashning asosiy bosqichlari quyidagicha kechadi:

1. G‘azal vazni aniqlanadi va paradigmasi chiziladi.
2. Tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati tuziladi.
3. G‘azalning baytma-bayt nasriy bayoni beriladi.
4. G‘azalning g‘oyaviy yo‘nalishi va mazmuni tahlil etiladi.
5. G‘azaldagi obrazlar aniqlanadi.
6. She’riy san’atlar tahlil etiladi.

Metodlarni tasniflashda ularni **“interaktiv metodlar, interaktiv ta’lim strategiyalari, interaktiv grafik organayzerlarga ajratiladi”**<sup>24</sup>.

“Hozirgi kunda eng ommaviy interaktiv ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interaktiv metodlar: “Keys-stadi”, “Debat”, “Domino”, “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Hamkorlik”, “Ijodiy ish” va boshqalar.
2. Interaktiv ta’lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Pinboard”, “Zanjir”,

<sup>24</sup> [www.shuhratbek.uz](http://www.shuhratbek.uz) sayti. Interfaol ta’lim metodlari

“Zig-zag”, “Muzyorar”, “Qarama qarshi”, “Suhbat”, “Qarorlar shajarasi”, “Ajurli arra”, “Yumoloqlangan qor”, “Muloqot” va boshqalar.

Interaktiv metodlar tarkibidan interaktiv ta’lim strategiyalari kabi turga ajratishga sabab guruhlar ishini tashkil qilishga asoslangan strategik yondashuv orqali amalga oshiriladi.

3. Interaktiv grafik organayzerlar: “BBB”, “Venn diagrammasi”, “Toifali jadval”, “T-Jadval”, “Sinkveyn”, “SWOT”, “Insert”, “Qanday?”, “Nima uchun?”, “Klaster”, “Tushunchalar tahlili”, “Ikki tomonlama kundalik”, “Assesment” va boshqalarni kiritish mumkin.

O’quv jarayonida interaktiv metod turlari sodda tarzda ko‘rinsada, ulardan amaliyotda foydalanishga o‘qituvchining ma’lum darajada bir nechta omillarni bajarishni taqozo qiladi. Ushbu omillarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ular quyidagilarni tashkil etadi: 1) ish tajribasi; 2) metodik malaka; 3) tayanch pedagogik-psixologik bilimlar; 4) tashkilotchilik qobiliyati; 5) didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari) ga ega bo‘lishi; 6) o‘quvchi-talaba va ularning guruhi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi; 7) o‘quvchi – talaba guruhining o‘zaro hamkorlikka erisha olishi; 8) axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarni samarali, o‘rinli, maqsadga muvofiq va o‘zaro moslikda qo‘llashga erishishi<sup>25</sup>. Interaktiv metod turlarini qo‘llash jarayonida sinf o‘quvchilarini ya’ni bilim oluvchilar guruh, jamoa yoki juftlikda ishlash malakasiga ega bo‘ladi, tengdoshlari orasida o‘z fikrlarini mustaqil va erkin tarzda ifodalashga kirishadi, o‘zini, qolaversa, boshqalarni ham xolisona baholay olish qobiliyati shakllanadi, o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini hosil qiladi, yuzaga kelgan

<sup>25</sup> Tashpulatova F. Interfaol ta’lim va uning turlari // Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2017. № 8.—B. 22.

vaziyatlar orqali yechimini izlashga va undan chiqib keta olishga undaydi. Ahillik, birdamlik kabi tuyg‘ularni yuzaga chiqishida hamda o‘zgalarga nisbatan hurmat, tinglash kabi axloqiy xislatlarni paydo bo‘lishiga asos bo‘la oladi.

“Interaktiv ta’lim turlari tamoyillari: 1) mashg‘ulot ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi; 2) guruhnинг tajribasi pedagogning tajribasidan ko‘p; 3) o‘quvchi-talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra o‘zaro teng; 4) har bir o‘quvchi-talaba o‘rganilayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega; 5) mashg‘ulotda o‘quvchi-talaba shaxsi tanqid qilinmasdan, balki fikr tanqid qilinishi mumkin; 6) bildirilgan g‘oyalar o‘quvchi-talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi”<sup>26</sup>.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim texnologiyasida interaktiv metodlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Yosh avlodni ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi jihatdan oldimizga qo‘ygan maqsadga erishishda ko‘prik vazifasini o‘taydi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari (BKM) shakllanib rivojlanishida yordam beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlarga qo‘sishma ravishda har tomonlama fikrlashga o‘rgatish orqali yangi g‘oyalar paydo qilishga sabab bo‘ladi va bu o‘z - o‘zidan raqobat vujudga keltiradi. Raqobat yuzaga kelgan joyda yuksalish, rivojlanish bo‘ladi. Interaktiv metodlar o‘quvchini har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan usullar bo‘lib, bilim olish saviyasini ko‘tarish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan turli xil metodlar yig‘indisidir.

<sup>26</sup> Tushipulatova F. Interfaol ta’lim va uning turlari. // Til va adabiyot ta’limi. 2017, № 8.—B. 22.

## LIRIK, EPIK VA DRAMATIK ASARLARNI O'RGANISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Badiiy asarlar an'anaviy ravishda uchta guruhga - lirik, epik, dramatik turlarga ajratiladi. Adabiy turlarning har biri tarixan vujudga kelgan. "Adabiyot tarixida dastlab hayotni tasvirlashning epik va lirik usullari paydo bo'lган. Keyinroq shu ikki usulning qo'shilishi natijasida dramatik usul kelib chiqqan"<sup>27</sup>.

Epos (yunoncha epos - rivoya, hikoya, so'z) nutq kabi ma'noni ifodalandaydi.

Ma'lum bir voqeani keng miqyosda hikoya qilishga asoslanadi va shu jihatiga ko'ra epik tur deb ataladi. Ya'ni unda odamlar, ularning xulq-atvori, asarda ro'y bergan voqealar va kishilarning unga munosabatlari tasvirlanadi. Ushbu turda bayon qilish muhim hisoblanadi. Nutq egasi so'zlovchi yoki bayonchi go'yo oldin bo'lib o'tgan voqeani hikoya qilayotgandek bo'ladi va ayni vaqtida turli holat va personajlar qiyofasini izohlab, tasvirlab o'tndi. Epik asarlarda hayot voqealari, odamlar bevosita ko'rsatilsa, lirik turda hayotning o'zigina emas, shoirning taassurotlari ifodalanadi. Dramatik asarda esa ham voqea-hodisa, ham ichki histuyg'u harakatlar asosida tinglovchiga ko'rsatib beriladi. Lirik tur va uning xususiyatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, lirika (yunoncha "cholg'u asbobi") demakdir.

Lirika adabiy turning bir turi bo'lib, qadimdan shakllangan. Bu turning boshqa turlardan ajralib turuvchi va shakllantiruvchi jihatni his-tuyg'u hamda ichki kechinmalarni tasvirlashi hisoblanadi. Epik va dramatik turdan farqi, voqeylikni tasvirlamaydi, undagi voqeylik lirik qahramonning ichki ruhiy olamini ifodalandaydi.

<sup>27</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Т.: Ўзбекистон. 2002. – Б. 459.

Shuning uchun ham bu turning asosiy obrazi - lirik qahramondir. Lirik asarda subyektning ichki obrazi yaratilgani uchun ham, o‘quvchi tasavvurida tashqi ko‘rinishi bilan gavdalmaydi, lekin o‘quvchi o‘zini uning o‘rniga ko‘rib, qalb kechinmalarini uyg‘otib, o‘sha holatga tushadi, his-tuyg‘ularini qitiqlab, ko‘ngil tug‘yonlarini tuyishga turtki bo‘ladi.

Lirik asarda epik asarga o‘xshash voqeabandlik, dramatik asarga xos dialogik holatlar ko‘zga tashlansada, ichki kechinmani ifodalashga xizmat qiluvchi vositadir.

Dramada qahramonning kayfiyati ham, nutqi ham xatti-harakatlari orqali ifodalanadi. Shunga ko‘ra ushbu turdagи asarlar asosan teatrga, sahnaga mo‘ljallab yoziladi va dialog, monologlarga asoslanadi. Dramatik asarda muallif ishtirok etmaydi, biror yo‘l ham ko‘rsatilmaydi; baholash, xulosa chiqarishda kitobxon tajribasi asosida tahlil qiladi.

Jahon adabiyotining eng sara lirik, epik va dramatik asarlarini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish texnologiyasini yaratish mavzuning ilmiy-amaliy asosini tashkil qiladi.

O‘qituvchi adabiyot o‘qitishda zamонавиy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida uchta turning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, qolaversa, shu jihatlarni inobatga olib, interaktiv metodlarni xususiyatlariga qarab tanlay olishi va uni amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Masalan, ta‘lim bosqichlarida “Jahon adabiyoti” bo‘limidagi epik turda yozilgan asar tahlilini amalga oshirish jarayonida, “Debat” metodni qo‘llash orqali yaxshi natijaga erishishi mumkin.

**“Debat” metodi.** Ushbu metod asosida darsni tashkil qilishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o‘quvchi o‘zgalarni o‘z yondashuvining to‘g‘riligiga ishontirishidir. O‘quvchi fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish

ko‘nikmalarini shakllantirishda debatlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

“Debat” (fransuzcha “Debattere” so‘zidan olingen bo‘lib, “Debats”- “bahslashmoq”) nafaqat yig‘ilish, majlislarda, balki, o‘quv mashg‘ulotlarida ham biror mavzu yuzasidan ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro bahs yuritish, ularning o‘zaro fikr almashishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda debat usulini qo‘llashda zarur bo‘lgan “**metodik tavsiyalar**”ga to‘xtalib o‘tamiz:

Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o‘quvchilarga sharoit tug‘diriladi. Debatda qatnashish uchun iqtidorli o‘quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo‘llab quvvatlaydiganlar va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarni o‘tkazish qoidasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuztuvchi-yordamchiga tayinlaydi. Bahslashuv natijasida o‘quvchilar nimalarni qo‘lga kiritishi mumkinligini tushunib yetsagina dars samarali bo‘ladi.

O‘quvchilarga shunday dalil-isbot topish ko‘nikmalarini o‘rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomon muhokama qilishga o‘rin qolmasin. Shundagina o‘quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki shaxsiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o‘rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko‘nikmalari shakllana boradi.

### **Debatlarni o‘tkazish tartibi:**

O‘qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. O‘rtaga tashlangan muammoni qo‘llab-quvvatlovchilar o‘qituvchining o‘ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashganlari maqlul;

O‘qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala tomon g‘oyalarini bayon qiladi va so‘zga chiquvchilar uchun vaqt belgilaydi;

O‘qituvchi qoralovchi guruh o‘quvchilarining birinchisiga so‘z beradi. Fikrini bayon qilish so‘raladi. O‘quvchi fikrlarini dalillar bilan ifodalaydi, so‘ngra oqlovchi guruhga navbat beriladi va shu tartibda davom etadi;

Bahsni har doim qarshi tomon guruh boshlaydi, o‘qituvchi bu subablarни sinftaxasiga yozib borishi ham mumkin, o‘quvchilar bu subablarga tegishli savollarga javob berishi mumkin, lekin o‘z fikrining to‘g‘riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

Muammo yuzasidan alohida o‘quvchi, guruh yoki juftliklar tomonidan bildirilgan ekspertning fikrlari tinglanadi, fikrlar tahlil qilinadi. Debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi va debat yakunlanadi<sup>28</sup>.

Endi ushbu metodni umumta’lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limiga kiritilgan N.Dumbadzening “Hellados” asari misolida ko‘rib chiqamiz.

**Bahs mavzusi: Yanguli fojiasiga uning o‘zi aybdormi yoki axloqsizligi uchun qilmishiga yarasha jazo oldimi?**

Ha

Javob: Chunki u otasi bilan Gretsiyaga ketishni istamagandi

Dalil: Shuning uchun ketmayman deganida otasidan tayoq yegandi

Yo‘q

Javob: U o‘z Vatani deb shu yerni ya‘ni ulg‘aygan ko‘chasi, do‘stlarini bilardi

Dalil: Mening Vatanim, mening Elladam bu Suxumi ... deydi

Ha

Javob: Yanguli Suxumidan ketmaslik uchun o‘zini suvgaga tashlagan

Dalil: Ketayotganda otasi kemada uning qo‘lini ushlab turgandi

Yo‘q

Javob: U o‘lishni istamagandi, shu yerda qolishni xehlagandi, xolos

<sup>28</sup> Toshkent viloyati xalq ta‘limi xodimlarining qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar. – T, 2016. – B. 97-98.

Dalil: Onasi yo'q, hatto eslolmaydi, otasi esa kecha-kunduz tomorqa bilan band edi. Bolaga esa shu yer aziz. Unga boshqa narsa kerakmas

Ha

Javob: Yanguli bezori, axloqsiz edi

Dalil: O'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olish uning kasbi edi

Yo'q

Javob: Bunday bo'lishni u xohlamagan edi. O'sha muhit shunga majbur qildi

Dalil: Agar shunday bo'limganida uni ham urib, tepib ketishardi

Ha

Javob: U bezoriligi bilan ko'chasingning sardori edi

Dalil: Hamma bolalar unga bo'ysunardi, undan qo'rqlihardi

Yo'q

Javob: Agar ota-onasi uni tarbiyalaganida bunday mushtimzo'r bola bo'limgan bo'lar edi

Dalil: Onasiz yetim, otasi esa bolasiga qarab, g'amxe'rlik qilganida unaqa hol kuztilmasdi, bola yomon yo'iga kirib bezori bo'lmas edi

Ha

Javob: O'zi hayotda to'g'ri yurib kun kechirishi mumkin edi-ku, nega u boshqa bolalarga o'z zug'mini o'tkazadi

Dalil: Boshqalar kabi oddiy yashashi mumkin edi. Yanguli kelgan bolalarni o'ziga bo'ysununaguncha urib, do'pposlardi. Jamolga ham shunday munosabatda bo'lgan

Yo'q

Javob: U yashagan muhitda g'olib bo'lishni xohladi. Shundagina u erkin yashardi

Dalil: U faqat yashash uchun kurashdi, xolos

Ha

Javob: Agar u shunday yomon bo'limganida, boshqalarga ozor bermaganida o'lib ketmagan bo'lar edi

Dalil: Jamolni, qolaversa, boshqa bolalarni qancha qiyanagan. Qilmishiga yarasha jazo olgan

Yo'q

Javob: Yanguli aslida yomon bola emas u faqat o'z uyi ko'chasinibegonalardan himoya qilishga uringan hur, erkin bola edi

Dalil: Har qanday inson o'z vurtini begonalardan asragisi kelmaydimi?

Ha

Javob: U otasi bilan ketishdan ko'ra o'limni afzal biladi

Dalil: Shuning uchun otasiga qarshilik ko'rsatgan

Yo'q

Javob: Yanguli irodasiz, qo'rkoq bola emas. U kuchli yigit. O'z Vatani ya'ni Suxumi ko'chasinib "Hellada"si deb bilardi

Dalil: Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'yib, u naqsh vatan- ichkariroqda, naq yurakning o'zida bo'ladi degan gapi buning dalili emasmi?!

Ha

Javob: Agar mard bo'lsa nega suvgaga o'zini tashlaydi, halok bo'lishiga ko'zi yetmaydimi, ahmoqliq qilayotganini o'zi sezmadimi?

Dalil: Sohilga o'zini kemadan tashlash o'zini o'ldirish-ku?

Yo'q

Javob: U otasiga norozilik bildirib qarshiyam chiqdi, ammo bunga u to'sqinlik qila olmadi

Dalil: Agar otasi uni tushinib, tashlab ketganida yoki birga qolib, yashaganda u o'lib ketmagan bo'la edi

Ha

Javob: Uning o'limida, bunday bo'lishida otasi aybdor emasdi. o'zi shu yo'lni tanladi

Dalil: Otasi farzandini beqish, voyaga yetkazish uchun uzzukun mehnat qildi. Birgina Yanguli uchun yashardi. Otasi ham o'z Vatanini yangulidan kam sevmasdi. Uning "Hellada"si – Gretsiya edi. U ham do'stlari, yaqinlari, xotirlari bor joyga talpinadi, xolos

Yo'q

Javob: Agar otasi farzandini chin dildan ko'rganida uni tushunardi, qarshilik qilmasdi

Dalil: Hatto, bolasingining bezoriligiga ham bee'tibor edi. To'g'ri yo'lga bohlamadi, tarbiya berib bolasi bilan yaqin bo'lmadi

Ha

Javob: O'z fojiasida aybdor. Chunki u boshi berk ko'chani, o'limni tanladi

Dalil: Kurashmadi, oson yo'lni tanlab, muammoni o'zicha bartaraf etib qutildi

Yo'q

Javob: U aynan shu Vatanda yashash uchun oxirgi nafasigacha kurashdi

Dalil: Taqdirga nisbatan isyon qildi

Ha

Javob: Yanguli hayotga oddiy ko'z, yengil yelpilik bilan qaradi

Dalil: Ko'nikib yashashdan ko'ra o'zi taslim bo'ldi, o'lib ketishini o'zi ham o'yumagandi

Yo'q

Javob: U o'zini sohildan tashlamagandir.

Dalil: Balki bu bir batxsiz, noxush tasoditiy vogeadir.

Ha

Javob: Suxumi unga ota-bobosining yurtidan ham aziz, haqiqiy Vatani edi.

Dalil: Shuning uchun ham boshqa yerda yashashdan ko'ra o'limni o'ziga ravo ko'rgundit.

Yo'q


Javob: O'limni o'ziga ravo ko'rmadi. Vatani deb, - ko'chasi, bolalarni aytardi. Jamolni ham yaxshi ko'rib qolgandi. Ularni tashlab ketishni xohlamasdi, xolos. Dalil: U shu yo'l bilan qaytib kelib yana oldingidek yashashni, o'zini mustaqil, erkin his qiladigan, chang ko'chasida bolalar bilan o'yin-kulgi qilib kun kechirishni istab shunday qilgan.

<b>Yangulining o'ziga xos vaqelik bilan bog'liq bo'lgan jihatlari oqlaydi</b>	<b>Yangulining ojizlik jihatlari zaifligini qoralaydi</b>
U ko'cha bolasi, tarbiya ko'rmagan.	Lekin, Vatanga, do'stilariga mehr to'la qalbi bor bola edi.
Yanguli mard, qo'rmas edি.	U bezori janjalkash bola edi.
U ketmasligi kerak edi.	Uni otasi majburladi.
O'zini suvgaga tashlamasligi lozim edi.	U o'llishni xohlamagandi. bunday bo'llishini kutmagan edi.
Yanguli o'zini idora qilishi kerak edi.	Otasining aytganiga quloq solishi shart edi.
Qalbiga qarshi chiqqa olmadi.	O'zinii o'ldirib, joniga qasd qilib gunoh ish qildi.
Bolalarni urib, do'pposlardi.	O'zining ko'chasi begonalardan qutqarishga, avaylashga uringan edi.
Sardorligini ro'kach qilib, kuchliligin maqtanishga urinib, bolalarni o'ziga bo'yundirardi.	O'zini himoya qilgan edi, xolos.
Na o'qish va na yozishni bilardi.	Unda insoniylik jihatlari ufurib turardi.
Ota-onalar tarbiyasini ko'rmagan.	Shunday bo'lsa ham Jamolning onasi o'lganini eshitib, undan uzur so'rab dalda bo'lgan. Ketayotganida ham ko'nglini ko'tarish uchun "Jamol, oyingni yaxshi ko'raman", - deya olgan bola aqli va kuchlidir!

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu asar Vatan, vatanparvarlik, sadoqat, do'stlik, mehr-muhabbat haqidagi asar. Hikoya Yanguli ismli bolaning qismati aks ettirilgan. Hikoya Jamol degan bola tilidan so'zlab beriladi. Undagi bosh obraz Yanguli hech qayerda

o'qimagan, onasidan go'dakligidayoq yetim qolgan, otasi bo'lsa uzzukun tirikchilik tashvishlari bilan band. Yanguli bir qaraganda u - ko'cha bolasidek, "o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olish" uning kasbiga aylanib qolgandek tuyiladi. Ushbu qahramon, garchi, maktab - ustoz ko'rmagan, ota-onha mehridan to'la bahramand bo'lolmagan bo'lsa-da, uning tabiatan nozik ko'ngli, mushohadaga moyil aql-u farosati bor! Yanguli fojiasida uning otasi aybdor deb ham ayta olmaymiz. Otasini ham tushunish kerak, chunki u ham o'z Vatanini Yangulidan kam yaxshi ko'rmaydi. Faqat uning vatani boshqa - Gretsya - Ellada! Ushbu hikoyada Jamol ham, garchi hali yosh, o'yinqaroq bolaligi o'tib ketmagan bo'lsa-da, o'ziga xos xarakterga ega obraz hisoblanadi. Uning o'rnida boshqa bola bo'lganida, balki Yangulidan kaltak yeganidan keyin bu to'daga bo'ysunib ketardi. Jamol esa bu "to'da"ga bo'sh kelishni xohlamaganli, shu qat'iyligi, jasurligi, o'zini xor qildirib qo'ymasligi, oxir-oqibatda, "dushmanlari"ning do'st bo'lishiga, Yangulidek "zo'ravon" bilan ahil do'st bo'lib, mehrini qozonishga olib keladi. Jamolning hozirga qadar o'tkazgan hayotidagi eng fojiali kun - qadrondi Yangulining o'limiga shohid bo'lgan kun. Hikoyada qator betakror inson xarakterlari borligini ko'rishimiz mumkin. Nodar Dumbadzening «Hellados» asarini sinchiklab o'qib, ko'pgina ma'nolar topishimiz, ruhiyatimiz va dunyoqarashimizni boyitishimiz mumkin.

"Hellados" asariga yoki Yanguli qahramoniga har bir o'quvchi "Sinkveyn" tuzishi topshiriladi va og'zaki tarzda o'qib eshittiriladi. Masalan:



*1-o ‘quvchi:*

“Vatan”

Mehribon, aziz

Tug‘ilamiz, ulg‘ayamiz, yashaymiz

Kindik qonimiz to‘kilgan o‘lka

Diyor

*2-o ‘quvchi:*

“Vatan”

Qadrdon, sevimli

Onamizdek aziz muqaddas diyor

Yurt

*3-o ‘quvchi:*

Yanguli

Mard, jasur

Himoya qildi, kurashdi, isyon qildi

Vatanga bo‘lgan sadoqat timsoli

Vafo

*4- o‘quvchi:*

Jamol

Qat’iyatli, qo‘rqmas

Qiynaladi, kurashadi, erishadi

Qadrdon sodiq do‘sit obrazi

Samimiy

### "S"(Strength) ya'ni kuch

Yangulu asli grekklik. Otasi Xristi Aleksandri mehnatkash inson. Yanguli hech qayerda o'qimagan. Onasi esa go'dakligida vafot etib yetim qoladi. Yanguli tarbiya ko'rmanan ko'cha bolasiga o'xshasada, u mard va jasur yigit. Asardan pacha: "Bolalar! Men Yanguli Aleksandri, sizlar saylagan sardor, sizlarga Venetsian ko'chasining hur farzandlariga murojaat qilaman!... Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo'stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo'lish o'niga, Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz oltin va kumushlarimiz, o'tloqlarimizni o'ziniki qilib olmoqchi..."

### "O" (Opportunity) ya'ni imkoniyat

Yanguli Gretsiyaga ketishni xohlamaydi va Jamolga shunday deydi :

"Mening Vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kuzlika, Fema, Qora dengiz, ko'priki..."

- U bir yutinib olib, davom etti:
- Bu Mida... Qolaversa, sen...

### SWOT

### "W" (Weak) ya'ni zaiflik

Otasi uni o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga Gretsiyaga majburlab olib ketmoqchi bo'ladi va Vatani o'z Helladasini tark etadi.

Asardan pacha: Jamol bilan yaqin bo'lib qoladi. Bir kuni Jamollarning uyiga sut olib chiqqanida Jamol uning yuzini ko'rib qo'rqib ketadi va kim urganligini so'raganida Yanguli otasi ekanligini aytadi. Sababiga esa shunday javob beradi: ... "Otam meni o'z yurtiga olib ketmoqchi. Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning yurtimiz, ona tuprog'imiz o'sha yerda..."

### T" ( Threat) ya'ni xavf-xatar


Yanguli o'z yurtdoshlari otasi bilan bobo yurtiga ketdi. Ertasi kuni esa Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to'lqinlari bir bolanling jasadini sohilga chiqarib tashlagan ekan. Keksa baliqchilar ko'rib qolib tortib olib qumga yotqizishadi. Uning kimligini aniqlash uchun shu yaqin atrofdagi bolalarni chaqirishadi. Suvda cho'kkan odam tanib bo'limas darajada shishib ketgandiki, biron belgi bilan aniqlanmasa bu ish oson kechmasdi. Uni Jamol taniydi. Yangulining chap ko'sida "Hellados" yozuvidan tanib, karaxt bo'lib qoladi.

Ta'lrim bosqichlarining 7-sinf adabiyoti darsligining "Jahon adabiyoti" bo'limidagi Ch.Aytmatovning "Oq kema" asari berilgan. Bu asarni o'qitishda "Ajurli arra" metodidan foydalanib, asarning syujeti, obrazlar tizimi va voqealar rivojini amaliy tomondan o'rghanib chiqamiz.

**"Ajurli arra".** Ushbu usul hamkorlikda o'qitish texnologiyasi hisoblanib, 1978-yilda E.Aronson tomonidan ishlab chiqilgan. Pedagogik amaliyotlarda mazkur usulda kichik guruhlar 6-8 nafar o'quvchidan tashkil topadi. Metodning maqsadi shuki, kichik guruhlar faoliyati uzviy olib boriladi, barcha o'quvchilar to'liq jalb qilinadi, o'ylagan fikrlarini yozma bayon etish ko'nigmalarini rivojlantiradi. Dars davomida o'rghaniladigan mavzu (badiiy matn) mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassis-ekspert"ga aylanadi. So'ngra guruhi qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda ekspert bo'lishi kerak. Ular o'zları egallagan bilimlarni xuddi "arra" tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy kema-ketlikda qayta ishlab chiqiladi<sup>29</sup>

"Ajurli arra" metodining ahamiyati shundaki, o'qitish jarayonida o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishga imkon tug'iladi. O'qituvchi o'quvchilarga alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslik, qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal kabi materiallarni bo'ldi. Har bir o'quvchi 2 ta guruh tarkibida dastlab birlamchi (o'ziyi)guruhiiga, keyin esa "ekspert" guruhiiga birlashib o'quv elementlarini mustaqil o'rghanadi.

<sup>29</sup> Ta'lrim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarining qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti. – T, 2016. – B. 55.



1-guruh matni “Oq kema” asarining boshlanishi darslikdagi<sup>30</sup> 91-betdan 106-betgacha keltirilgan bob bo‘lib, ular o‘zaro raqamlangan tarzda tarqatiladi. O‘quvchilar soniga qarab guruhlanib vazifa topshiriladi. 1-guruh a’zolariga savollar turqatiladi. Har bir berilgan matnga tayanib, topshiriqqa javob oladi. O‘zlashtirilgan matn asosida o‘quvchilar bir-biriga gapirib beradi. 2-guruh a’zolari “Mo‘min cholning bolaga Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertagi” qismi topshiriladi (106-116-betlar). 3-guruhga esa “Mo‘min cholning bug‘uni so‘yish” voqeasi asar yakuni keltirilgan parcha topshiriladi. Har bir guruh a’zolariga alohida ekspert savollari ishlab chiqiladi va vazifa qilib berilgach ekspertga aylanishadi. 1-guruh ekspert guruhiga savollar quyidagicha:

*1-ekspert savoli:* Asar boshida bolaning ikki ertagi borligi haqida so‘z boradi. Siz bu ertaklarning qaysi ekanligini bilasizmi?

*2-ekspert savoli:* O‘scha paytda bola necha yoshda edi va uning nimalari bor edi?

*3-ekspert savoli:* Sizningcha bolaning xarakteri qanday? Uning tuya, egar, tank, bo‘ri kabi xarsangtoshlari borligidan tabiatga munosabatini ifodalang.

*4-ekspert savoli:* Bolaning o‘t-o‘simliklar, gullarga nisbatan munosabati qanday?

<sup>30</sup> Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rtta ta’lim muktabalarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T, 2013. 91b.

*5-ekspert savoli:* Nimani bulutlar yaxshi biladi, bola qayerga ketishni xohlaydi?

*6-ekspert savoli:* Mo'min chol, Bo'key xola, eri O'razqul, Saydahmad haqida gapirib bering.

*7-ekspert savoli:* Bola kim bilan suhbatlashishni yaxshi ko'radi? "Endi biz uchtamiz - men, sen va durbin...", - deb kim yoki nimaga aytadi?

*8-ekspert savoli:* Bolaning g'alati orzusi bor edi, u qanday orzu? Oq kema haqidagi ertak qanday tugaydi?

1-guruh o'quvchilari har biri o'ziga berilgan matn va topshiriqqa asoslanib, taxminan javoblari quyidagicha bo'ladi. Ular farmat qog'ozga kerakli o'rirlarni yozib borishadi. Bir-biriga galma-galdan voqealar rivoji haqida gapirib berishadi. Va shu orqali barcha a'zolar asardan keltirilgan parchasi haqida ma'lumotga ega bo'lishadi.

*1-ekspert javobi:* Bolaning ikkita ertagi bor edi, birinchisi o'ziniki "Oq kema" haqidagi, ikkinchisi bobosi aytib bergen ertak edi. Bola "Oq kema" ertagini o'zi o'ylab topgan bo'lib, otasi kemada ishlaydi va qaytib kelishiga ishonardi. Bir kun durbinidan ko'lga qarasa kema g'oyib bo'lgan va ertagi bu ertagi ham tugaydi.

*2-ekspert javobi:* O'sha paytda bola yetti yoshni to'ldirib sakkizga chiqqandi. Bobosi unga ko'chma magazindan portfel olib bergandi. Bolaning portfeli, durbini, xarsangtoshlari va o't-o'simliklari bor edi.

*3-ekspert javobi:* Bola tabiatan juda quvnoq va sho'x edi. Bobosining tarbiyasi natijasida tabiatga mehr-muhabbat oshgan. Ularga bola boshqacha nazar bilan qarar va o'z do'sti yoki o'yinchog'idek munosabatda bo'lib, ular bilan o'ynardi va hatto, nom ham qo'ygandi. Sarg'ish bukri toshga tuya, bo'riga o'xshash qo'ng'ir-oq toshga bo'ri, kattakon tankka o'xshashini esa tank deb

atardi. Ularni juda yaxshi ko'rardi, toshlari orasida "yaxshi", "yomon", "ayyor", "ovsar"lari ham bor edi.

*4-ekspert javobi:* Bola tabiatni, umuman o'simlig-u gullar, xarsang tosh-u bulutlar, ko'ichasi-yu narsalarini yaxshi ko'radi. Ayrim xavfli o'simliklar bilan ham kuniga o'n martalab jang qilib, chopib tashlardi. U o'zicha pechakgullarni eng aqlli va quvnoq gul deb atashiga sabab, tongda 1-bo'lib qarshi oladi, boshqa o'tlarga esa tongmi-tunmi farqi yo'q der edi. Shiroljinni sadoqatli do'st deb bilardi, chunki ko'ngilsizlik yuz bersa u yerda yig'lab panoh topardi.

*5-ekspert javobi:* Bola uzoq-uzoqlarga, uni hech kim topa olmaydigan joylarga bedarak ketishni xohlaydi. Uni hamma oh-voh tortib qidirishini, kuyinishlarini istashini bulut bilardi. Bulutlarga tikilsa, ular istagan orzularga aylana olardi. Bola uchun hamma narsani unutishga, ko'rganda chopdiradigan narsa bu ko'chma do'kon edi. Bola shunday o'ylardi: Ko'chma do'kon tosh yoki o't emas, u yerda kishining jonidan bo'lak hamma narsa bor, derdi. Biror narsa sotib olmasa ham ko'rish, kuzatish yoqar edi. O'sha payt barcha narsani unitardi va narsalarga maxliyo bo'lib, ketguncha qarab qolar edi.

*6-ekspert javobi:* Bobosini "Mo'min chaqqon" deyishardi, uni hamma bilardi, tanir edi. Ko'ngli ochiq, xushmuomala, sadoqatli, yaxshilik qilishga tayyorligi uchun shunaqa atashardi. Lekin uning qadriga yetmasdi. To'y-marakalarda xizmat qilishdan qaytmaydi, lekin biror marakaga uni aytishmasa qattiq xafa bo'lardi. Mo'min cholning kampiri va ikkita qizi bor. Bittasi bolaning onasi, ikkinchisi bolaning Bo'key xolasi edi. Bo'key xolasining eri O'rozqul bo'lib, ular farzandsiz edilar. O'rozqul amaldor bo'lgani uchun daladagi ishlarni qaynotasi va ishchi Seydahmad qilardi. Seydahmad yuvosh, baquvvat, uyquchi bola edi. O'rozqul ichib

kelsa Mo'min chol va Seydahmadga do'q urardi. Buvisi va Bo'key xola ham bolani yaxshi ko'rardi, lekin O'rozquluni yoqtirmasdi.

*7-ekspert javobi:* Bola o'zi bilan o'zi suhbatlashishni yaxshi ko'rardi. Portfelli bo'lgach, portfeliga gapirardi. Men, sen va durbin deb - o'zini, portfelini va durbinini aytardi. Unga turli xil noma'lum voqealarni so'zlab berardi. Bola durbin va portfeli bilan birga tevarak-atrofni, dalalar, qishloqlar, tog' cho'qqisi-yu ko'lni , qishloqning chekkasidagi 4 yillik mактабни, qирғоq, jarlik, o'rmonlarni zavqlanib, maroq bilan tomosha qilar va ular bilan ovinib, vaqt o'tganini, kech kirganini bilmay qolardi. U xuddi portfeliga barcha narsalarni ko'rsatganidek, u bilan suhbat qurardi.

*8-ekspert javobi:* U baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi. U bobosi yasagan ko'labda kuniga yuz marta cho'milishni istardi. Baliqqa aylanmaguncha cho'milaveradi. U o'zini baliqdek tasavvur qilardi. Daryo bo'ylab oq kemaga qarab suzib ketishni xayol qilardi. Otasini oq kemada suzayapti deb o'ylardi. Bola baliqqa aylanishni shunchalik xohlaydiki, baliqning hamma joyi- tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o'tsa-yu, faqat ingichka bo'yinli, shalrangquloqli, tirlangan burunli boshi o'zida qolsa bas. U yaqinlari bilan xayrlashib, xayolan Issiqko'lga chiqadi va oq kemada uni otasi qutqarib olib keladi. Bola o'z holiga keladi va hammasini otasiga aytib beradi. Afsuski, bu bolaning o'y-xayoli edi. Bir payt qarasa, oq kema uzoqlashib bir nuqtaga aylanib qoldi. Ko'zdan g'oyib bo'ldi va u qaytib ko'rinnadi. Shundan keyin oq kema haqidagi ertak ham tugagan edi.

Ikkinci va uchinchi guruhlarga ham shu tarzda topshiriqlar beriladi va ular javob berishib bir-biriga so'zlab berishgach, har bir guruhdan a'zolar olinib, ekspert guruh tashkil etiladi va ular ham bir-biriga o'rganib olganlari haqida ma'lumotlar berishadi va natijada ular asarni to'liq tushunib, o'zlashtirib olishadi. Keyin esa

yana dastlabki guruhlariga qaytib o‘z guruhiga tushunganlarini gapirib berishadi va barcha o‘quvchilar asar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishadi. Ushbu metod mavzuning murakkabligiga qarab bitta dars vaqtini olishi ham mumkin. Baholash tizimiga kelsak, guruhlarning faolligi, fikr bildirib, topshiriqni to‘liq bajarishiga qarab baholanadi. O‘qituvchi dars davomida bildirilgan noto‘g‘ri fikrlarni to‘g‘rilab, ularni to‘ldirib, tushuntirib boradi va metodni yakunlashdan oldin asarga umumiyl xulosa berib o‘tadi.

Biz bilamizki, uzoq asrlar davomida nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida an'anaviy tarzda she’riy asarlar yozish yetakchilik qilgan. Nasriy asarlar esa murakkab xarakterga ega bo‘lib, she’riy va nasriy matnlarning aralash kelishi ustuvorlik qiladi. Shuning uchun ham biz bunday asarlar tahlilida janr xususiyatlarini hisobga olgan tahlil qilamiz. Quyida umumita’lim mакtablarining adabiyot darsliklarida “Jahon adabiyoti” bo‘limini o‘rganishda lirik asarlarning ayrimlarini tahlil qilib ko‘ramiz.

Ta’lim bosqichlarining 8-sinf adabiyot darsligining IV choragi “Jahon adabiyoti” bo‘limida Muhammad Fuzuliy g‘azallari, Robindranat Thakurning “Nur va soyalar” asari va Sergey Yesenin hayoti, she’rlaridan namunalar keltirilgan.

“Jahon adabiyoti” bo‘limida lirik asarlarni o‘rganishni Muhammad Fuzuliy va Sergey Yesenin lirikasi misolida ko‘rib chiqamiz. 8-sinf adabiyot fani dasturida M.Fuzuliy hayoti ijodi va g‘azallariga 2 soat ajratilgan bo‘lib, 58-59- mavzularga to‘g‘ri keladi. Fuzuliy g‘azallarini o‘qitishda “Tushunchalar tahlili”, “Ikki tomonlama kundalik”, “Lug‘at bilan ishslash”, “Blits-so‘rov” kabi metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

Fuzuliy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan birinchi dars o‘tilgach, o‘tilgan mavzuni takrorlash qismida ushbu metodni qo‘llash mumkin. Chunki 8-sinf o‘quvchisi mumtoz adabiyotga doir tushuncha va atamalarni o‘tgan bo‘lsa-da, ular murakkab va o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgani uchun ularni takrorlab mavzuga bog‘lagan holda o‘tish yaxshi tushinishga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning har biriga “Tushunchalar tahlili” jadvali tarqatiladi, keyin uni to‘ldirishlariga 3 daqiqa vaqt beriladi. O‘qituvchi qisqa vaqt ichida o‘quvchilarni individual tarzda baholay olish imkoniyatiga ega bo‘libgina qolmay, o‘quvchilar egallagan bilimlarini o‘z fikrlari bilan erkin ifodalay oladi.

### **“Tushunchalar tahlili”**

G‘azal	
Tazod	
Matla’	
Maqta’	
Qofiya	
Radif	
Talmeh	

*O‘quvchilarning javoblaridan bittasini misol tariqasida keltiramiz:*

G‘azal	Arabcha so‘z bo‘lib, “oshiqona so‘z yoki ayollar bilan yoqimli muomalada bo‘lish” degan ma’noni bildirib, a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanadi.
Tazod	O‘zaro zid antonim so‘zlarni qo‘llash tazod san’ati sanaladi. Shoh va gado bir-biriga tazod bo‘la oladi.
Matla’	G‘azalning 1-bayti matla’ deb atalib, undagi misralar o‘zaro qofiyalanib a-a tarzida bo‘ladi.
Maqta’	Maqta’ arabcha “tugallanma”, “kesilish” kabi ma’nolarni ifodalab, g‘azalning oxirgi baytiga aytildi.

Qofiya	Bu so'z arabcha so'z bo'lib, "ergashish" degan ma'noni ifodalaydi. She'riy misralarning o'zaro qofiyadosh bo'lib kelishi. Ikti turga: och va to'q qofiyaga bo'linadi.
Radif	Arabcha "otning orqasiga ergashib boruvchi" degan ma'noni bildiradi. Qofiyadan keyin butun she'r davomida takrorlanib keluvchi so'z yoki so'z birikmasiga aytildi.
Talmeh	Talmeh "naraz tashlash" ma'nosini bildirib, she'rda tarixiy shaxs yoki joy nomlari qo'llanilishiga aytildi.

**"Ikti tomonlama kundalik"** usuli ham Fuzuliy g'azallarini o'rganib, tahlil qilishda qo'l keladi.



Berilgan fikr	O'quvchi fikri
Shifoyi vasi qadrin hajr ila bemor o'landan so'r <sup>31</sup> ,	
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r	

Berilgan fikr	O'quvchi fikri
Shifoyi vasi qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,	Vaslning davosini qadrini hajr bilan bemor bo'lgan odamdan so'ra
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r	Suvning zavq-shavqini diydorga tashna bo'lgan insondan so'ra

**"Lug'atlar bilan ishslash"** o'rganilayotgan asardagi mujmal, tushunarsiz, izohtalab so'zlarni ta'riflab, izohlash orqali

<sup>31</sup> Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim mакtabalarining 8-sinf uchun darslik-majmua. Ikkinci qism. – T.:2014. – B. 143.

o'quvchiga asar tushunarli bo'lishida va undagi ilgari surilgan g'oyani oolib berishda katta yordam beradi. Fikrimiz dalili sifatida M.Fuzuliyning "Mani jondan o'sondirdi..."<sup>32</sup> g'azalida keltirilgan izohtalab so'zlarni topishni "**Lug'atlar bilan ishslash**" metodi orqali ifodalaymiz.

<b>So'zlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
1.O'sonmoq	
2.Qamu	
3.Uyodor	
4.Uyanmoq	
5.Bilmon	
<b>So'zlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
1.Rind	
2.O'tanmoq	
3.Ta'n	
4.Zoyil	
5.Dagildim	

"Blits- so'rov" jadvali orqali o'quvchilar Fuzuliy qalam tebratgan janrlari va ularning soni qancha ekanligini bilishlari sinaladi va ularni tezkorlik va hozirjavoblikka undaydi.

### **"Blits-so'rov" jadvali**

	G'azal	Qit'a	Tarje'-band	Tarki-band	Murabba	Muxammas	Ruboiy	Qasida
300 ta	+							
75 ta							+	
42 ta		+						
27 ta								+
Bir nechta			+	+	+	+		

<sup>32</sup> Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. Ikkinchchi qism. – T.: 2014. – B. 147.

Jahon adabiyotining ko‘zga ko‘ringan yana bir vakili Sergey Yesenin she’rlarini o‘qitishda “Hamkorlik kvadrati”, “Audio topshiriq”, “Sirli nuqtalar” metodidan foydalanib tahlil qilamiz.

**“Hamkorlik kvadrati”** usulini lirik turdag'i janrlarda qo‘llash mumkin, baytlar parchalanib, so‘zlar aralashtirib tashlangan bo‘ladi. O‘quvchilar birgalikda she’rni o‘z holiga tiklashib, parchalarni yig‘ib, baytlarni hosil qilishi kerak bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning birgalikda ishlashiga, shu bilan birga xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Quyida Sergey Yeseninning “Xurosanda bir darboza bor” nomli she’rini ushbu usulda qo‘llab ko‘ramiz.

*1-guruhg'a tarqatilgan topshiriq:*

**Bir, darboza, bor, Xurosonda, yashar, ko‘milgan, bir, ostonasi, gulga, unda, pari, Xurosonda, ruxsor, bor, man, darboza, hayhot, uni, ocholmadim.**

*Ushbu she’r quyidagicha yig‘ilishi kerak:*

Xurosonda bir darboza bor,

Ostonasi gulga ko‘milgan

Unda yashar bir pari ruxsor,

Xurosonda bir darboza bor

Hayhot, uni ocholmadim man<sup>33</sup>.

*2-guruhg'a beriilgan so‘zlar:*

**Yetarli, kuch, ham, sochlарimdan, qo‘llарimda, oltin, olgan, rang, pari, meni, ul, asir etdi, man, garchi, eshikni, qo‘limda, kuchim, ocholmadim, ul, yetarli.**

*Ushbu she’r quyidagicha yig‘ilishi kerak:*

Qo‘llарimda kuch ham - yetarli,

Sochlарimdan oltin rang olgan,

Asir etdi meni ul pari.

<sup>33</sup> Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. Ikkinci qism. – T, 2014. – B. 178.

Qo‘lda garchi kuchim - yetarli,  
Ul eshikni ocholmadim man (178-bet).

### **“Audio topshiriq”.**

Sergey Yeseninning “Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan...” she’ri audio vosita orqali qo‘yib eshittiriladi va ulardan she’rning mazmuni so‘raladi. O‘quvchilar ikkita guruhga bo‘linadi va baytlar bo‘yicha galma-galdan javob berib borishadi.

#### *1-guruhnинг 1-bandga javobi:*

1-bandda oshiqning majruh ko‘nglidagi dog‘lar ketganligi, mastligi unda hech qanday vasvasa tug‘yonlarini qo‘zg‘amaganligini aytadi. Ya’ni dardiga davoni choyxonada Tehron gulidan topganini aytadi.

#### *2-guruhnинг 1-baytga javobi:*

Ushbu baytda oshiqning bemor bo‘lgan qalbidagi dog‘lari ketganini va yor vasliga yetganligini, mast vasvasa bezovta qilmayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni bizning fikrimizcha, lirik oshiq Tehron guli deganda yorga nisbat bergen va uni choyxonada uchratganini aytib o‘tadi.

*1-guruhnинг 2-bandga javobi:* 2-baytda choyxonachi tasvirlanadi. Choyxonachi choyini maqtab, ruslar qoyil qolishini ularga may o‘rniga ham achchiq-achchiq choy tutishini aytadi.

*2-guruhnинг 2-bandga javobi:* Ikkinchi bayt 1-guruh aytganidek, choyxonachining barvasta, o‘ktamligi qolaversa, uning choyini ichgan rus qoyil qolishi-yu, ularga may va aroq o‘rniga ham choy tutishini keltirib o‘tadi.

*1-guruhnинг 3-bandga javobi:* 3-baytda oshiq mezbonga choyidan quyishini aytadi. U yerdagi turfa gullar deganda qizlarni nazarda tutganligi hamda ohu ko‘zini suzdi deb yor ko‘zini suzishiga ishora qilyapti.

*2-guruhnning 3-bandga javobi:* Ushbu baytda lirik qahramon aytadiki, o'sha choyxonaga borib, choy ichmoqchi bo'lib o'tirganida oqshom payti ul pari ko'zini suzib o'tib ketganligini ta'kidlaydi.

*1-guruhnning 4-bandga javobi:* Shoir aytadiki, o'z yurti Rossiyada qizlarni tutqinlikda saqlamasliklarini va majburiy tarzda emas, yorning o'z xohishi bilan sevishlarini aytib o'tgan.

*2-guruhnning 4-bandga javobi:* Rostdan ham rus farzandi Eron yurtiga kelib, bir go'zalni sevib qoladi. Va u yerdagi ijtimoiy muhit, qizlarning tutqunligini ko'rib, o'z yurti bilan beixtiyor solishtiradi. Shunda hech qanday qurol yoki zug'um bilan yorni ushlab sevdira olmasligini ta'kidlab o'tadi.

*1-guruhnning 5-bandga javobi:* Beshinchi bandning mazmunini aytadigan bo'lsak, agar o'sha tong yuzli dildor ya'ni yorug' yuzli yor oshiq oldiga noz bilan xirom etib boshiga shohi ro'mol, yo'llariga, oyoqlari tagiga Sheroziy gilamini solishini aytadi.

*2-guruhnning 5-bandga javobi:* Bu baytda ijodkor shunday demoqchi: Oshiqning ichki kechinmalarini ta'riflaydi va yor bir bor uning oldiga noz bilan xirom aylab kelsa bas, mayli o'z yurtidagi qoidalardan kechib, shu yerning talablarini qilishga ko'nikishini aytadi.

*1-guruhnning 6-bandga javobi:* Ushbu baytda choyxonachi yana tilga olinadi. Lirik qahramon o'zini shoir deb, choyxonachidan choy quyishini so'raydi va aytadiki, ehtiyyot bo'lishini, ya'ni "bog'dagi gullar" dildorlarga ishora qiladi.

*2-guruhnning 6-bandga javobi:* Ha, ushbu baytda lirik qahramon mezbondan choy so'raydi va bog'idagi gullarga ehtiyyot bo'lishini, shoirdan gumon qilmasligini qistirib o'tadi.

*1-guruhnning 7-bandga javobi:* She'rning oxirgi bandi ya'ni 7-bandda oshiq mezbonga qarata eshikka ko'p qarayverishini, chunki

gulbog‘iga yo‘l bor ekanligini aytadi. 3 - 4- misradagi so‘z takror qo‘llangani ya’ni gulruxsor ko‘zini suzganini ta’kidlayapti.

*2-guruhnning 7-bandga javobi:* Lirik oshiq oxirgi bandni ham choyxonachiga murojaati bilan boshlaganligi gulbog‘iga yo‘l borligini aytadi, chunki gulruxsor ko‘zini suzganligiga sha’maliladi.

*O‘qituvchi tahlili:* Ushbu she’r rus xalqining buyuk shoirlaridan biri bo‘lgan S.A. Yesenin qalamiga mansub bo‘lib, 7 banddan iborat. Yesenin G‘arb shoiri bo‘lsada, uning she’rlarida Sharq nafasi ufurib turadi. Yesenin she’rlari, satrlari qisqa, tili ravon. Lirik qahramonning hayotga, odamlarga munosabatda samimiyligida Sharq ruhi etib ko‘zga tashlanadi. Ushbu she’rni ya’ni “Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan...”deb boshlanuvchi she’ri ham Sergey Yeseninning “Fors taronalari” turkumiga kiradi. Mavzu mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, rus yozuvchining Eron go‘zaliga oshiq bo‘lib qolishi va uning sevgisi kuylanadi. Buni oshiq aynan bildirish uchun “Tehron”, “rus”, “sheroziy gilam”, “Rossiya”, “shohi ro‘mol” kabi so‘zlarni qo‘llaydi. Eron va rus ayollari solishtiriladi va shu orqali ularga bo‘lgan munosabat kabi masalalarini o‘rtaga tashlaydi. Guruhlar aytib o‘tganidek, “gul” timsoli bu go‘zal yorni o‘xshatyapti. Tehron chamanida bir gulga nogohon ko‘zi tushib, unga oshiq-u beqaror bo‘lib qolganligi va qalbida dard paydo bo‘lganligini aytadi. Yor bir noz bilan ko‘zini suzganida barcha dog‘lar ko‘nglidan ketganini bildiradi. U yana bir xirom etsa, rus yigitining ishqini kuchliligi ifodalab, hatto shu yerning urf-odatlarini qabul qilishga tayyorligini ifodalagan. Ya’ni Sharq an’anasiga ko‘ra oila qurayotgan kelinchak barchaga noz bilan bukilib salom beradi va uning boshiga shohi ro‘mol, yo‘llariga sheroz gilam tashlanishi keltirib, oshiq ham agar yor uning yoniga kelib noz qilsa shunday qilishini aytadi. Ushbu satrlar mazmunida ijtimoiylikni ham ko‘rish mumkin. Sharq va G‘arb

qiyofasi, xotin-qizlarga munosabat, ayollarning erki turlichaligini solishtiradi va umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lab, sevgi-muhabbat uchun hech nima to'siq bo'laolmasligini aytadi. Chunki dil – qalb mulki, ko'ngilning ishidir. Bu she'r ilohiy Allohga qaratilgan desak ham noto'g'ri bo'lmaydi. Chunki Sharq mumtoz adabiyotida yor, oshiq, mahbub deya Yaratgan nazarda tutilgan va uning vasliga yetishish orzusida ishq kuylangan.

Endi ushbu ijodkorning "Singlimga xat" she'rini o'rganamiz. Hozir xotirangizni sinab ko'rgan holda "**Sirli nuqtalar**" metodini qo'llaymiz. Ushbu she'rning so'zlari tushirilib qoldirilgan o'tirlarga nuqtalar qo'yilgan va shu joylar to'ldirilishi kerak. Albatta, mos so'zni topgan holda, 1-guruhga she'rning 1-qismi, 2-guruhga esa 2-qismi topshiriladi.

### “Singlimga xat”

Bizning ... (**Aleksandr**)

(**Delvig**) haqida

She'r yozgan, madh etib kalla suyagin.

Qanday shirin,

Qanday olis aqida,

Xuddi ... (**gulbog'**) ko'ngilga yaqin.

Salom senga, singlim,

Salom, assalom.

Qadrdon dalalar salomat bormi?

Ayt, qalay parvarish qilmoqda... (**bobom**)

Ryazandagi bizning ... (**oluchazorni**)

O'sha oluchazor

Bormi yodingda?

... (**otam**) sho'rlik tinmay qilardi mehnat,

Bir parcha yeridan

Hosil olguncha

Omoch surib, qancha chekardi zahmat.

Unga maqsad edi

... (**kartoshka**) olish,

Biz bog‘ bo‘lsa derdik,

Bog‘ni kesishdi.

Dilim o‘rtanganin

Aytsin ho‘l ... (**bolish**)

Bog‘ni kesishdi-yu,

Bag‘rim ezishdi<sup>34</sup>.

2-guruhgaga ham ushbu she’rning davomi shu tarzda beriladi va qaysi guruh to‘g‘ri va aniq topgan bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi.

Jahon adabiyotining dramatik asarlari darsliklarimizda deyarli uchramaydi. Ta’lim bosqichlarining adabiyot darsliklaridan faqatgina 9-sinf adabiyoti “Jahon adabiyoti” bo‘limiga V.Shekspirning “Otello” tragediyasidan parchalar kiritilgan, xolos. O‘quvchilar, nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki, jahon adabiyoti bilan ham yaqindan tanishib, chet el namoyandalari asarlaridan bahramand bo‘lishlari lozim. Shuning uchun biz, taklif sifatida quyidagi lirik, epik va dramatik asarlarni darsliklarga kiritilishi haqida o‘z tavsiyalarimizni keltirib o‘tamiz:

Biz bilamizki, dramatik turning darama, targediya, komediya kabi janrlari mavjud. Shundan kelib-chiqqan holda, jahon dramatik asarlarining eng sara namunalari bo‘lmish A.S.Pushkinning “Boris Godunov”, “Qizg‘anchiq ritsar”, “Suv parisi”; A.Chevovning “Oluchazor”; V.Shekspirning “Afinalik Timon”; L.Tolstoyning “Tirik murda”; M.Gorkiyning “Tubanlikda”, “Meshchanlar”, “Dushmanlar”; F.Shillerning “Qaroqchilar” kabi dramatik asarlarini aytib o‘tagidan bo‘lsak, butun jahonga tanilgan

<sup>34</sup> Olimov S., Ahmedov S., Qo’chqorov R. Adabiyot. Umumiyl o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. Ikkinci qism. – T.: 2014. – B. 183.

tragediyalarga esa Yevripidning “Medeya”; V.Shekspirning “Yuliy Sezar, “Qirol Genrix IV”, “Richard III”, “Romeo va Julietta”, “Makbet” kabi tragediyalari bilan birga, M.Lermontovning “Ispanlar” hamda I.V.Gyotening “Faust” kabi asarlarini kiritish mumkin. Adabiyot darsliklarda jahon adabiyotining komedik asarları umuman kiritilmagan. Eng mashhur komedik asarlar sifatida quyidagi asarlarni misol qilib ko'rsatamiz: V.Shekspirning “Venetsiya savdogari” kabi o'nlab komediyalarini aytish mumkin. Bu ijodkordan tashqari, Molterning “Tartyuf”; I.Turgenevning “Sig'indi”; Gogolning “Revizor”, A.Chexovning “Chayka” kabi durdona asarlarini keltirish mumkin. Shu o'rinda, jahon adabiyotining nodir epik asarlaridan ham misollar ham keltirib o'tamiz. Bularga E.Xemunguyning “Chol va dengiz”; P.Koelonning “Alkimyogar”; A.Kamyuning “Begona”; F.Kafkaning “Jarayon”; Balzakning “Gorio ota”; O'.Genrining “So'nggi yaproq” kabi qissa va hikoyalarini kiritish mumkin. Biz aynan, shu asarlani emas, balki, shunga o'xhash asarlarni darsliklarga kiritilishini tavsiya etamiz. Albatta, bu asarlar o'ziga yarasha murakkab, hajmi katta yoki o'quvchilar mazmunini tushunishi qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunda albatta, o'quvchilar yoshi, ijtimoiy darajasi, uxborotni qabul qila olish va o'zlashtirish qobiliyatidan kelib-chiqqan holda yuqori sinf darsliklariga qo'shish o'rinli. Shuning uchun ushbu asarlardan parchalar yoki kichik hajmli qissa va hikoyalardan namunalar keltirish joiz deb bilamiz. Ayniqsa, postmodernizm ruhidagi qisqa hikoyalarni darsliklarga kiritish lozim. Chunki bu qisqa hikoyalar o'quvchilarni har tomonlama likrlashga, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Asar asosida turli ijodiy g'oyalar paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Masalan, E.Xemenguyning 2005-yil dunyodagi eng kichik hajmli hikoya nomini olgan asarida, u quyidagicha: “For sale: baby shoes, never used” ya'ni “Bolalar poyabzali sotiladi. Kiyilmagan”. Ushbu asar

qisqa bo'lsa-da, unda olam-olam ma'no bor. Buni esa o'quvchilar xulosasida ko'rishimiz mumkin. Ularga shu tarzda yozilgan asarlarni aytib, o'rtaga savol tashlansa, o'quvchilar o'ylay boshlashadi. Ularni o'qituvchi beixtiyor fikrlashga undab, darsga qiziqtiradi. Shunga o'xhash asarlarni pedagogik amaliyot davomida ham qo'llab ko'rib, bunga amin bo'lganmiz.

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, badiiy asarlarni interaktiv usullar asosida o'qitish pedagogik mahorat va bilimni, zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanishni ham talab qiladi. Interaktiv usullarni dars jarayonida qo'llash ta'limni yuksak sifat va natija bosqichiga olib chiqadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogning o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

## **II BOB. BADIY ASARLARNI O'RGANISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH**

Jahoning ko‘zga ko‘ringan davlatlari, xalqlari, millatlarining tarixi, buguni, yashash tarzi, urf-odatlari-yu madaniyati, adabiyoti, ma’naviyati bilan tanishish va o‘z yurtimizning ham dovrug‘ini olamga yoyishda, mustaqil O‘zbekistonning jahonga yuz tutishi, jahon xalqlari e’tirofini qozonishda tarjimonlarimizning ham o‘rnini beqiyosdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyoli vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda: “Inson qalbini, uning dardu-tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etishi va hayotining ma’no mazmunini biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas’uliyatlari va sharafli ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz”<sup>35</sup>, - deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, nafaqat adib shoirlarimiz balki, tarjimonlarimizning ham bu borada katta xizmatlari bor.

Tadqiqotimizning II bobida badiiy asarlarni jahon adabiyoti misolida o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish va uning qay darajada samara berishini amaliy jihatdan ko‘rib chiqamiz. Bunda biz 9-sinf darsligida berilgan Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini, Vilyam Shekspirning “Otello” tragediyasini va Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” usarlarini tahlil qilib o‘rganamiz.

---

<sup>35</sup> Musurmonqulova O. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning mamlakatimiz ijodkor ziyoli vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv. // Jahon adabiyoti. 2017. № 8 – B. 3.

## **“YEVGENIY ONEGIN” SHE’RIY ROMANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

9-sinf adabiyot darsligining “Jahon adabiyoti” bo‘limida A.S.Pushkin hayoti, ijodi hamda “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidan parchalar keltirilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Nega aynan A.Pushkinnining “Yevgeniy Onegin” asarini o‘rganish 9-sinf darsligiga kiritilgan, ularni AKL yoki KHKlarida o‘tish kerak emasmi? Yo‘q, chunki ushbu sinf o‘quvchilari o‘smirlik davriga qadam qo‘ygan (14-16 yosh) yoshlardir.

Bugungi kun kelajak avlod kundan kunga o‘z iqtidori, salohiyati bilan barchaning e’tiboriga sazovor bo‘lmoqda. Ular ayni shijoatga to‘lgan va o‘zgaruvchan davrda, bu asar orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar shakllanadi. Bu esa ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi.

O‘zga xalqning madaniyatni, qadriyatlari va qarashlari bilan tanishgan avlodning ham dunyoqarashi kengayadi. Cho‘lpon, Fitrat kabi vatanparvarlarimiz yurt kezib, ularni har tomonlama o‘rganib, bizga “yangilik” sifatida islohotlar qo‘llashi, xalqni ilmli, savodli qilish uchun olib borgan say-harakatlari bekorga emas edi.

Tadqiqotimizning asosi bo‘lgan interaktiv usullar, “Sirli nuqtalar”, “Audio topshiriq”, “Sahna ko‘rinishi”, “Lotereya”, “Eslab ko‘rchi, unutmadingmi?”, “Beshbarmoq”, “Topqir detektiv”, “Eng tezkor fikr”, “TT”(Teskari test), “Muharrir”, “Tushun va bajar”, “Saralab oling”, “FSMU” kabi metodlar orqali A.S.Pushkin hayoti va “Yevgeniy Onegin” asarini amaliy tadqiq qilamiz.


O‘yin texnologiyasi asosini turli interaktiv usul, texnologiya va o‘yinlar tashkil etadi. Pushkin ijodiga bag‘ishlangan darsni o‘qituvchi yangi mavzu va mavzuning rejasi bilan tanishtirishdan

boshlaydi. Yangi mavzuni taqdimot, ko‘rgazmali qurollar orqali bayon etadi. Yangi mavzuni mustahkamlash qismida “Qiyoslang”, “Tasvirlang”, “Tarjimonlik osonmas”, “To‘rttasi birda”, “Agarda men... bo‘lsam” kabi texnologiyalardan foydalananadi.

O‘rganayotgan asarimizning lirik xususiyatlarini e’tiborga olib, A.Pushkin hayoti va “Yevgeniy Onegin” asarini o‘qitishda bir qancha usullarni ham keltirib o‘tamiz.

### **“Audio topshiriq”**

Audio zamonaviy axborot texnologiyalaridan biri bo‘lib, multimedianing asosiy vositasi hisoblanadi. “Audio topshiriq” usulida audio material qo‘yib eshittiriladi. Topshiriq shundayki, “Yevgeniy Onegin” asaridan o‘qib eshittirilgan audioda gap kim haqida ketayotgani va uning ichki tuyg‘ularini tasvirlash so‘raladi. Audio eshittirilgach, o‘quvchilarga 3 daqiqa vaqt beriladi va ular tushunganlarini qisqacha yozib, o‘z javoblarini aytadi. Guruhlarga qo‘yib eshittirilgan parcha ushbu asarning 3-fasli XXXIII, XXXIV, XXXV bo‘limlarini o‘z ichiga oladi.



Guruhlarning taxminiy javoblari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1-guruh javobi: Ushbu audio materialni eshitishimiz orqali “Yevgeniy Onegin” asarining 3-fasli XXXIII, XXXIV, XXXV<sup>36</sup> bo‘limlardan keltirilganligini bildik. Unda Tatyananing tonggacha Oueginga xat yozgani va uning ichki tuyg‘ulari, o‘y-xayollari

<sup>36</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim muktablarining 9-sinf adabiyoti uchun darslik. Ikkinchi qism. – T.: 2014. – B. 146.

ifodalangan. Ertalab xizmatkor ayol uni uyg'otib, choy olib chiqadi. Tatyananing ahvolini so'rab, sog'ayib qolganligini aytadi. Qiz esa ayoldan bir narsa "xat"ni nabirasidan "O"ga berib yuborishni iltimos qiladi. U esa kimligini tushuna olmayotganini aytganida, xat Oneginga atalganligini bayon qiladi.

2-guruh: Hozir eshitgan audio vositada Tatyananing Oneginga xat yozib, tonggacha mijja qoqmaganligi, uning ichki tuyg'ulari mavj urishi sezilib turubdi. Quyosh nurlari tushishiga qaramay, xatni ushlab ma'yus o'tirganida oqsoch ayol Filipevna kelib qolishi va ularning o'zaro suhbati aks etgan. Ayol qizga choy olib kiradi, qiz esa unga xatni berib nabirasidan "O"ga olib borishini aytganida Filipeva kimligini bilolmay, qarilagini ro'kach qiladi. Tatyana Oneginga xatni tezroq olib borishini va bu haqda hech kim bilmasligini tayinlaydi.

Keyin o'qituvchi guruh yozgan fikrlarini o'qib bergach, o'qituvchi noto'g'ri fikrlarni to'g'rilib shu topshiriqni xulosalaydi va guruhlarni baholaydi.

### Sahna ko'rinishi

Bu usul ta'limiy- tarbiyaviy o'yin hisoblanib, o'quvchilarda biror vazifani aniq bajarishda harakat qilishga, turli sharoitda rollarni bajarishda ijodiy qobiliyatini namoyon etishga qaratiladi. Ushbu usul o'quvchilarga oldindan ogohlantirilib, ularning tayyorlanishi uchun sharoit yaratiladi va o'qituvchi o'quvchilarga rollarni bo'lib berishi mumkin. Dars boshlanishidan oldin repetitsiya qilib ko'rish, ijroning chiroyli chiqishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarga "Tatyana va Oneginning uchrashuvi"ni sahna ko'rinishi orqali ko'rsatib beramiz. Unda ikkita guruhdan ham uchtadan o'quvchi ishtirok etadi: muallif (boshlovchi), Onegin, Tatyana.

Boshlovchi. Biroq olgach Tatyana xotin,

Bir o't tushdi yigit joniga  
Ma'sum orzularning suhbati  
O'ylar qo'shdi hayajoniga.  
Ma'yusgina, so'lg'in, parishon  
Tatyani esladi shu on.  
Bir shirin o'y, pokiza xayol  
Yuragini chulg'adi darhol.  
O'tgan hislar o'ti — balosi  
Balki, bir zum qo'zg'oldi shu choq,  
Istamadi aldashni, biroq,  
Bokira qalb ishonch, ixlosin.  
Endi bizlar uchaylik boqqa —  
Qiz u bilan ko'rishgan yoqqa.  
Avval bir oz turdilar kutib,  
Yaqin kelib Onegin shunda  
Shivirladi:

Onegin. "Yozibsiz maktub,  
Tonmangiz, men o'qidim unda  
Soddagina dil izhorini,  
Pokiza bir sevgi zorini.  
Samimiyat — men uchun aziz,  
Bu his qo'zg'ab qo'ydi, shubhasiz,  
So'nib ketgan tuyg'ularimni.  
Ammo sizni maqtamay ortiq,  
Sizga shundoq etaman tortiq  
Men ham dilda yo'g'u borimni...  
Men hayotni faqat dunyoda  
Uy ichi deb bilsaydim agar,  
Xush qismatim er yoki ota  
Baxtin hukm qilsaydi agar,

Oilaviy turmushga o‘zim  
Mehr qo‘ysam, hech yo‘qsa, bir zum,  
Izlamasdim unda, haqiqat,  
Sizdan bo‘lak biron rafiq.  
Aytay madhu sanolarsiz rost:  
Bo‘lsaydi ilk xayolu havas,  
Jami go‘zalliklarga evaz —  
Faqat sizni tanlardim, xolos.  
Siz g‘amimga yor bo‘lib ul vaqt,  
Men... bearmon bo‘lardim xushbaxt!  
Ammo baxtga mening qalbim yot;  
Yaralmabman halovat uchun.  
Behudadir sizning kamolot —  
Arzimayman men unga butun.  
Siz ishoning, vijdonim kafil,  
Tur mush bizga g‘am bo‘lur, axir.  
Sizni qancha sevmayin o‘zim,  
Ko‘nikdimmi - soviyman shu zum”<sup>37</sup>.

Bu yerda Onegin so‘zlarini to‘liq ijro etishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi ham eshitadi ham ko‘radi, qandaydir fikr uyg‘onadi. 2-guruh o‘quvchilari “Tatyana Onegin sevgisini rad etishi”ni ko‘rsatib berishadi. Bu orqali Tatyana va Onegin xarakteri ochilib, ularni baholay olishga qaratiladi.

Boshlovchi:

Qayon yelar Onegin? Ayon,  
Siz topdingiz maqsadin — tag‘in,  
Tag‘in borar Tatyana tomon  
Son kirmagan mening tentagim.  
Kirar xuddi murda misoli.

<sup>37</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 2-qism. – T.: 2014. – B. 150-152.

Hech kimsa yo‘q yo‘lakda, xoli.  
Zalga kirar. Yuradi, alhol  
Eshikni ham ochar. Bu ne hol?  
Nadir uni qoldirgan hayron?  
Beka... Beka o‘ltirar yolg‘iz,  
Besaranjom, chehrasi qonsiz,  
Kaftin tirab yuziga, vayron,  
Bir maktubni o‘qir besado,  
Yoshlar to‘kur panjalar aro.  
Uning unsiz iztirobin, bas,  
Kim shu lahza uqolmas, e voh!  
Kim begoyim aksida ko‘rmas  
Eski munoglug‘ Tatyanani, oh!  
Yigit — o‘kinch, dard ichra majnun,  
Oyog‘iga yiqildi zabun.  
Beka cho‘chib, jim qoldi nogoh,  
Oneginga tashladi nigoh  
Beg‘azab va butkul behayrat...  
Uning xasta ham so‘nik yuzi,  
Unsiz ta’na, iltijo so‘zi  
Ayon edi bonuga.  
Faqat sodda, mayus qiz qalbi, nochor,  
Uyg‘ongandi ko‘ksida takror.  
Oneginga, turing, deyolmas,  
Uzolmas ham undan ko‘zini.  
Qaqroq o‘shal labdan ololmas  
Beka shu zum jonsiz qo‘lini...  
Endi neni aylar u xayol?  
Ular uzoq jim qolar. Ayol  
Asta kirar, nihoyat, so‘zga:  
Tatyana. «Bas, turingiz endi, men sizga

Aytmog‘im shart barini oshkor.  
Yodingizda bormi, Onegin,  
...O‘sha bog‘u xiyobon? Nochor  
Sizdan saboq tinglagan edim.  
Tinglang, endi mening navbatim.  
Onegin, men u mahal yoshroq,  
Ham suluvroq edim, chamamda.  
Sizni suydim, suydim-u, biroq  
Qalbingizdan ne topdim g‘amda?  
Javob topdim beshafqat, xolos.  
Yuvosh qizning muhabbati, rost,  
Bildim, sizga yangilik emas!  
Endi esa, yo rab, o‘sha va’z,  
O‘sha sovuq nigohni nuqlu  
Esladingmi, muzlab ketar qon...  
Ayblamayman, ammo u zamon  
Tutgandingiz oljanob yo‘l.  
Haq edingiz, qilsam andisha,  
Minnatdorman sizdan hamisha...  
O‘sha paytlar, shov-shuvdan yiroq  
Ovloqlarda yurgan kezimda  
Men yoqmagan edim-ku...  
Biroq ne bor endi mening izimda?  
Endi sizga nishonman nechun?  
Balki, balki yurganim uchun  
Bu kun kibor olamda masrur?  
Yo o‘qlar yeb janglarda erim,  
Siylagani uchunmi saroy?  
Istagingiz budir, hoynahoy,  
Jamiyatda ochilsin sirim,  
Men sharmsor bo‘layin, faqat

Bu gap sizga keltirsin shuhrat?!<sup>38</sup>

Ushbu sahna ko‘rinishi 5-10 daqiqani tashkil qiladi. Undan keyin o‘quvchilarga muammoli savol berish mumkin.

Biz esa “**Agarda men... bo‘lsam**” usulini qo‘llash joiz deb bildik va shu orqali qahramonlarga nisbatan qarash va fikrlarini bilish bilan birga, o‘zlarida ham shunday holat kuzatilganmi yoki muammodan ular qanday chiqib ketishlari, qay yo‘lni tanlashlari ko‘rsatiladi. Shu mavzuda o‘zlariga kerakli xulosalar chiqarishi, qarorga kelishi orqali hayotda, kelajakda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga tayyor turishga o‘rgatadi.

“**Sahna ko‘rinishi**” tugagach, o‘qituvchi o‘quvchilarga “**Agarda men... bo‘lsam**” usuli haqida ma’lumot beradi. O‘qituvchi: “O‘g‘il bolalar agarda Onegin o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?”, “Qizlar agarda siz Tatyana bo‘lib qolsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?” Ushbu ikkita qahramonning oldingi va keyingi holatlarini ham inobatga oling, ularning o‘rnida esa o‘zingizni tasavvur qilib ko‘ring, muammo yuzaga kelmasligini istaysizmi yoki ushbu holda ularning muammosini yecha olasizmi, oxiri qanday tugashini va taqdirlar qanday kechishini istaysiz? Qisqacha yozing, 2 daqiqadan so‘ng javoblariningizni eshitaman.

1- o‘quvchi: Agarda men Tatyana bo‘lganimda his-tuyg‘ularimni jilovlab, Oneginga sevgi maktubi yozmagan bo‘lar edim. Qiz bola uchun 1-navbatda or-nomusi turadi. U o‘z tuyg‘ulariga erk berdi va oxir-oqibat, o‘zi aldanib baxtsiz bo‘lib qoldi.

2- o‘quvchi: Agarda men Tatyana bo‘lganimda Onegin menga maktub yo‘llagach, uning tuyg‘ularini qadrlab, sevgisini qabul qillardim. Chunki yurak, qalb nolasi birinchi o‘rinda turadi. Sevmagan insoningiz bilan qanday bir umr yashaysiz? Ko‘ngil

<sup>38</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyl o‘rta ta’lim muktablarining 9-sinf uchun darslik, 2-qism. – T.: 2014. – B. 159-161.

aqlga bo‘ysunmaydi, insonni qiyinayveradi, azoblayveradi. Yashashdan ham hech narsada mazmun yo‘qdek tuyiladi. Sevilish bu “jannat”da yashash deganday gap. Har narsa siz uchun go‘zal va hayotbaxsh ko‘rinaveradi. Hayotim ham chiroyli davom etardi.

3- *o‘quvchi*: Agarda men Tatyana bo‘lsam, xuddi muallif keltirib o‘tganidek Oneginni rad etib, erimga sodiq qolardim. Chunki bu hayotga ko‘nikib qolgandim, hayotim ham bir maromda ketayotgan edi, u keldiyu yana hislarimni mavjlantirdi. Knyaz N meni ardoqladi, mehribonlik qildi, sevadi. Uni tashlab ketish bir bandani dilini vayron qilish va gunohga botishdir. Men esa bu tuyg‘ularni chekib ko‘rganman va hech kimga ravo ko‘rmayman. Umrim yana tinch o‘tishini xohlayman.

4- *o‘quvchi*: Agarda men Tatyana bo‘lsam, meni tashlab ketgan Oneginni umrim bo‘yi qarg‘ab, u shunday xotinbozligi uchun sharmandasini chiqarardim. Meni aldab yurgani va rad etib ketganiga javob berishi kerak. Hech kimi yo‘q bir qishloqi qiz deb tahqirlanib ketishga qarab tura olmayman.

O‘qituvchi fikri: Ushbu asar chet el asari ekanligi va mentalitetidan kelib-chiqqan holda tahlil qilish o‘rinli. Tatyana ga ta’rif beradigan bo‘lsak, u sodda, ochiqko‘ngil, mehribon, uyatchan qiz. O‘sha paytda u 17 yoshda edi, ba’zi rus olimlarining tadqiqotlarida esa uning yoshi 13 yosh ekanligi to‘g‘risida ma’lumot keltiriladi. Bunday yoshda, albatta, tuyg‘ular aldamchi bo‘ladi, shu bilan birga o‘zgaruvchadir. Ayni vaqtida javoblariningizdan ham sizda ham shunday jarayonlar kuzatilayotganligini sezish qiyin emas. Yoshlik bu beg‘uborlik, rostlik, ishonuvchanlikdir. Har qanday inson bilan muloqotga kirishish, unga ishonib ketaverish yaxshimas. Inson nimasi bilan sirlisi, o‘z his-tuyg‘ulari, nafrat va alamini yashirgani bilan sirlidir. Ayollar o‘ziga qarshi borishi, irodali, sabrli bo‘lishi lozim. To‘g‘ri u ham sevishga, baxtli bo‘lishga haqli, lekin birinchi qo‘ygan

qadami noto‘g‘ri yo‘l edi va o‘zi jabrlandi. Asar oxirida Tatyananing o‘zini tutishi, holatlari, gaplariga e’tibor qaratsak, u endi yosh o‘smir qiz emas, “ayol”, “go‘zal, mag‘rur, latofatli xonim”ga aylangan edi. Va sodda samimiyligi tufayli ham ko‘p narsaga erishdi, oila qurdi. Onegin tiz cho‘kib yolvorganida uning hislari yana tirildi, u aslida haliyam Oneginni chin qalbi, butun vujudi bilan sevardi, lekin endi yana xatoga yo‘l qo‘yishga uning haqqi yo‘q, shu bilan birga u sadoqatli yor bo‘lib qolishni afzal bildi. Men ushbu asarda Oneginni emas, balki, Tatyanani haqiqiy qahramon deb bilaman. Endi “Onegin”larni eshitsak!

1- *o‘quvchi*: Agarda men Onegin bo‘lsam, Tatyanaga noma yozib dil izhori ifodalagan paytda sodda, samimiyligi va yurak yutib, qalbini ochganida uning sevgisini qabul qilardim va u bilan baxtli hayot kechirardim.

2- *o‘quvchi*: Agarda men Onegin bo‘lganimda, ya’ni aqlli, kelishgan yigit bo‘lganim uchun ham, muallif yozganidek kiborli mag‘rurligim sababli ham Tatyanani tanlamas edim. Chunki u hali yosh edi, qolaversa, uni sodda, beg‘uborligini bilib turib aldab ketishni unga ravo ko‘rmadim. Men unga mos emasligimni yaxshi bilar edim. Va bu o‘yinni rad etib to‘xtatishga urindim.

3- *o‘quvchi*: Agar men Onegin bo‘lsam, oradan yillar o‘tib Tatyanani yana ko‘rib qolganimda ham uning oldiga bosh egib bormas edim.

4- *o‘quvchi*: Agarda men Onegin bo‘lganimda, men ham Tatyanani oldiga sevgimni qabul qilishini so‘rab bormasdum. Chunki u oila qurban va menga nisbatan so‘zi-yu qarashlarida nafrat bor edi.

5- *o‘quvchi*: Balki, qaytadan tug‘ilib, Onegin bo‘lib qolsam Tatyanan bilan faqat do‘st bo‘lib qolardim.

6- *o‘quvchi*: Agar men Onegin bo‘lsam, Tatyananing tinch, osyishta hayotini buzmasdim. Chunki uning baxti mening ham

baxtim edi. U meni ko'rganida mendan g'azablanishi va meni deb siqilishini istamayman. Uni tinch qo'yib, hayotidan butunlay yo'q bo'lib ketardim.

7- *o'quvchi*: Agarda men Onegin bo'lsam, uning yoniga yigitlik g'ururimni sindirib, bosh egib bormagan bo'lardim. Yigit kishi avvalo, sabrli bo'lishi kerak. Kimgadir taslim bo'ldimi, undan sodiq inson chiqmaydi. Bir qiz deb yig'lab, ezilib yurishi yaxshimas. Chunki men mulkdorman, kelishgan, aqli, jentelment yigitman.

*O'qituvchi*: Ho'p bolalar, fikrlarimizni shu yerda yakunlasak, to'g'ri, Onegin bir qarashda tartibsiz, axloqsiz ko'rinishi tabiiy, shu bilan birga unda oljanoblik tuyg'ulari ham borligini asar parchasidan o'qib, guvoh bo'ldik. Ya'ni Tatyanaga nisbatan nomunosibligi uchun shu yo'lni tanlaydi. Uning his-tuyg'ulari va ma'naviyati yuqoriligi jihatidan o'zini unga mos deb o'ylamaydi. To'g'ri, u mulkdor, zodogon, yaxshi hayot kechirgan, ko'p narsani biladigan, ko'p ayollar bilan muloqot qilgan "yengiltak" yigit sifatida ko'rishi tabiiy, ammo bunday bo'lishi u yashagan muhit, atrofdagilari, zodagonligi sabab shunday bo'lган. Ular uchun bu tabiiy hol deb qaralgan va shuhrat qozonish uchun ham ayollarni yo'ldan ozdirishga urinishgan. Ijodkor Onegin obrazi orqali o'z zamonasida ham shunday insonlar, yoshlari ko'payib ketganligini, kundalik turmushi faqat maishatdan iborat bo'lib qolganligi, merosxo'r yoshlarning yengiltak va yalqovligi, yashashdan hech qanday maqsadi yo'qligini hamda ular uchun hayot zerikarli mazmunsizdek tuyilishi, "ortiqcha odam" bo'lib qolganligi ifodalangan.

### "Lotereya" o'yini

Ushbu usulda testga qo'shimcha ravishda variantlardan keyin qavs ichida tiraj raqamlar keltiriladi. To'g'ri javob yutuqli,

noto‘g‘ri javob esa yutuqsiz hisoblanadi. O‘quvchilar ikkita guruhga bo‘linib, ikkita guruhga ham test tarqatiladi. O‘quvchilarga testni bajarishi uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Ishlab bo‘lishgach, muhokamadan keyin, javob sifatida tiraj raqami aytildi. Ikkala guruh javoblari tinglangach, o‘qituvchi guruhlar testini almashtirib qo‘yadi va uni ham bajarishlarini tayinlaydi. 3 daqiqadan so‘ng guruh a‘zolaridan javob tinglanadi va o‘qituvchi xulosalaydi. Ya’ni qaysi o‘rinlarda qaysi guruh biror savolni noto‘g‘ri belgiladi yoki qaysidir guruh boshqa guruh xato javobini to‘g‘riladi. Nega bu emas, aynan shu variant tanlandi? Shularga to‘xtalib, izohlab, fikrlarini dalillab, guruh baholarini aytadi. Eng ko‘p topgan g‘olib hisoblanadi, barcha javobi “yutuqli” bo‘lgan guruhga kitobcha sovg‘a qilinadi.

Bu metod o‘quvchini darsga, mavzuga qiziqtiradi, qolaversa, qarshi guruh javoblarida ham fikrlarini bildirishi, bahslasha olishi, noto‘g‘ri deb o‘ylagan javoblarini o‘zining variantlarini bera olishi orqali tanqidiy fikrash, o‘z fikriga boshqalarni ishontira olish, jamoa bilan ishlash orqali muomala madaniyati, hozirjavoblik kabi sifatlarni shakllantiradi.

### **1-guruh uchun “Lotereya” usuli**

1. Quyidagi parcha “Yevgeniy Onegin” asarining qaysi bobidan olingan?

...O‘zimga zid borlig‘im og‘ir,  
Nochordirman ushbu kezda man.  
Qarorim shu, izingdaman,  
Men tan berdim taqdirga oxir (157 bet).

- A. **Oneginning Tatyana maktubidan (0069)**
- B. Sakkizinch fasldan (0088)
- C. To‘rtinchi fasldan (0096)
- D. Tatyananing Oneginga maktubidan (0098)
- 1. “U duch keldi. Qanday beomon!

Buni ko‘rmas, so‘z demas biron! ...” (158 bet), tasviri kim haqida?

- A. Filipevna Tatyana ni uyg‘otmoqchi bo‘lganida (0020)
  - B. Onegin xatiga javob yozmagan Tatyana ni ko‘rganida (0010)**
  - C. Tatyana bilan Onegin bog‘da uchrashganida (0030)
  - D. Onegin Tatyana ni do‘stining uyida qolganda (0040)
- 3.“ Samimiyat men uchun aziz,  
Bu his qo‘zg‘ab qo‘ydi shubhasiz  
So‘nib ketgan tuyg‘ularimni” (151 bet).

Ushbu parcha “Yevgeniy Onegin” asaridagi qaysi bo‘limdan olingan?

- A. 3-fasl (0011)
- B. 4-fasl (0022)**
- C. Oneginning Tatyana ga maktubi (0033)
- D. Tatyana ning Oneginga maktubidan (0044)

### **2-guruhgga savollar:**

1. Men o‘zimning dilgir erkimni

Yo‘qotmoqni xohlamadim hech

... Dilga yaqin har nimaki bor,

Shundan keyin ko‘nglimni uzdim.

Ushbu fikr muallifini toping?

- A. Tatyayana (0101)
- B. Filipevna (0008)
- C. Onegin (0105)**
- D. Knyaz (0103)

2. Tatyana “... Hukm o‘qilgan arsh a’loda,

Falak amri- men sening, sening”, (147 bet), deganda nimani nazarda tutadi?

- A. Yigitni yaxshi ko‘rib qolishidan afsuslanadi (0037)
- B. Yigit uni sevmaganidan afsus chekadi (0055)**

- C. Yigit ham uni rad qilganidan, taqdirga tan beradi (0086)  
D. Yigitni yoqtirib qolganida taqdirning hukmi, inoyati deb biladi (0031)

3. Onegin nega qiz sevgisini rad etadi?

- A. Qizning sevgisi chin ekanligiga ishonmagani uchun (0045)  
B. Ba'zi noinsof yigitlardek undan foydalanishga urinmaganligidan (0054)  
C. O'zini bu bokira qizga nomunosib ko'rgani uchun (0065)  
D. B va C javoblar to'g'ri

### Tiraj raqamlari:

0010- yutuqli	0101- yutuqsiz	0022-yutuqli
0008- yutuqsiz	0103-yutuqli	0033- yutuqsiz
0105- yutuqsiz	0096- yutuqsiz	0044- yutuqsiz
0020-yutuqsiz	0069-yutuqli	0054- yutuqsiz
0030- yutuqsiz	0088- yutuqsiz	0065- yutuqsiz
0040- yutuqsiz	0098- yutuqsiz	0055- yutuqsiz
0011- yutuqsiz	0037- yutuqsiz	0031- yutuqsiz
0055- yutuqsiz	0086- yutuqsiz	0056-yutuqli

### “Eslab ko‘rchi, unutmadingmi?”

Bu usulning asosiy maqsadi va vazifasi o‘quvchilar xotirasini mustahkamlash va tezkorlikka o‘rgatish sanaladi. Qabul qilgan ma'lumotlarni qay darajada eslab qolgani va uni bayon qila olish qobiliyatini ifodalaydi. O‘tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlaydi. Bu usulni o‘tilgan mavzuni takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida tatbiq qilish mumkin. Bu usulga taxminan 5-8 daqiqa vaqt ketadi. Sharti shuki, o‘qituvchi biror ijodkor hayoti yoki asari haqida so‘raydi va o‘quvchilar o‘rinlaridan turishini iltimos qiladi. Har bir o‘quvchi berilgan vazifa bo‘yicha ma'lumot beradi va o‘z joyiga o‘tiradi. Guruhlar

o‘rtasida uyushtirilsa, yanada qiziqarli bo‘ladi. Chunki qaysi guruh o‘quvchilari tez va aniq ma’lumot bersa, ular o‘z joyiga o‘tirishadi va g‘olib bo‘ladi, qaysi guruh a’zolari o‘rinlarida turib, tik qolib ketsa, o‘sha guruh o‘z-o‘zidan mag‘lub bo‘lgan hisoblanadi. Metod qo‘llanilayotgan paytda barcha daftар-kitoblar yopib qo‘yilishi va aytilgan fikrlar takrorlanmasligi so‘raladi. Fakt, sanalardan tashqari asarga nisbatan o‘z fikrlarini ham bildirish mumkinligi aytib o‘tiladi.

A. Pushkin hayoti va ijodi uchun 4 soat ajratilgan bo‘lib, ushbu usulni 2-darsda qo‘llash mumkin. Hozir biz “Eslab ko‘rchi, unutmadingmi?” usuli orqali A.Pushkin hayoti va ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlar berishlarini o‘quvchilardan so‘raymiz. Ikkita guruh a’zolari javoblari quyidagicha bo‘lishi mumkin va o‘qituvchi boshlab beradi, o‘quvchilar davom ettirishi kerak. Guruhlar soni ham hisobga olinishi kerak. 9-sinf o‘quvchilari taxminan 26 ta deb olsak, o‘n uchtadan ikkita guruhga bo‘linib olishadi.

**O‘qituvchi:** Nafaqat rus xalqining balki, jahon adabiyotining ko‘zga ko‘ringan, shoirlaridan biri Aleksandr Sergeyevich Pushkin hisoblanadi.

1-guruh o‘quvchisi: A.S.Pushkin 1799-yilda Moskvada tug‘ilgan.

2-guruh o‘quvchisi: U tug‘ilgan joy Moskvadagi nemislar ko‘chasi edi.

2-guruh o‘quvchisi: Otasi Sergey Lvovich bo‘lgan.

1-guruh o‘quvchisi: Onasining ismi esa Nadejda Osipovna bo‘lgan.

1-guruh o‘quvchisi: Pushkin amakisi Vasiliy Lvovich havaskor shoir bo‘lib, Pushkinning adabiyotga qiziqishini orttirgan.

1-guruh o‘quvchisi: Bundan tashqari, bu oilada farzandlar tarbiyasi ma’naviyati shakllanishida enaga Arina Radionovna kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

2-guruh o‘quvchisi: U xalqining urf-odatlari, ruhiyati, og‘zaki ijodi, tilini yaxshi bilgan va bolalar tarbiyasiga singdirgan.

2-guruh o‘quvchisi: Pushkin 1811-yil oktabrda Sank-Peturburg yaqinidagi Sarskoe selo imperatorlik litseyiga o‘qishga qabul qilinadi.

1-guruh o‘quvchisi: Bu esa bo‘lajak shoir uchun hal qiluvchi voqeа edi. 1-guruh o‘quvchisi: U shu yerda ijodkor muhit bilan tanishadi.

2-guruh o‘quvchisi: Shu bilan birga u yerda Ivan Pushin, Anton Delvig, Vilgelm Kyuxelbekeu kabi chin do‘stlar orttiradi.

1-guruh o‘quvchisi: Yosh shoir dastlabki she’rini 1814-yilda yozadi.

1-guruh o‘quvchisi: O‘sha paytda litseyda o‘qir edi. U yerda chiqadigan “Ovropa xabarlari”da chop etilgan edi.

2-guruh o‘quvchisi: Derjavin Pushkin she’rlarini eshitib, buyuk shoir bo‘lishini bashorat qiladi.

1-guruh o‘quvchisi: Litseyni bitirib, “Tashqi ishlar vazirligi”ga ishga o‘tdi.

2-guruh o‘quvchisi: Pushkin tabiatan erkin odam bo‘lgan.

1-guruh o‘quvchisi: Shuning uchun ham siyosiy tashkilotlarga uralashmagan.

1-guruh o‘quvchisi: Eng mashhur she’rlaridan biri bu “Erkinlik” she’ri hisoblanadi.

2-guruh o‘quvchisi: Bu asari 1817-yilda yozadi.

1-guruh o‘quvchisi: “Ruslan va Ludmila”, “Mis chavandoz” kabi dostonlari ham bor.

1-guruh o‘quvchisi: Pushkin “Ruslan va Ludmila”ni yozgach, shoir Jukovskiy uni o‘qib, “G‘olib shogirdga, mag‘lub ustozdan” deb o‘z portretini jo‘natib yuboradi.

2-guruh o‘quvchisi: 1820-yilda tuhmat va bo‘hton bilan imperiya janubiga surgun qilinadi.

1-guruh o‘quvchisi: Surgun 4 yildan ortiq davom etadi.

1-guruh o‘quvchilari hozirjavoblik bilan javob berib o‘z joylariga o‘tirishdi.

2-guruhdan esa uchta o‘quvchi qolib ketdi. Shunday bo‘lsada, ularning aytmoqchi bo‘lgan axborotlarini eshitib, guruhlar baholanadi.

2-guruh o‘quvchisi: 1830-yilda Pushkin “Yevgeniy Onegin” asarini yozib tugatadi.

2-guruh o‘quvchisi: Shundan so‘ng “Belkin qissalari”, “Toppon xonim”, “Dubrovskiy” asarlari chiqadi.

2-guruh o‘quvchisi: 1837-yil 27-yanvarda Pushkin Dantesni duelga chorlaydi va u yerda jarohatlanib, 29-yanvarda olamdan o‘tadi.

O‘qituvchi shu o‘rinda “duel” so‘ziga ta’rif berib ketadi, o‘tgan darsda Pushkinning fojiali o‘limi, unga tuhmatlar yog‘ilib, surgunga jo‘natilishi, notinch hayoti haqida gaplashgan edik. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarida ham Onegin “duel”ga qatnashgan va Lenskiyni otib qo‘yishi tasviri bor. Asarni to‘liq o‘qib chiqishlaringizni tavsiya qilaman. Bu esa albatta, o‘sha davr nuqtayi nazariga yondashgan holda ya’ni Pushkin yashagan zamonda ham qo‘llanganligidan kelib chiqqan holda aks etgan.

“Duel” – G‘arbda feodal-dvaryan jamiyatida paydo bo‘lib, u yerdan Rossiyaga o‘tgan. Biror kishini tahqir etgan, izzat-nafsiga tekkan kimsa duelga chaqirilgan, qo‘lida qurol ushlagan holda har ikki tomon bir-biriga o‘q uzishgan. Duelda ma’lum shartlar va rasmiyatlar bo‘lgan hamda ularga amal qilishgan. Eski zamonda

duel dvoryan muhitida juda keng tarqalgan bo‘lib, “nomus” duel haqida dvoryan tushunchasi bilan bog‘langan.


### “Beshbarmoq” usuli

“Beshbarmoq” usulining ustun tomoni har qanday fan yoki mavzuga mos kelishi hisoblanadi. Ya’ni guruhlar bir-biriga mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi va berishadi. Savollar soni va vaqt reglamentiga alohida e’tirbor qaratiladi. Beshta barmoq tasviri tushirilgan tarqatma beriladi, metodni o’tkazish tartibi tushuntiriladi. 1-guruh 2-guruh a’zolariga savol beradi. Tayyor o‘quvchi bo‘lsa javob berishlari mumkin, o‘ylab, maslahatlashib olishlari uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Ungacha 1-guruh a’zolari ham bekor qolmasligi uchun yana o‘zaro kelishib, savol tuzib turishadi. Keyin 2-guruh javobi tinglanadi. Agar noto‘g‘ri javob bersa yoki javob berisha olishmasa, ulardagি tarqatma beshta barmoq ichidan qirqib olinib, 1-guruh “Beshbarmog”iga qo‘sib qo‘yiladi. So‘ng 2-guruh 1-guruh a’zolariga savol beradi. Agar to‘g‘ri javob berishsa, o‘z “barmoq”larini saqlab qolgan bo‘ladi.

Ushbu metodni biroz boshqacharoq tarzda olib borish ham mumkin. Ya’ni o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib, ularga topshiriq, vazifa yoki savol beradi. Buni (og‘zaki yoki yozma tarzda) tarqatma materiallar bilan topshirishi mumkin. O‘quvchilarining shartni bajarishi uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruh a’zolarining barchasi yuklatilgan vazifani bajarishi va tinchlik saqlab, darsga faol qatnashishlari oldindan aytib o‘tiladi hamda nazorat qilinadi. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlarning javoblari yozilgan varaqlari olinib, ularning javoblari tinglanadi. Agar o‘qituvchi guruhlarga o‘zi alohida topshiriq bersa, bu guruhning javobi noto‘g‘ri bo‘lsa, boshqa guruh uni tuzatishi mumkin. Bunda noto‘g‘ri javob bergen guruhning beshbarmog‘idan bitta barmoq qirqib olinib, to‘g‘ri javob bergen

guruh “barmoqlar”iga qo’shib qo’yiladi. Bular esa o‘quvchilarga oldindan tushuntiriladi. Bu bilan guruh a’zolari nafaqat o‘z “barmoqlar”ini saqlab qolishga urinishadi, balki ular o‘z bilim va chaqqonliklari bilan yana bir “barmoq”qa ega bo‘lishadi. Bu esa albatta, majoziy ma’noda, ularni darsga qiziqtirish, rag‘batlantirish orqali topqirlilikka va bilimdonlikka undaydi.

Quyida biz ham ushbu metodni “Yevgeniy Onegin” asari bo‘yicha qo’llab ko‘ramiz.



Ushbu mavzu bo‘yicha quyidagicha muammoli savollar topshiriq sifatida beriladi:

1-guruh o‘quvchilariga savol (ular konvertni ochib savollarini o‘qishadi):

Qishloqi oddiy, samimi, sodda qiz Tatyana 2 yil ichida nega bunchalik o‘zgarib ketti, endigina Onegin uni sevib qolganida nega uni rad etdi, demak, uning sevgisi yolg‘on ekanda?

## 2-guruh savoli:

Nima sababdan Onegin Tatyananing sof muhabbatini rad etadi?

## 3-guruh savoli quyidagicha:

Sizningcha, Oneginning Tatyanaga bergen ozorlari oradan vaqt o'tib, yana o'z boshiga balo bo'ldi deb o'ylaysizmi? Ya'ni kimnidir ko'nglini og'ritish va unga azob berish orqali inson bir kun shu azoblarni totib ko'rishi, qaytar dunyo ekanligi haqida nima deysiz? Oneginning xatti-harakatlarini oqlay olasizmi? Fikringizni misollar bilan ifodalang.

Guruhlarning taxmimiylar javoblari quyidagicha: (Savol yana bir bor o'qib eshittiriladi)

1-guruh: Yo'q, Tatyana haqiqatan sodda va samimiy qiz. U o'z sevgisining qurboni. Uning aybi yo'q. U ham sevgan insoni bilan baxtli bo'lishni xohlagandi. Shu sababdan, ayol bo'lsa ham o'z tuyg'ularini qiyuala-qiyuala oshkor etishga jazm qilgan paytda, uning sevgisiga javoban Onegin ayovsiz tarzda uni rad etadi. Oxiri qiz taqdirliga tan berishga majbur bo'ldi. Chunki, u uchun Onegin hayotining mazmuniga aylanib ulgurgandi. Uning undan boshqa yaqini ham yo'q edi. Shuning uchun ham Oneginni unitishga urindi va hayotini davom ettirish kerakligini tushunib yetgach, bir boy knyazga tur mushga chiqdi. Ammo uning qalbida hali ham Onegin bor, biroq Tatyana oilali erkakning xotini edi. Ortga esa yo'l yo'q. Oneginni unitib hayoti endi izga tushayotgan edi. Qaytar dunyomi yoki taqdir hazilimi oradan yillar o'tib, Onegin paydo bo'ldi va u Tatyanaga yaqinlashish payiga tushdi, uni endi seva boshladи, xatlar yozadi, lekin endi kech edi. Tatyana shaharga kelib xonim bo'lib olganidan emas, shuncha azob-uqubat chekkanidan u o'zini shunday og'ir, sovuqqon tutishga urinardi. Balki, o'sha muhit uni

umuman boshqacha bo‘lib o‘zgarishiga, aslzoda, oqsuyak xonimlardek kiborli va mag‘rur etishga majbur qilgandir. O‘zini bunday tutishi Onegindan o‘ch olishi degani emas, agar u o‘z oilasidan kechib Oneginni tanlasa eriga nisnatan noinsoflik qilib uni qiyaganan bo‘lardi. U shuning uchun ham boshqalarga ozor berishni istamay shunday qilgan edi. Biroq uning qalbida doimo Onegin bor edi. Hatto, boshiga bunday kunlar tushishida uni ayblamasligini aytadi:

*Ayblamayman, ammo u zamon  
Tutgandingiz olajanob yo ‘l  
Haq edingiz, qilsam andisha,  
Minnatdorman sizdan hamish (160 bet).*

Agarda Tatyananing sevgisi nafratga aylanib, o‘ch olishini xohlaganida, buni u qila olishi, Oneginni o‘ldirib yuborishi, eriga aytib yomonlashi mumkin edi. Lekin chin dildan sevgan odamgina sevgan kishisiga nisbatan g‘araz niyatni o‘ylamaydi va undan yomon maqsadda foydalanmaydi. Bizning Tatyana esa bunday ishlardan yiroq. Fikrimiz dalili sifatida ushbu baytlarni keltiramiz:

*Sodda ma ‘yus qiz qalbi nochor,  
Uyg ‘ongandi ko ‘ksida takror.  
Oneginga, turing, deyolmas,  
Uzolmas ham undan ko ‘zini (155 bet).*

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Tatyananing Oneginga bo‘lgan sevgisi chin va samimiylar.

## 2-guruh javobi:

Chunki Onegin o‘zicha erkin, aslzoda inson edi. Unda birovga bog‘lanib qolish yoki izmiga kirish kabi odatlar umuman yo‘q va unga begona edi. Uning tabiatidan kelib chiqqan holda o‘zi xohlagandek hayot kechirishga o‘rganib qolgan va hayotdan bezgan kiborli inson deya ta’riflaymiz. U Tatyani uchratguncha ham qancha qizlar bilan tanishgan. Tatyana u uchun oddiy bir

qishloqi qiz edi. Faqat u bilan emas, umuman, u oila qurish haqida o‘ylab ham ko‘rmagan, kuni aysh-ishrat bilan o‘tuvchi shaxs. U sevgi-muhabbat degan hislarni tushunmaydi, tushunsa ham o‘yinkulgu sifatida qabul qiladi. Shuning uchun ham Tatyana ning sevgisini rad etadi, chunki u bilan baxtli bo‘lishni xayoliga ham keltirmaydi ham uni sevmasligini ochiq-oydin aytib tuyg‘ularini poymol qilishini, undan umid uzishini ta’kidlaydi. Aslida, Onegin Tatyana ga befarq emas edi, uning ham o‘z qalbi va his-tuyg‘ulari hor edi:

*... Biroq olgach Tatyana xatin,  
Bir o‘t tushdi yigit joniga  
Ma’sum orzularning suhbati  
O‘ylar qo‘shti hayajoniga... (150 bet).*

2-guruh javobini eshitgach, ularning fikri noto‘g‘ri ekanligini 3-guruh o‘quvchilari aytishadi va shu paytda o‘z fikrlarini dalillar bilan isbotlab, Onegin obrazini oqlashga urinishadi:

Aslida Onegin unchalik yomon inson emas, u aslzoda oilada ulg‘aygani uchun shu muhit unga ta’sir ko‘rsatgan va uning o‘zini tutishi, dimog‘dor, kiborlilagini oddiy hol sifatida tushunish kerak. Chunki, u o‘zini Tatyana ning chin sevgisiga noloyiqman deb o‘ylaydi, uni aldab yurishdan ko‘ra ochiq-oydin haqiqatni aytadi. Chindan, Onegin Tatyana ning pokiza, sof sevgisini poymol qilishni istamaydi, oila qurishga hali tayyor emasligini va baxtdan bebahra ekanligini, agar ular turmush qurishsa bu g‘am-tashvish bo‘lishini, ko‘ngli esa o‘zgaruvchanligini ta’kidlab shunday deydi:

*Arzimayman men unga butun  
Siz ishoning vijdonim kafil  
Tur mush bizga g‘am bo‘lur, axir,  
Sizni qancha sevmayin o‘zim,  
Ko‘nikdimmi— soviyman shu zum... (152 bet).*

## **Ushbu savolga o‘qituvchi xulosasi:**

Haqiqatan ham Onegin Tatyanadek yosh va sodda, beg‘ubor qizga o‘zini nomunosib sezadi, arzimasligini o‘z tili bilan aytadi, aldashni istamasligini ta’kidlaydi. Chunki o‘sha paytda Tatyana ni bir do‘st, singil, qo‘shni sifatida ko‘rardi. Va shu insoniyligi, oljanobliligi uchun u g‘araz maqsadni ko‘zlamadi. Onegin Tatyana bilan oila qurib, u bilan vaqtincha yashab, agar kelisholmay qolsa yoki boshqasini yoqtirib qolsa uni aldab, baxtsiz qilishi ham mumkin edi, lekin u Tatyana ni baxtsiz qilishi istamaydi.

G‘arb va Sharq an‘analari va urf-odatlari, qarashlari bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, ushbu asarda ham ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, chet elda ya’ni ingлизми yoki rusmi ularning hayot tarzi o‘zbeklarnikidan umuman boshqacha. Xususan, sevgi-muhabbat haqida gapirganda, ularning hayoti erkinlik va xohish-istagiga qarab o‘zgaradi. Ya’ni erkak va ayol oila qurgach, bir muddat baxtli hayot kechirishi mumkin. Farzandlari voyaga yetgach o‘zlarini mustaqil bo‘ldim deb o‘z hayot yo‘lini: ta’lim olish bo‘ladimi, kasb tanlashmi yoki oila qurishmi o‘zlarini xohishlari asosida tanlaydi. Biroq turmush tarzi, oilasi yoqmaydigan bo‘lsa yoki boshqa insonni yoqtirib qolishsa, ular hammasini ochiq-oydin aytib ajrashib ketishi oddiy hol sifatida qaraladi.

Har bir asarda ijodkor maqsadi bo‘ladi. Kitobxon undan o‘ziga kerakli xulosa chiqara bilishi kerak. Ya’ni odobni odobsizdan o‘rgan maqoli kabi asardagi salbiy jihatlari, ahloqiy tomondan bo‘lsin, ijtimoiy tomondan bo‘lsin asar g‘oyasida adib nimadandir insonlarni ogohlikka chorlab, yomon yo‘ldan qaytarib, shu voqeа- hodisani namuna yoki o‘rnak qilib ko‘rsatadi va yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik kabi tuyg‘ularga yetaklaydi. Darsga qaytsak, ikkinchi va uchinchi guruh bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni bildirishlari oqibatida, Onegin obrazini oqlash va qoralash

holatlari kuzatilyapti. Aslida adabiyotda qahramonlarni salbiy yoki ijobiy deb ikki turga ajtaish unchalik to‘g‘ri emas, muallif qahramonni qanday tasvirlasa, biz shunga asoslangan holda tahlil qilamiz. Qisqacha aytsak, Onegin ijodkor ifodalagan davrning “ortiqcha odami”dir.

### 3-guruh javoblari:

Biz yuqorida ham Oneginni oqlagan edik. Unig shu yashash tarzi va o‘sha muhit atrofidagi odamlardan kelib chiqqan holda, uni ta’rifladik. To‘g‘ri, biroz dimog‘dor, g‘ururli ko‘rinishi mumkin, lekin unda bularni yuvib ketuvchi “insoniylik” tuyg‘usi ustun turadi. Onegin Tatyanaga bergen azoblari o‘z boshiga balo bo‘ldi deb o‘ylamaymiz. Sevgi bu ko‘ngil ishi. Unga buyruq berib bo‘lmaydi. U Tatyanaga ozor bermadi, faqatgina u bilan yolg‘on usosida qurilgan sevgi bilan yashashni istamadi. Hali yoqtirib ulgurmasdan rad etgandi. Bir tomondan uni sevmagani bo‘lsa, bir tomondan o‘zining xarakterini yaxshi bilishi va munosib emasligidan shunday qilgandi. Taqdирning hukmi bilan ular ikki yil o‘tib yana ko‘rishib qolishdi, shundagina Oneginning ham haqiqiy ishqisi, ichki tuyg‘ulari isyon qila boshladi.

Balki, boshqalar uchun o‘z qilmishiga yarasha jazosini olgandir, lekin, Tatyanani aldab u bilan shunchaki oila qursa ham bo‘lar edi, ammo kim aytaladi ular baxtli bo‘la oladi deb, kim kafil bo‘la oladi? Inson uchun eng yomon tuyg‘u sen sevgan inson neni sevmasa?! Hamma ham sevib-sevilib yashashni istaydi, jumladan, Tatyana va Onegin ham. Biz bu yo‘l bilan Onegin xattiharakatlarini oqlay olamiz.

### O‘qituvchi xulosasi:

Ha, to‘g‘ri, siz ifodalayotgan fikrlaringiz rostan ham teran. Sevgi – hayot mazmunini tashkil qiladi. Ota-onaga, Vatanga, yordostlarga muhabbat. Inson qalbi borki, u sevishga qodir. Kimdir, albatta, kimnidir yoqtirishi va qalbidan joy olishi bor gap. Bizning

fanimizning ham maqsadlaridan biri inson his-tuyg‘ularini qo‘zg‘ash, uni hayojonga solish, qalbini junbushga keltirish va shu orqali umrini mazmunli o‘tishida to‘g‘ri yo‘l topishiga yo‘ldosh bo‘lish sanaladi. “Yevgeniy Onegin” asari ham insonning eng injatuyg‘usi hisoblangan sevgi-muhabbat haqida. Bu asarda faqat shugina emas, balki o‘sha davr ijtimoiy muhiti, odamlarning ichki kechinmalari, turmush tarzi ham ifodalangan.

Yuqorida ko‘rib chiqqan metodlardan tashqari, aynan ushbu mavzuga mos bo‘lgan “Topqir detektiv”, “Eng tezkor fikr”, “T-T”, “Saralab oling”, “FSMU”, “Muharrir”, “Tushun va bajar” kabi turli interaktiv usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘z maqsadiga erishadi. Quyida ushbu metodlarni qo‘llab ko‘rsatamiz:

**“Topqir detektiv”** usulining nomidan ham anglash mumkinki, asar bo‘yicha o‘quvchilarning topqirligini oshirish uchun biror topshiriq beriladi. Masalan, o‘quvchilarni ikkita guruhga bo‘lib, asardagi peyzaj va portret tasvirlarini topishlari vazifa qilib topshirilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning sinchikovligini oshiradi.

Biz o‘z mavzumiz ya’ni “Yevgeniy Onegin” asari xususiyatlardan kelib-chiqib, asar parchalari orqali ifodalangan ichki kechinmalar va his-tuyg‘ularini topishi guruhlarga topshiriladi. Guruhlar bu asar matni bilan ishlagan holda 1-guruh Tatyana ning ichki tuyg‘ulari, o‘y-xayollar, harakatlarini, 2-guruh esa Oneginning his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlari badiiy asardan parcha keltirish orqali misol bilan izohlash topshiriladi va 5 daqiqa vaqt beriladi. Darsga barcha o‘quvchilar faol qatnashishi va manba bilan ishslashlari ta’kidlanadi.

1-guruh o‘quvchilarining taxminiy javoblari:

Tatyana sodda, samimiy qiz. Uning Oneginga bo‘lgan sevgisi ham chin va sof. Tatyana Oneginga tobora bog‘lanib uni sevib qoladi va hislarini yashirib aytishga uyaladi, oxiri tuyg‘ulari ustun

kelib, unga xat bitadi. Unda Oneginga befarq emasligi, uni tashlab ketmasligini va hech bo‘lmasa haftada bir bor ko‘rishib turishini nytadi. Qiz uni tun-u kun o‘ylaydi, tushi emasligiga o‘zini ovutardi. Biz Tatyananing his-tuyg‘ulari va uning qanday qiz ekanliklarini ochib berish uchun quyida Tatyananing Oneginga maktubi 3-bobdan parcha keltirib, fikrimizni izohlaymiz:

*"Xat yozurman sizga, ne chora?  
Yana ne ham ayta olurman?  
Men bilaman, endi bir bora  
Qahringizga balki qolurman.  
Lekin qaro baxtimga zora  
Ko ‘rib zarra shafqatni ravo,  
Ketmagaysiz tashlab benavo.  
Sukut qilmoq bo ‘lgandim avval.  
Ishoningiz, uyalganim — siz  
Sira bilmas edingiz, esiz.  
Gar umidim bo ‘lsa edi sal,  
Haftada bir bo ‘lsa ham yakka,  
Bu qishloqda sizni ko ‘rmakka.  
Eshitolsam guftoringizni,  
Bir so ‘z desam, keyin betoqat  
Kecha-kunduz o ‘ylasam faqat,  
Faqat yana diydoringizni.  
Odamovi emishsiz ammo,  
Taskin bermas qishloqjoy sizga,  
Bizlar... jozib emasmiz aslo,  
Lekin shodmiz tashrifingizga.  
Biz yoqlarga keldingiz nechun?  
Kimsa bilmas qishloq, ovloqlar,  
Bunda sizni bilmasdim butun,  
Bilmasdim — ne achchiq qiynoqlar,*

*Balki, murg 'ak jonda titroqlar  
Qaydam bir kun bosilib yana  
Bir do 'st topib o 'zimga loyiq,  
Bo 'larmidim vafodor qayliq  
Va mehribon, mushfiq bir ona.  
Boshqasi!.. Yo 'q, hech kim dunyoda  
Ololmasdi ko 'nglimni mening.  
Hukm o 'qilgan arshi a'loda,  
Falak amri: men — sening, sening.  
Butun umrim sen bilan go 'yo  
Uchrashuvning tanho garovi.  
Bildim — seni yuborgan xudo,  
O 'lgunimcha o 'zing panohim...  
Ko 'rinarding goh tuslilarimda,  
Sen g 'oyibdan bo 'lding qadrdon,  
O 't nigohing o 'rtadi yomon,  
Qalbim aro tovushlaring-da  
Yangrar edi... Yo 'q, tush emas bu!  
Ko 'rindingu tanidim-qoldim,  
Behol bo 'ldim, lovullab yondim (147 bet).*

2-guruh: Onegin oldin Tatyanaga befarq bo'lgandir, lekin oradan yillar o'tgach u Tatyanani ko'rib, unga nisbatan hislari jo'sh ura boshladи. Endi Onegin u bilan ko'rishishga urinardi va dil izhorlarini aytishni istardi. Quyida Oneginning his-tuyg'ulari ifodalangan misralarni keltiramiz:

*... Yigit — o 'kinch, dard ichra majnun,  
Oyog 'iga yiqildi zabun.  
Yosh boladek Yevgeniy, beshak,  
Tatyanaga qo 'ymish muhabbat.  
Kun va tunni o 'tkazur halak,  
Ishq dardida o 'rtanib faqat.*

*Hech sadoni aqli tinglamas,  
U bosh urib eshigiga, bas,  
Har kun borur oynavand uyga,  
Soya kabi ergashar unga...  
... Kechar gavjum majlisdan alhol,  
O'yga botib uyga jo 'nar u,  
Goh g'amginu goh go 'zal xayol  
Endi sira bermaydi uyqu.  
... Sovuq, tanbal yuragining, xo 'sh,  
Tubida ne g'imirlar shu tob?  
O'kinchmi bu, puch o'yumi, hasrat,  
Yoki yoshlilik dardi — muhabbat? (155 bet).*

O'qituvchi ayrim o'rirlarni to'ldiradi, noto'g'ri fikrlarni to'g'rilab xulosalaydi, o'quvchilarni baholab, uyga vazifa beradi.

### **“T -T” (Teskari test) usuli**

Ushbu metodni qo'llashning sharti shundaki, variantlar bilan birga javob variantni belgilanib, o'qituvchi tomonidan beriladi, ammo savolni o'quvchilar shunga moslab tuzishlari so'raladi. Bu usul orqali biror mavzu yuzasidan o'z ustida ishlash orqali mavzuni yaxshi o'zlashtiradi. Bahs-munozarali, chalg'ituvchi tomonlarini esa qo'rmasdan, ikkilanmasdan yecha olish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu usul faqat guruhlarda emas, balki, juftlikda yoki individual tarzda ham bajarilishi mumkin. O'qituvchi javob variantlarini yozuv taxtasiga yozib qo'yadi va dastlabki uchta aniq va to'g'ri yozib kelgan o'quvchi rag'bat kartochkasi bilan baholanadi.

1-savol: ...

A. V.Shekspir      C. Pushkin

B. H.Hayne      D. S.Yesenin

2-savol: ...

- A. Cho'lpion, G'.G'ulom C. E.Vohidov, A.Oripov  
B. Oybek, Mirtemir, M.Kenjabek **D. Barcha javoblar to‘g‘ri**  
3-savol: ...

- A. “**Yevgeniy Onegin**” C. “Hayotga muhabbat”  
B. “Kichkina shahzoda” D. “Otello”

4-savol: ...

- A. 1833-yil C. 1820-yil  
B. 1830-yil **D. 1817-yil**

O‘quvchilarning javoblari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

*1-javobning savollari:*

1-o‘quvchi: Rus ijodkorlaridan qaysi biri 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan?

2-o‘quvchi: Moskvaning Nemislar ko‘chasida tug‘ilib, yashagan ijodkor qaysi?

3-o‘quvchi: “Dubrovskiy” asarining muallifi kim?

O‘quvchilar topshiriqni bajarishda shunday turli xil fikrlar kelib chiqaveradi. Ularni o‘ylashga va izlanishga majbur qiladi. Yangi g‘oyalar kelib-chiqishiga turtki bo‘lish, o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayishiga olib keladi.

*2-javobning savollari:*

1-o‘quvchi: XX asr boshidan A.Pushkin asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan olimlar qaysi?

2-o‘quvchi: O‘zbek tarjimachiligiga hissa qo‘sghan tarjimonlarni belgilang.

3-o‘quvchi: Jahon adabiy asarlarini o‘zbek tiliga o‘giruvchi ijodkorlar kimlar?

*3-javobning savollari:*

1-o‘quvchi: A.Pushkin qalamiga mansub asarni toping.

2-o‘quvchi: Pushkinning o‘n yil davomida yozgan asari qaysi?

3-o‘quvchi: Tatyana ismli qiz qaysi asar qahramoni?

#### *4-javobning savollari:*

1-o‘quvchi: Pushkin qachon litseyni tugatgan?

2-o‘quvchi: A.S.Pushkin “Erkinlik” she’rini qachon yozgan?

3-o‘quvchi: Qachon Aleksandr Pushkin Tashqi ishlar vazirligida ishlaydi?

#### **“Muharrir” o‘yini**

Ushbu usul ikki bosqichda kechib, ona tili fani bilan uzviy bog‘lanadi. Ya’ni

1-topshiriqda o‘quvchilar keltirilgan gaplarda asar mazmuniga qarab noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zlarni topishlari kerak. 2-topshiriqda esa asar haqida fikrlar va voqealar tasvirlangan bo‘lib, gaplar ichidagi ortiqcha so‘zlarni topib ularni belgilashlari kerak bo‘ladi.

Siz bilan hozir “Yevgeniy Onegin” asari bo‘yicha ushbu usulni qo‘llab ko‘ramiz. O‘qituvchi xohishiga ko‘ra o‘quvchilarni kichik guruhlarga yoki umumiy frontal tarzda vazifa topshirishi mumkin.

*I-topshiriq. So ‘z tanlash va qo ‘llashdagi xatoliklarni toping.*

1. “Yevgeniy Onegin” rus adabiyotining 1-she’riy romani ekan (dir/ hisoblanadi/ sanaladi)

2. Bu asar Larin ismli yigit hayoti haqida. (Onegin)

3. U zodagon mulkdor farzandi bo‘lib, aqlli va kelishgan o‘quvchi edi. (yigit)

4. Uni Tatyana oshiq bo‘lib va sevgi maktubini yozadi. (yoqtirib qoladi)

5. Tatyana Onegindan javob olishini intazorlik bilan kutadi. (kelishini)

6. Onegin esa bu maktubga javob yozadi. (yozmaydi)

7. Oradan ancha vaqt o’tmay ular bog‘da ko‘rishadi. (o‘tib)

8. Onegin qizni yoqtirmasligini shunday aytadi. (shunda/o‘sha paytda)

*2-topshiriq. Ortiqcha so‘zni toping.*

- A. Keyin Onegin Tatyananing sevgisini olib rad etibdi.
- B. Oradan yillar, asrlar o‘tgach u yana Tatyanani ko‘rib qolibdi.
- C. Unga nisbatan nafrat emas, balki rashk, muhabbat, sog‘liq paydo bo‘libdi.
- D. Shunda yigitning qalbini his-tuyg‘ular daryo mavjlanТИрибди.
- E. Xuddi yapoloq Tatyana xat yozganidek, u ham xatlar yoza boshlabdi.
- F. Afsuski, undan saveb, javob kelmadi.
- G. Oxiri Tatyananing uyiga borib gaplashdi, ammo u quvonchi rad etdi.

Ortiqcha so‘zlar: Olib, asrlar, sog‘liq, daryo, yapoloq, savob, quvonchi.

Bu usul so‘z qo‘llash va ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ortiqcha so‘zlarni topish orqali topqirlikni oshiradi. To‘g‘ri yozish bilan birga aniq va ravon gapishtirsga ham undaydi.

Bundan tashqari ushbu mavzuni ona tili fani bilan bevosita quyidagicha bog‘lab o‘tish ham mumkin:

### **“Tushun va bajar” metodi**

1-topshiriq. Asardan parchalar beriladi, o‘quvchilar ularni o‘qib chiqishadi.

2-topshiriq. She’riy parchadan nimani tushunganliklarini nasriy tarzda bayon qilishadi.

3-topshiriq. Parchalar so‘z tartibi qoidasi asosida joylashtirilib chiqiladi.

1-topshiriqda o‘qituvchi ikkita guruhga ham tarqatma material berib, o‘qib chiqishlari uchun 1 daqiqa vaqt beradi.

### **1-guruhga topshirilgan parcha:**

*Javob yo‘qdir. Boz maktub yozur,*

*Ikkinchı xat, uchinchi xati —  
Javobsiz. Bir majlisga bazo 'r  
Borar edi, kirgan zahoti...  
U duch keldi. Qanday beomon!  
Buni ko 'rmas, so 'z demas biron!  
Yohu, yana oshibdir qahri —  
Borlig 'ida — chillaning zahri!  
Tag 'in uning o 'jar lablari  
Yashirmoqchi bo 'lar jahlini!  
Sinchkov boqdi Onegin: qani,  
Qani uning tug 'yon, dardlari?!*  
*Qani ko 'zyosh dog 'lari?.. Abas!  
Chehrasida g 'azab izi, bas.. (158 bet).*

**2-guruhga berilgan parcha:**  
*O ', Onegin, bu dabdaba, shukuh,  
Manfur hayot ziynati nadir  
Kibor olam domida beruh  
Zafarlarim, davlatim nadir?  
Hasham dor uy, ziyofat, g 'avg 'o,  
Nadir menga bu bo 'g 'iq havo?..  
O 'sha yangi ham yovvoyi bog ;  
O 'sha faqir maskanim — qishloq,  
O 'sha sizni, Onegin, ilk bor  
Ko 'rganim ul joylarga, zotan,  
Bukun sho 'rlik enagam yotgan  
Xoch, soyalar ostidagi zor  
O 'sha mozor, o 'sha xilqatga  
Barchasini qilardim sadqa... (161 bet).*

O 'quvchilar o 'qib bo 'lishgach, 2-topshiriqqa o 'tiladi. O 'qigan parchadan nima tushunganlarini yozma tarzda yozib, keyin o 'qib berishlari so 'raladi va 2 daqiqa vaqt ajratiladi.

**1-guruuhning 2-topshiriqqa taxminiy javoblari:**

Ushbu parchada Oneginning ichki his-tuyg‘ulari ifodalangan. Onegin Tatyanaga xat yozadi, ammo javob kelmasligi keltiriladi. Yana qayta-qayta nomalar bitadi, biroq javob yozmaydi. Onegin bir majlisga borganida unga duch keladi. Tatyana uni ko‘rsa-da, ko‘rmaslikka olar, hech narsa demas, Onegininga nisbatan nafrati sezilib turardi. Tatyananing qalbi muzlab chillaning zahridek sovuq edi. Lekin jahlini yashirmoqchi bo‘lardi. Onegin unga e’tibor bilan qaraydi, undagi tuyg‘ular: sevgisi, ko‘z-yoshlari, dardlari qayerga ketganligi uni hayratga soladi. U xuddi Tatyana bilan qiyofadosh, umuman boshqa inson bilan ko‘rishib qolgandek, uning bunchalik o‘zgarib ketganiga ishonmasdi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi guruh yozgan javobni olib tezda ko‘zdan kechiradi va ham imloviy, ham mazmuniy jihatdan yondashib xato, kamchiliklarini aytib, fikrilarni to‘ldirib, xulosalaydi. Ikkinci guruh javobi ham shu tarzda olib boriladi.

3-topshiriq. Guruhlarga berilgan asar matni bo‘yicha o‘zbek tili so‘z tartibiga asoslangan holda she’riy misralar o‘rnii o‘zgartirilib, to‘g‘rilab chiqiladi. She’r talabi bo‘yicha o‘zbek tili so‘z tartibi qolipi buziladi, so‘zlarni so‘z tartibi bo‘yicha o‘z o‘rnida yozib chiqishlari topshiriladi. Buning uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

### **1-guruuh javoblari:**

*Javob yo ‘qdir. Boz maktub yozur,  
Ikkinci xat, uchinchi xati javobsiz  
Bir majlisga ba ‘zo ‘r borar edi.  
U kirgan zahoti duch keldi  
Buni ko ‘rmas, biron so ‘z demas  
Yohu, qahri yana oshibdi,  
Chillaning zahri-borlig ‘ida  
Tag ‘in uning o ‘jar lablari*

*Jahlini yashirmoqchi bo'jadi  
Onegin sinchkov boqdi: qani?!  
Uning tug'yon dardlari qani?!  
Abas, Ko'zyosh dog'lari qani?!  
Bas, g'azab izi chehrasida*

2-guruh ham o'zlariga berilgan asar parchasini shu tarzda bajarishadi.

Ushbu topshiriq ham tekshirilib, xulosa qilinadi. Ikkita topshiriq baholari umumlashtirilib, guruh ballari e'lon qilinadi.

Bundan tashqari o'rganilayotgan badiiy asarni ona tili fani bilan bog'lashda turli xil topshiriqlar berish mumkin. Masalan, sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirishni yoki aksincha, parcha tarkibidagi so'z turkumlarini topishni, gap bo'laklariga ajratib tahlil qilishni topshirish mumkin.

Aynan "Yevgeniy Onegin" asarini faqat ona tili bilan emas, balki boshqa fanlar psixologiya, pedagogika, rus tili, tasviriy san'at kabi fanlar bilan ham bog'lash mumkin. Quyida ushbu metodlarga to'xtalib o'tamiz.

### **"Tasvirlang" metodi**

Ushbu metod tasviriy san'at fani bilan integratsiya orqali uзвиy bog'lanadi. "Tasvirlang" metodini ikki xil tarzda o'tkazish mumkin.

1-usul: Asarni o'rganib, uni tahlil qilgach mustahkamlovchi qismda tashkil qilish mumkin. Asar qahramonlarining fe'l-atvorlari, ularning o'zini tutishi va qandayligidan kelib chiqqan holda biror obraz, qahramonni tasvirlab chizishi so'raladi. Bu esa oldindan ogohlantiriladi va o'quvchilarning o'quv qurollari tayyorgarligiga e'tibor qaratiladi. Ikkita konvert bo'lib, uning ichiga asar qahramoni nomi yozilgan bo'ladi. Guruhlar qura tashlash yo'li bilan tanlab oladi va unda keltirilgan qahramon

rasmini chiza boshlashadi. Chizish uchun esa 10 daqiqa vaqt beriladi. Barcha o'quvchilar faol ihtiroy etishi so'raladi. 1-guruh Oneginni tasvirlasa, 2-guruh Tatyana ni tasvirlab ularni izohlab beradi. Kimning rasmi chiroyli, nafis chiqsa va o'z rasmlarini qahramonlar fe'l-atvori, so'zлari, tuyg'ulariga moslab chizishsa o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

2-usulda esa Onegin va Tatyana ning portretlari yozuv taxtasiga ilib qo'yiladi, o'quvchilardan ularni tasvirlash so'raladi. Ya'ni 1-guruh Onegin portretiga qarab qanday yigit ekanligini, fe'l-atvori, o'zini tutishi haqida yozma tarzda yozishadi.

2-guruh Tatyana ning portretiga qarab, uning o'ziga xos xususiyatlari, oldingi va keyingi holatlari ko'rinishi, xarakteri haqida yozishlari topshiriladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi va guruh javoblari tinglanadi. Yuqori sinf o'quvchilari uchun 2-usul mos keladi. Ushbu metodni qo'llagan holda "Yevgeniy Onegin" asari misolida ko'rib chiqamiz.

1-guruh javoblari quyidagicha:

Onegin oliyjanob, qahramon yigit. Kelishgan, aslzoda, shu bilan birga kiborli va takabbur, o'ziga bino qo'ygan shaxsdir. Oliyjanob deyishimizga sabab unda Tatyana sevgi izhor etganda, uni aldab ketishni istamaydi va uning sevgisini rad etadi. Yer egasi zodagon bo'lganligi, ota-onasidan hech qanday tarbiya ko'rmaganligi uchun ham u o'ziga bino qo'yadi. Chunki u boy va o'ziga to'q oila farzandi edi. O'yin-kulgu uning uchun odatga aylanib hayotdan zerikadi. Qancha ayollarni ko'rgan va ular bilan suhbatlashgani uchun ham qishloqi sodda qizga e'tibor bermay uni rad etadi. Uning hayot tarzidan shunday inson bo'lish tabiiy edi. Yillar o'tib u yana Tatyana bilan uchrashib qoladi va butunlay o'zgaradi. Uning qalbida ham sevgi nish uradi, his-tuyg'ularga

beriladi. Ruhiy iztiroblarga duchor bo‘lib, uning sevgisi ham rad etiladi.

O‘qituvchi fikri: Ha, asar bosh qahramoni Onegin hisoblanadi. Ijodkor u orqali juda ko‘p maqsadlarni ko‘zlaydi. O‘sha davr muhitini ochib bermoqchi bo‘ladi. Jamiyatdagi axloqsizlikni ochiq tasvirlaydi. Buni Onegin misolida garchi u aqli, kelishgan, o‘qimishli, farosatli yigit bo‘lsada, o‘z axloqini kibor jamiyat talabiga moslashtirib, yuziga niqob taqadi va hammadan uzoqlashib, begonalashib munofiqlik va yolg‘onni axloq darajasiga ko‘taradi. Uning oliv tabaqa vakillari o‘rtasidagi soflik,adolat, haqiqat, samimiylilik yo‘qligini, ular bo‘lmaga joyda esa sevgi mavjud bo‘lmasligini aytadi. Aslida rad etishi unga loyiq emasligi uchun voz kechadi. Oneginning salbiy deya qarayotgan jihatlariga e’tibor bersak, aslida u yengiltak emas, muhit uni aynan ana shunday bo‘lishiga majbur etgan va shuning uchun ham o‘z hayotidan zerikib qishloqqa boradi.

2-guruh esa Tatyanani tasvirlashadi, o‘qituvchi ularning ham fikrlarini eshitib xulosalaydi.

Ushbu “Tasvirlash” usuli nafaqat o‘quvchilarning asar haqida fikrlashlarini talab etadi, balki ular qahramonlarni tanqidiy jihatdan ham tahlil qilishga, muammoning yechilishida har tomonlama qarashga undaydi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalay olishi bilan birga asardan kerakli xulosalar chiqarishga ham yo‘naltiriladi.

Fanlararo integrasiyada aynan ushbu mavzu bo‘yicha rus tili fani bilan bog‘lab o‘tish muvofiq deb o‘ylaymiz. Bunda “**Tarjimonlik osonmas!**” usulini qo‘llagan holda “Yevgeniy Onegin” asarini tahlil qilish orqali ikkita tilni bir-biriga qiyoslash asosida asarni o‘rganib chiqamiz.

## **“Tarjimonlik osonmas!”**

Ushbu metodda o‘quvchilarga “Yevgeniy Onegin” asarining asl ruscha variantidan parcha taqdim etiladi. Parcha rus tilida yozilgan bo‘lib, ularni o‘quvchilar o‘zbek tiliga tarjima qilishlari va mazmuni nasriy tarzda ifodalab, og‘zaki tarzda bayon etilishi so‘raladi. Buning uchun ularga 10-15 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlarga rus tilida yozilgan she’riy romandan bir bo‘lim ya’ni 6-7 baytli she’r topshiriladi. O‘quvchilar rus tilini boshlang‘ich sinfdanoq o‘rganib kelayotganini hisobga olib rus tili fani bilan bog‘lash o‘rinli. To‘g‘ri ular ayrim so‘zlarning tarjimasini bilmasliklari mumkin, bunday holda o‘qituvchidan bir nechta so‘z tarjimasini so‘rashi yoki elektron lug‘atlardan foydalanishi mumkin. Agarda so‘z tarjimasini topa olishmasa ochiq tarzda tashlab ketishi aytildi.

Quyida shu asarning darslikda keltirilmagan bo‘limlarini ko‘rib chiqamiz:

### **1-guruhga berilgan parcha:**

*И между тем душа в ней ныла,  
И слез был полон томный взор.  
Вдруг топот!.. кровь ее застыла.  
Вот ближе! скачут... и на двор  
Евгений! «Ах!» – и легче тени  
Татьяна прыг в другие сени,  
С крыльца на двор, и прямо в сад,  
Летит, летит; взглянуть назад  
Не смеет; мигом обежала  
Куртины, мостики, лужок,  
Аллею к озеру, лесок,  
Кусты сиренс переломала,*

*По цветникам летя к ручью,  
И, задыхаясь, на скамью<sup>39</sup>*

## **2-guruhgа tarqatilgan parcha:**

*Она ушла. Стоит Евгений,  
Как будто громом поражен.  
В какую бурю ощущений  
Теперь он сердцем погружен!  
Но шпор незапный звон раздался,  
И муж Татьянин показался,  
И здесь героя моего,  
В минуту, злую для него,  
Читатель, мы теперь оставим,  
Надолго... навсегда. Заnim  
Довольно мы путем одним  
Бродили по свету. Поздравим  
Друг друга с берегом. Ура!  
Давно б (не правда ли?) пора!<sup>40</sup>*

1-guruh tarjimalarini eshitamiz, ular oldin asl ruscha variantdagи berilgan parchani o‘qishadi. Keyin tarjima qilgan parchalarini ham o‘qishib, o‘zlarining fikrlarini ham keltirib o‘tishadi:

*Qiz siqiladi, joni kuyadi  
Ko ‘zları yoshga to ‘ladi  
Birdan dukur ovozi! Qiz qoni muzlaydi  
Mana yaqin qoldi! Otlar chopishar qo ‘raga  
Yevgeniy!... Ey voh! deya soyadan yengil*

<sup>39</sup> Александр Пушкин. Евгений Онегин роман в стиках. Москва. Шедевры русской классики. 2012. – Л. 53.

<sup>40</sup> Александр Пушкин. Евгений Онегин роман в стиках. Москва. Шедевры русской классики. 2012. – Л. 142.

*Tatyana boshqa yo 'lakka o 'tadi,  
Zinadan to 'g 'ri hovliga so 'ng to 'g 'ri bog 'ga  
Uchadi, uchadi u orqa tomonga  
Qaray olmaydi darrov aylanadi,  
Ko 'lga tutashgan xiyobon  
Sirenenning novdalari yuzini tirnaydi  
Gulzordan uchadi anhorga,  
Siqilib ketib o 'rindiqqa.*

Ushbu asar parchasida Tatyananing his-tuyg‘ulari, Oneginni kutishi, hovliga undan bog‘ga tomon chiqishi tasvirlanadi. Muallif tilida u uchar edi, xiyobonga tezda boradi, shoshganida siren novdalari yuzini tirnaydi, gulzordan o‘tib anhorga kelib o‘rindiqqa o‘tiradi.

O‘qituvchi: Bu asar parchasida siz aytganingizdek, Tatyananing ichki kechinmalari ifodalangan. U shunchalik yori bilan ko‘rishishga oshiqadiki, uning fikri-xayoli faqat Oneginda edi. Onegin kelavermaganidan, javob ololmayotganidan siqilib yig‘laydi. Birdan otlarning dupur ovozidan u Onegin deb o‘ylaydi va hayajonlanganidan butun vujudi sovib muzlaydi. Uning ismini dilda ham tilda ham keltirib u kelayotgan tomonga shamoldek uchadi. Hech narsaga qaramay yelib borardi, hatto siren novdalari yuzini tirnasada bu unga sezilmaydi, chunki uning qalbi undan-da battarroq tiralardi. Shundan keyin u siqilib anhorga keldi va o‘rindiqqa o‘tiradi.

Tarjimonlik bu asar yaratishdan ham mushkul ish. Ijodkor o‘z xohishi, yo‘nalishi, uslubi bo‘yicha erkin tarzda asar yaratishi mumkin. Lekin tarjimon esa mahorat bilan biror asarni tarjima qilishi bir san‘at. Unda erkinlik yo‘q, shoir yoki adib yo‘nalishiga tayanib ish ko‘radi va undan chiqa olmaydi. Ayniqsa, she’riy tarzda tarjima qilish bu katta mehnat va mahorat talab qiladi. Chunki misralarni chiroyli, qofiyali, bir-biriga mos tarzda qo‘llash

tarjimonning san'atidir. Tarjimon asarni qanday talqin qilsa, o'quvchi ham uni shunday tushunadi. Hozir siz tarjima qilgan asarni dastlab Oybek tarjima qilgan. Qo'limizda, biz o'rganayotgan darslikdagi "Yevgeniy Onegin" asarini esa M.Kenjabek tarjima qilgan. Biz hozir so'zlar tarjimasiga emas, mazmuniga e'tibor qaratishimiz kerak. A.Pushkin satrlari sodda va o'quvchi tushunishi uchun qulay, misralari o'ynoqi, his-kechinmalar tabiiy holda ochib berilgan. Biz ushbu asarni tarjima qilgan ikki buyuk tarjimonimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hamda Mirzo Kenjabeklarning yuqorida siz tarjima qilgan parchalarini ko'rib chiqamiz:

1-guruhga berilgan tarjima Oybek va M.Kenjabek talqinida:

*Siqilar qiz dili, qiz dili kuyardi joni,  
Xumor ko 'zlari ham yosh bilan to 'la  
To 'satdan, dukurlash!... qotdi qiz qoni.  
Mana yaqin, otlar chopar... qo 'raga...  
Yevgeniy!... "Voh!"deya soyadan yengil  
Qiz boshqa yo 'lakka hatlandi epchil,  
Zinadan hovliga so 'ng to 'g 'ri boqqa  
Uchadi, uchadi u orqa yoqqa  
Qarashga botinmas; zumda aylanar  
Gulzorlar, ko 'priklar, kichik o 'rmonni  
Ko 'lga tutashuvchi bir xiyobonni,  
Siren novdalari yuzin tirmalar,  
Gulzordan uchar ekan chashmaga,  
Nafasi tiqilib o 'rindiqqa<sup>41</sup>. (Oybek tarjimasi)  
Tag 'in qizning o 'rtanar joni,  
Yoshga to 'lar intizor ko 'zi.  
Ot dupuri!... Muzlaydi qoni...*

<sup>41</sup> Aleksandr Pushkin "Kapitan qizi". – Toshkent. Yangi asr avlod. 2017. – B. 200.

*Yaqin, yaqin! Bu uning o'zi-  
Yevgeniy! "Oh!" - soyadan ham tez  
Hatlar boshqa yo'lakka shu kez,  
Hovligayu so'ng to 'g'ri boqqa  
Chopip ketar, ammo bu yoqqa  
Qaray olmas. Zumda u tag 'in  
O'tar gulzor, ko 'prik, o'tloqdan,  
Ko 'lga ketgan xiyobon yoqdan.  
Sindirgancha suman butog 'in,  
Chashma sari uchar beqanot  
Va hansirab o'rindiqqa bot<sup>42</sup> (*Mirzo Kenjabek tarjimasi*)*

Ikkita tarjimonni qiyoslaydigan bo'lsak, avvalo, ushbu asar o'zbeklarga yetib kelishida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'rni beqiyosdir. 1936-yilning erta bahorida "Yevgeniy Onegin" asarini Chimyonda tarjima qila boshlagan Oybek 20-avgustda tarjimaga nuqta qo'yadi. Elbek Pushkin asari ta'sirida, o'zbek adabiyotida "Tozagul" she'riy romanini yozadi. Undan keyin ham bir qancha she'riy romanlar yozilgan. Oybek ustozи Cho'lpon maslahati bilan "Yevgeniy Onegin"ni 14 satrlik ikki bandi 11 hijoli barmoq vaznida tarjima qilingan. M.Kenjabek tarjimasi mukammal tarjimaga o'xshab ko'rinsa-da, aslida u ustozи Oybek mehnatlariga tayangan holda vujudga kelgan. Va bu asarini ustozи Oybek xotirasiga bag'ishlaganini e'tirof etadi. 1988-yil nashr etiladi. U qayta ishlanib, to'ldirilib, ayrim ruscha so'z bilan ifodalangan o'rinalar o'zbekchalaştirilib nashr qilinadi. 9-sinf adabiyot darsligiga aynan shu asarning M.Kenjabek tarjimasi kiritilgan...

Shu tariqa ikkinchi guruh tarjimasi ham tinglanadi, o'qituvchi tomonidan izohlanib, to'ldiriladi. Keyin baholanib, uyga vazifa

<sup>42</sup> Александер Пушкин. Евгений Онегин. Шеърий роман. Мирзо Кенжабек таржимаси. Тошкент. Faafur Fu'lom nomidagi Adabiёт va san'yat, 1988. – Б. 85.

deriladi. Uyga vazifaga qo'shimcha qilib, tarjima qilish uchun berilgan parcha (asl ruscha variant)ni yodlab kelishni topshirish mumkin.

Yuqoridagi turli xil metod, o'ynlardan tashqari "**Qiyoslang**" va "**To'rttasi birda**" texnologiyasini qo'llash ona tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan sinflarga to'la mos keladi.

### **"Qiyoslang" metodi**

O'qituvchi "Ijodkor bilan qahramon o'rtasida bog'liqlik bormi?", – degan savolni o'rtaga qo'yadi. Yozuv taxtasining bir tomoniga Pushkinning ikkinchi tomoniga esa Oneginning portretini ilib qo'yadi. O'quvchilarga Pushkin va Oneginning bir-biriga o'xhash va farqli xususiyatlari, xarakterlari, hayot tarzi, yashagan davrlarini qiyoslash orqali tahlil qilishni topshiradi. Topshiriqni bajarishlari uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. 1-guruh Pushkinni, 2-guruh Oneginni tahlil qilishadi.

#### *1-guruh javobi:*

Bu ikki shaxs bir-biriga juda o'xhash. Pushkin ham aslzoda oilada dunyoga kelib, ulg'ayishi bir o'xhash tomoni bo'lsa, ikkalasi ham ota-onasi tomonidan tarbiyalanmaydi. Yana o'xhash jihatlaridan biri ikkalasi ham notinch va tartibsiz yashashgan. Pushkinning qishloqqa surgun qilinishi, Onegin ham qishloqqa kelishi yoki duel voqeasi ikkalasining hayotida bor voqea. Pushkin ham Onegin ham erkin inson bo'lishgan. Pushkin surgun qilinib otasining mulki bo'lgan qishloqqa jo'natsila, Onegin ham amakisining mulkiga egalik qilish uchun qishloqqa boradi. Ma'lum muddat u yerda bo'lgach yana shaharga qaytishadi. Bizning xulosamiz shuki, ikkalasi ham bir-biriga o'xhash insonlar. Sababi Pushkin o'z taqdirini "Yevgeniy Onegin" asarida bitgan.

#### *2-guruh javobi:*

Pushkin va Oneginning bir-biriga o‘xhash bo‘lgan jihatlari ko‘p, albatta. Ularni quyida aytib o‘tamiz, ammo Pushkin bu asarni 1930-yilda 10 yil davomida yozganini hisobga olib aytadigan bo‘lsak, ushbu asar ingliz shoiri Bayronning “Don Juan” she’riy romanidan ta’sirlanib yozilgan. Demak, bu qahramon orqali Pushkin aynan o‘zini yozgan deya olmaymiz. Endi ularni o‘zaro bog‘lab turadigan xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Onegin ham Pushkin ham zodagonlar oilasidan kelib-chiqqan. Ikkalasi ham enagalar qo‘lida tarbiyalangan. Ularning ikkalasi ham aqlli, kelishgan inson bo‘lishgan. Bizning fikrimizcha, Pushkin Onegin obrazi orqali o‘sha davrning yosh kiborli aslzoda insonlarini tasvirlab shu muhitni ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

*O‘qituvchi fikri:* Ikkala guruhning ham javoblari o‘rinli, 1-guruhning fikrlariga e’tibor qaratsak, Pushkin Onegin obrazi orqali o‘zining hayotini, o‘zini tasvirlagan degan qarashga asoslanadi. Ammo, bu to‘la mos kelmaydi. Ko‘pgina jihatlari siz aytganingizdek, o‘xhashi mumkin, lekin “Yevgeniy Onegin” asari 2-guruh aytib o‘tganidek, Bayronning “Don Juan” asari asosida yaratilgan. Ayrim rus adabiyotshunoslarining fikriga qaraganda ushbu qahramon hayotiy qahramon bo‘lib, uning prototipi Chadayev ismli shaxs degan qarashni ilgari suradilar. Buni esa asar tahlili haqidagi fikrlarda ko‘rish mumkin.

*“Qiyoslash” usulini maktublarini o‘rganishda ham qo‘llash mumkin.* Asarda detal ham muhim bir vazifani bajarib, uning qaysidir qirrasini ochishga yordam beradi. Ayniqsa, bizning qo‘limizdagi ushbu darslikda asar (parchasi) Tatyana xati bilan boshlanadi va unda Onegin xati ham keltiriladi. Har ikki xat ham qahramonlarning kuchli his-tuyg‘ulari ta’siri ostida yoziladi. Maktublar matnini solishtirib ko‘rish orqali ham ularning his-tuyg‘ularini bilib olish mumkin. Ikkala xatni jadval ko‘rinishida joylashtirib ularni o‘quvchilarga berish orqali biror muammoli

savol qo'yish yoki qiyosiy jihatdan o'rganib chiqishi topshirilishi mumkin. Bundan tashqari asar parchasiga Oneginning Lenskiy bilan bo'lgan munosabatlari ifodalangan bo'limlari keltirilganida, do'st bo'lganligi haqidagi bo'limlar kiritilsa yaxshi bo'lardi. Chunki o'quvchilar bularni o'qib, Lenskiy haqida fikr yurita olardi, uning qanday inson ekanligiga oydinlik kiritilib, asarni tahlil qila oladi.

Ona tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktab yoki sinflarda "**To'rttasi birda**" usulini qo'llash to'la mos keladi.

Matndan parcha eshittiriladi. O'sha eshittirilgan matn bo'yicha topshiriq berilib, ayrim o'rirlari ochiq qoldiriladi va uni o'quvchilar eshitgani asosida to'ldirishlari kerak. Shundan keyin she'riy parcha ifodali o'qib beriladi. Keyingi bosqichda eshittirilgan parchada nimani tushunganliklarini og'zaki tarzda bayon qiladi.

Ushbu metod orqali o'quvchilarning har tomonlama qobiliyati sinaladi. 1-bosqich ya'ni eshitish bosqichida o'qituvchi audio matn qo'yib beradi. Qo'yilgan she'riy parcha 1 daqiqadan oshmaydi. Barcha shart o'quvchilarga oldindan tushuntiriladi. O'quvchilarga diqqat bilan tinglashlari va keying topshiriq shu asosda ekanligini eslatadi. Audio parcha qo'yib eshittirilgach, 2-bosqichga o'tiladi. 2-topshiriqda esa aynan eshittirilgan parchaning yozma shakli tarqatiladi, vazifa shundan iboratki, o'sha she'riy parchaning ayrim o'rirlari ochiq qoldirilgan va o'quvchilar tinglagan mantga tayanib, ularni to'ldirishlari kerak. O'quvchilarga yordam tarzda parcha keltirilgan tarqatmaning pastida qo'llanilishi kerak bo'lgan so'zlar aralashtirib qo'yilgan va ulardan mosini topib o'rni ochiq joyga yozib qo'yiladi. Ularni to'ldirish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Keyin 3-topshiriqqa o'tiladi. O'quvchilar shu to'ldirilgan parchani ifodali o'qib berishadi.

3-topshiriqni yozib bo‘lgach, she’rni ifodali o‘qiyotgan paytda o‘quvchilar noto‘g‘ri jumla qo‘llasa (tushirib qoldirilgan o‘rinlarga) qarshi guruhning zehnli o‘quvchilari ularning xatolarini payqab, to‘g‘irlashi va o‘z jamoalariga qo‘srimcha ball yig‘ishi mumkin. Shuning uchun audio eshitayotgan paytda boshqa jamoa ham diqqat bilan eshitib o‘tirishlari va boshqa guruh xatolarini tuzatib borishlari kerak. Shu orqali o‘qituvchi ularni mashg‘ulotga diqqatini jalb qiladi va to‘liq nazorat o‘rnata oladi. Baholash tarzi esa 2,3,4-topshiriqlar asosida to‘g‘ri bajarilganligi va jamoalar ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Topshiriqni to‘liq bajarib bo‘lganidan keyin o‘qituvchi ularning fikrini xulosalaydi. Rag‘bat va jarima kartochkalariga qarab umumiyligi ballarni e’lon qiladi, yutgan jamoa ra’batlantiriladi.

1-guruhga 1-topshiriq: Asarning 8-fasli, XVII bo‘limi audio shaklida eshittiriladi.



“Nahotki - deb o‘ylar Onegin”(153 bet), - deb boshlanuvchi parcha qo‘yiladi.

### 1-guruhning 2-topshiriqqa javoblari:

1-o‘quvchi: Nahotki - deb o‘ylar ... ( **Onegin**)

Nahot ... (**o’sha?**) Xuddi o‘zi ... Yo‘q

2-o‘quvchi: Olis ... (**qishloq**) bag‘ridan, lekin

Qandoq keldi? Yigit ko‘zi ... (**lo‘q**)

3-o‘quvchi: Qo‘sheyynakdan ... (**boqar**) dam-badam.

Yodga solar ... (**orazi**) shu dam

4-o‘quvchi: ... (**Unitilgan**) bir qizni elas

Bilurmisan ayt menga, ... (**knyaz**)

5-o‘quvchi: Moviy ... (**bo‘rkli**) anov xonim kim

Turur ... (**ispan**) elchisi birlan?

6-o‘quvchi: Oneginga qarar u ... (**birdan**)

Ha, sen ko‘pdan yo‘q eding, ... (**do‘stim**)

7-o‘quvchi: To‘xta, hozir aytaman, ... (**inim**)

- Kim u, axir?

- Mening xotinim.

So‘zlar: Onegin, Tatyana, o‘sha, shahar, qishloq, qora, jayron, lo‘q, boqar, yuzi, chehrasi, orazi, unitilmagan, unitilgan, sevgan, yoqdirgan, general, kapitan, knyaz, bo‘rkli, ko‘rkli, ispan, ingliz, fransuz, birdan, hamkasbim, inim, do‘stim, amakim.

**To‘g‘ri javoblar quyidagicha:** Onegin, o‘sha, qishloq, lo‘q, boqar, orazi, unitilgan, knyaz, bo‘rkli, ispan, birdan, do‘stim, inim.

1-guruuh a’zolarining qo‘llagan so‘zлari:

1-o‘quvchi: Onegin / o‘sha

2-o‘quvchi: qishloq / qora

O‘quvchi javobini 2-guruuh o‘quvchisi “ko‘zi qora” emas, “ko‘zi lo‘q” bo‘lishini aytadi. O‘qituvchi bu fikrni ma’qullab ularga rag‘bat kartochkasi beradi.

3-o‘quvchi: boqar / orazi

4-o‘quvchi: Unitilgan / knyaz

5-o‘quvchi: bo‘rkli / ingliz

Ushbu o‘quvchining javobida “ispan” emas, “ingliz” deya noto‘g‘ri javob beradi va bu guruhgа yana bir jarima kartochkasi beriladi.

6-o‘quvchi: birdan / do‘stim

7-o‘quvchi: inim

Bu shartda 1-guruuh 5ta rag‘bat va 2ta jarima ega bo‘lishdi. Shundan so‘ng 2-guruhgа audio parcha qo‘yib eshittiriladi.

8-fasl, XVIII bo‘limi qo‘yiladi va u quyidagicha boshlanadi:

- Uylandim de! Bilmabman buni! (153 bet).

2-guruh o‘quvchilari ham xuddi shu tarzda javob berishadi.  
Ular ham baholangach, 3-topshiriqqa o‘tiladi.

3-topshiriqda esa o‘quvchilar nafaqat parchalarni ifodali o‘qib berishadi, balki rollarga kirib ijro etishadi. Ikkala guruhdan ham uchtdan o‘quvchi chiqadi va Onegin, knyaz, boshlovchi (muallif) rollarini ijro etadi. Tayyorlanib olishlari uchun 5 daqiqa beriladi.

*1-guruh sahna ko ‘rinishi:*

*Boshlovchi. “Nahotki, - deb o ‘ylar Onegin,*

*Onegin. Nahot o ‘sha? Xuddi o ‘zi...*

*Yo ‘q... Olis qishloq bag ‘ridan, lekin,*

*Qandoq keldi?...”*

*Boshlovchi. Yigit ko ‘zi lo ‘q -*

*Qo ‘shoynakdan boqar dam-badam.*

*Yodga solar orazi shu dam*

*Unutilgan bir qizni elas.*

*Onegin. “Bilurmisan, ayt menga, knyaz,*

*Movut bo ‘rkli anov xonim kim -*

*Turur ispan elchisi birlan?”*

*Boshlovchi. Oneginga qarar u birdan.*

*Knyaz. - Ha, sen ko ‘pdan yo ‘q eding, do ‘stim.*

*- To ‘xta, hozir aytaman, inim.*

*Onegin. “Kim u, axir?”*

*Knyaz. - Mening xotinim (153 bet).*

2-guruhdan ham uchta o‘quvchi chiqib 1-guruh ijro etgan bo‘limning davomini ijro etishadadi:

*Onegin. “Uylandim de! Bilmabman buni!*

*Qancha bo‘ldi?”*

*Knyaz. - Qariyb ikki yil.*

*Onegin. - “Kim?”*

*Knyaz. - Larina.*

*Onegin. - “Tatyana bonu?”*

Knyaz. - Taniysanmi?

Onegin. -“Qo‘shnisiman, bil”.

Knyaz. - O, yo‘qsa, yur.

Boshlovchi. - Knyaz qo‘zg‘olib,

- Qarindoshi, do‘stini olib,

Rafiqasi tomon boshlaydi.

Begoyim bir nigoh tashlaydi...

Yuragiga tushsa ham g‘uluv,

Qolsa hamki zo‘r hayrat ichra,

Hayajonu xijolat ichra,

O‘zgarmaydi zarracha suluv.

O‘sha raftor, fe'l unda hokim,

O‘sha-o‘sha - salomi sokin (154 bet).

4- topshiriqda esa ushbu parchadan eshitgan, to‘ldirgan, o‘ynagan, ko‘rganlarini tushuntirib berishlari so‘raladi. 2 daqiqa vaqt beriladi. O‘quvchilar kerakli o‘rinlarni qayd etib ketishlari mumkin. Guruhning barcha a’zosi o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi.

*1-guruh a’zolarining javoblari:*

*1-o ‘quvchi:* Bizga berilgan ushbu “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidan keltirilgan parcha bo‘lib, unda Onegin o‘ylari, qolaversa, Knyaz suhbatি keltirilgan.

*2-o ‘quvchi:* ham qarindoshi ham do‘sti bo‘lgan knyazning uyiga mehmonga kelganida u yerda Tatyanani ko‘rib qoladi va ko‘zlariga ishonmaydi.

*3-o ‘quvchi:* Chunki u qishloqda yashar edi va bu yerda bo‘lishini xayoliga ham keltirmagandi.

*4-o ‘quvchi:* Shu bilan u oldingi Tatyanan bilan bog‘liq hodisalarini eslaydi, qizning ko‘rinishi esiga tushadi. Keyin esa u knyazga savol beradi.

*5-o ‘quvchi:* Knyaz Tatyanan tanishtiradi va unga kimligini aytadi.

*6-o 'quvchi:* Ushbu parcha orqali Oneginning Tatyanani qayta uchratishi orqali unga nisbatan hislari paydo bo'lishi va uni hayratga solishi ifodalangan.

*O'qituvchi:* Ha, to'g'ri, yuqorida aytib o'tganlaringizga qo'shimcha ravishda Oneginni hayratga solgan narsa sodda qishloq qizi qisqa vaqt ichida o'zgarib, suluv ayolga aylanib ketishi tasvirlanadi.

*2-guruh 4-topshiriqni quyidagicha bajarishgan:*

*1-o 'quvchi:* Ushbu berilgan parchada knyaz bilan Onegin suhbatи keltirilgan.

*2-o 'quvchi:* Onegin knyazning uylanganligini bilgach, qiz kim ekanligini so'raydi.

*3-o 'quvchi:* Knyaz Larina deganda Tatyanabonumi? - deb so'raydi.

*4-o 'quvchi:* Knyaz: Taniysanmi? - desa Onegin uning qo'shnisi bo'lganini aytadi.

*5-o 'quvchi:* Keyin knyaz Oneginni rafiqasi tomonga boshlaydi.

*6-o 'quvchi:* Shundan so'ng ayol Oneginni ham ko'radi va o'zini ko'rmagandek tutadi.

*O'qituvchi:* Siz aytganingizdek, ushbu parcha knyaz va Onegin suhbatи haqida, lekin unda Oneginning hayratlari ya'ni tortinchoq, sodda qiz tabiatи butunlay o'zgarib ketganligi, o'zini tutishi, hech qanday his-tuyg'ularga berilmasligi ifodalangan. Chunki shu 2 yil ichida Oneginning e'tibor bermagan yosh qizcha, go'zal xonimga aylanganligini, bundan tashqari Oneginning unga nisbatan qiziqishlari hayrati, his-tuyg'ulari, hislari uyg'onganligi keltirilgan.

Ushbu usul o'quvchilarni badiiy asar ustida har tomonlama o'zlashtirishga, tinglashga o'rgatadi, eshitib fikrlashga chorlaydi, to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantiradi, rol ijro eta olishni va

o‘zining mustaqil fikrlarini ifodalay olishga qaratilgan. Bu metodni soddalashtirgan holda kichik-kichik guruhlarga bo‘lib, badiiy asardan parchalar tarqatgan holda qisqa vaqt ichida katta materialni o‘zlashtirishga ham erishish mumkin.

Nafaqat rus adabiyotida, balki, jahon adabiyotida ham o‘chmas iz qoldirgan Aleksandr Pushkin ijodini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borgan tahlillarimizdan **quyidagi xulosaga** keldik:

- “Audio topshiriq” usulida o‘quvchilar asarni tez eslab qolishadi, emotsiyonal- hissiy kechinmalarini to‘g‘ri boshqarish qobiliyatlarini yo‘lga soladi.

- “Sahna ko‘rinishi” metodi esa o‘quvchilarni vazifani aniq bajarishda harakat qilish, turli sharoitlarda rollarni bajarish qobiliyatini oshirdi.

- “Agarda men... bo‘lsam” usuli bilan o‘quvchilar asar qahramoni o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘rishdi. Muammoning sababini o‘rganib undan chiqib ketish yo‘llarini izladi.

- “Lotereya” o‘yinida esa test ishslash bilan birga, qarshi guruhi bilan bahslashib jamoa bilan ishladi. O‘quvchilarni tanqidiy fikrashga undab, o‘z fikrini asoslab berish orqali boshqalarni ishontirish ko‘nikmasi hosil qilindi.

- “Eslab ko‘rchi, unutmadingmi?” usuli orqali o‘quvchilar xotirasi qanchalik mustahkamligi nazorat qilindi.

- “Beshbarmoq” usulida o‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi orttirildi, ijodkor hayoti va faoliyati o‘rganildi, guruhlar bir-biri bilan bahslashib raqobat yuzaga chiqarildi.

- “Topqir detektiv” metodida asar bo‘yicha topshiriqlar berilib, o‘quvchilarda topqirlilik xususiyatlari rivojlantirildi.

- “T-T” metodi orqali o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘z ustida ishlab, test tuza olish qobiliyati bilan birga, chalg‘ituvchi javoblarni ikkilanmasdan tezda yechish ko‘nikmasiga ega bo‘ldi.

- “Muharrir” o‘yini asosida ona tili fani bilan bog‘lanib, o‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri tushunishi uchun integrative yondashildi.

- “Tushun va bajar” texnologiyasida yozma savodxonlikni oshirish, to‘g‘ri va ravon gapirish ko‘nikmasi hosil qilindi.

- “Tasvirlang” usuli asosida mavzu tasviriy san’at fani bilan bog‘lanib, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini aniqlandi.

- “Tarjimonlik osonmas!” texnologiyasi orqali asar ikki til o‘rtasida solishtirildi, o‘quvchilar rus tilidagi parchani tarjima qilib, rus tilidan ham o‘z bilimlarini oshirishdi va tarjimonlik haqida ham ma’lumotga ega bo‘ldi.

- “Qiyoslang” metodida ijodkor bilan qahramon o‘rtasida bog‘liklar o‘zaro qiyoslandi va natijada qahramon va ijodkor shaxsiyati ochildi.

- “To‘rttasi birda” metodida esa o‘quvchilarningtinglab tushunish, yozma savodxonligini oshirish, ifodali o‘qish malakasini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil ifodalay olishiga erishildi.

Umuman olganda, A.S.Pushkinning 9-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limida keltirilgan “Yevgeniy Onegin” she’riy romani zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tahlil etildi.

## MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA “OTELLO” FOJIASINI O’RGANISH

Muammoli ta’lim texnologiyasining qanday ahamiyatga ega ekanligini 9-sinf adabiyot darslida, Jahon adabiyoti bo‘limida “Otello” tragediyasi orqali o‘rganamiz. O‘qituvchi ana shu parchalarni tahlil qilishda muammoli ta’lim texnologiyasining “Keys-stadi”, “Muammoli vaziyat”, “Asalari galasi”, “Ovoz bering”, “Tadqiqot”, “Tanjidiy tahlil”, “SMT”, “Beshinchisi

ortiqcha”, “Obrazlarga ta’rif bering”, “Raqamlar charxpalagi” kabi metodlarini qo’llashi mumkin.

Nega aynan V.Shekspirning “Otello” tragediyasini muammoli ta’lim texnologiyasi asosida o’rganish kerak degan savol tug‘iladi? Chunki, bu asar dramatik asar sirasiga kirib, voqealari izchil murakkab bir vaziyatlar asosida kechadi. Bitta ro‘molcha yo‘qolganligi sababli butun bir asarning voqealar rivojini o‘zgartirib, asar tugunini keltirib chiqaradi. Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, uyg‘onish davri asoschisi hisoblangan V.Shekspir bu asar orqali nima demoqchi va u yuzaga keltirgan muammolar orqali oqibatlarga olib kelishini aynan shu texnologiya asosida o’rganish, asar mohiyatini ochishga va uni o‘quvchi yaxshi tushunishga imkon yaratadi. Fojiani “**Keys-stadi**” texnologiyasi asosida o’rganishni afzal topdik.

“**Keys-stadi**”: “Otello” tragediyasi va dezdemona fofiasi

*O‘quv predmeti:* Adabiyot (9-sinf “Jahon adabiyoti” bo‘limi)

*O‘quvchilar soni:*

*Keysning asosiy maqsadi:* “Otello” tragediyasi tahlili misolida o‘quvchilar jamoasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, insoniylik, mehr-shafqat, Vatan, ota-onasini, yor-do‘stga bo‘lgan muhabbat xislatlarini yuksaltirish.

*Keys turi:* ta’lim-tarbiya bernvchi

*O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar:*

- V.Shekspir hayoti va ijodi o‘rganiladi;
- “Otello” targediyasi o‘qiladi va tahlil qilinadi;
- asar qahramonlarining chigal, ruhiy evrilishlari tadqiq qilinadi;
- o‘quvchilarning sodir bo‘lgan muammolarni har tomonlama churur asosli o‘rganish malakalari rivojlanadi;

- ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi;
- tahlil davomida o'zlarining mustaqil fikr va qarashlarini shakllantiradilar;
- muammoni keng qamrovda, unga ta'sir qiluvchi barcha omillarini e'tiborga olib, atroflicha o'rganish lozimligini bilib oladilar;
- o'quvchilarning sodir bo'lgan vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha malakalari tarkib topadi.

Ushbu Keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilar oldindan quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

*O'quvchi bilishi kerak:*

- shoir ijodi va asarlaridan namunalar, adabiy-nazariy bilimlarga ega bo'lishi;
- o'quvchilar jamoasi, jamoa ichida ishni tashkil qilish.

*O'quvchi amalga oshirishi kerak:*

- mavzuni mustaqil o'rganadi;
- muammoning mohiyatini tushunib oladi;
- o'z shaxsiy tanqidiy fikrlari orqali xulosalar qilishi;
- ilmiy, nazariy, amaliy manbalar ustida mustaqil ishlaydi va natijalarini umumlashtiradi.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi quyidagicha:

Keysning asosiy ob'yekti shaxs tarbiyasiga yo'naltirilgan. Bu keys ta'lim-tarbiya beruvchi keys bo'lib, ma'lumotlar, savollar, vaziyatlar asosida tuzilgan. Ta'limiy maqsadga ko'ra, keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan. Shuningdek, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va ularni amaliy faoliyatiga

yo‘naltirishni nazarda tutadi. Ushbu keysdan adabiyot fanini o‘qitishda foydalanish mumkin.

### **“Muammoli vaziyat” metodi**

#### **“Otello” tragediyasi va Dezdemona fojiasi**

Umrini janglarda o‘tkazgan oqil va halol arab general Otello jasur jangchi Kassioni o‘ziga leytenant qilib oladi. Uning mulozimi Yago shu o‘ringa o‘tirishni mo‘ljallab yurar edi. Shuningdek, Venetsiya senatori Brabantining qizi Dezdemona venetsiyalik aslzoda boy yigit Rodrigoni rad qilib, qariroq bo‘lishiga qaramay, qora Otelloni sevib qoladi va unga tegadi. Yago va Rodrigo birlashib, Otello va Kassiodan o‘ch olish niyatida Dezdemona eri Otelloga Kassio bilan xiyonat qilayotganini aytadi. Rostgo‘y Otello hammani o‘ziga o‘xshatib, ularning gapiga ishonadi. Dezdemona bo‘g‘ib o‘ldiradi. Otello Yagoning xotini xizmatkor Emiliya orqali barcha haqiqatni bilganida esa kech edi. Oxiri bunga chiday olmay o‘zini ham o‘ldiradi.

**Ho‘sh, aytingchi, Otelloning qilmishlarini oqlash mumkinmi? Axir Dezdemona begunoh edi-ku?**

Kirish.

Adabiyot fani hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan gumanitar fan hisoblanib, u qamrab olgan barcha mavzular hayotiy hodisalarga asoslanadi.

Keys uchun tanlangan mavzu o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ushbu metod asosida o‘quvchilar Shekspir hayoti va ijodi, tanlangan asar mohiyati haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko‘nikmalarni qayta topshirish;

- mustaqil qaror qabul qilishga o'rganish.

Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha 9-sinf o'quvchilariga uslubiy ko'rsatmalar:

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyalar
Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Keys bilan tanishish. "Otello" asari haqida tushuncha hosil qilish uchun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish kerak.
Berilgan vaziyat bilan tanishish	Berilgan ma'lumotlarni yana bir marta diqqat bilan o'qib chiqing. Otello xarakteridagi asosiy qusurni aniqlang, vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilang.
Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqat qarating. Asosiy muammo: Otelloning qotillikkaga qo'l urishi sababini aniqlang.
Muammoli vaziyatni yechish usuli va vositalarini tanlash va asoslash	Ushbu vaziyatning yechimini izlab topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring va muqobil vaziyatni yaratting.

### "Muammoli vaziyat" metodi

Muammo turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammo yechimi
Otello Dezdemona qotili	Otello Dezmemonani xiyonat qildi deb o'ylab, uni bo'g'ib o'ldirdi	Otello dezdemona o'ldirmasdan oldin barcha voqeя va gaplarga oydinlik kiritishi kerak edi.

Muammo	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimi
Otello qilmishini oqlash mumkinmi?	Aslida u Yago va Rodrigoning nayrangiga uchib, o‘z sevgilisining qotiliga aylandi	Kassio bilan uchrashib, bu gaplar yolg‘on yoki rost ekanligini so‘rab, masalani hal qilishi va gumonlardan holi bo‘lishi kerak edi

Muammo	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimi
Otelloning tanlagan yo‘li to‘g‘rimi?	Otello sodda, rostgo‘y inson edi, shuning uchun ham uni aldashlarini xayoliga ham keltirmaydi. Halol va pokligi sabab xotinining xiyonatini kechira olmay shu qarorga keladi.	Otello kalta o‘yladi va juda katta xatoga yo‘l qo‘ydi. U o‘zini boshqarishi kerak edi.

Muammo	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimi
O‘z ayolini o‘limigacha olib borishi to‘g‘rimi?	U ayolni sevardi, lekin uning qalbiga gumon oralab, hushidan ayrildi. O‘z sevgan insonidan bu holatni kutmaydi va qattiq ta’sir qilib uni o‘ldirish kerak, degan fikrga keladi.	Yo‘q, albatta xato. Uning bu ishini tushunish uchun shu holatga tushib ko‘rgan odam biladi. Uning ishonuvchanligi o‘z sevgisi qurbanbi bo‘ldi.

Muammo	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimi
Otello Dezdemonani sevganida ham uni o'ldira oldi. Demak, u Dezdemonani sevmas ekanda?	Uning qalbini kemirayotgan shubha o'ti Otelloni borgan sari alangalatardi. Chunki, Yago aytgan gaplar to'g'ri tuyilib, hatto ro'molchasi Kassioda ekanligini o'z ko'zi bilan ko'radi va hammasi rost ekan deb o'ylaydi.	Otello garchi ro'molchani Kassioda ko'rsa ham Dezdemonadan so'rashi, hatto Kassioning o'zi qayerdan, kimdan olganligiga aniqlik kiritishi va boshqalardan so'rab surishtirishi lozim edi

O'tkazilayotgan tahlillar va natijalar xulosalanib, yakunlanadi.

O'qituvchi: "Otello" fojiasida insoniyat paydo bo'lganidan beri bir-biri bilan yonma-yon kelayotgan e兹gulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, ishonch va jinoyat, oljanoblik va pastkashlik singari sifatlar o'rtasidagi o'zaro kurash tasvirlanadi. Otello boshqalarni ham o'zidek rostgo'y deb qaraydi. O'zingiz ko'rganingizdek, manfaatparastlik, hasadgo'ylik bor joyda kimdir zug'um yetkazmasligi va zarar ko'rsatmasligi mumkin emas. Yago o'z manfaati "leytenant bo'lish" maqsadida qo'l urgan bo'lsa, Rodrigoning Otelloda shaxsiy adovati bor edi. Ular Dezdemonani buzuqlikda ayblab, eng pastkash yo'ldan borishadi. O'zlarining manfaati uchun boshqalarning baxtini buzib, oralariga nifoq soladi va oqko'ngil, sodda Otello yolg'on qurbaniga aylanadi... Dars shu tarzda xulosalanib, o'quvchilar baholanadi va keys-stadi texnologiyasi yakunlanadi.

Muammoli ta'limga kiruvchi metodlarimizdan yana biri "**Asalari galasi**" metodi asosida "Otello" fojiasini o'rganib chiqamiz. O'quvchilar ikkita guruhga bo'linadi. O'rtaga muammo tashlanadi va o'quvchilardan o'z fikrlari so'raladi.

**Muammo: Ro'molcha qayerga yo'qoldi?**

1-guruh o‘quvchisi: Ro‘molchani Otello Kassioda ko‘rganini aytadi, demak, uni Kassio olgan.

2-guruh o‘quvchisi: Yo‘q, uni Kassio emas, balki hasadgo‘y Yago olgan. Chunki u Kassioga tuhmat qilib, uning mansabini egallamoqchi bo‘lgan.

1-guruh o‘quvchisi: Bu ishning boshida Rodrigo bor, u Yagoni shunga majburlagan... Bahs shu tarzda davom etiladi, o‘quvchilarning fikrlari tinglangach, o‘qituvchi fikr bildiradi: Muammoga har tomonlama yondashishga harakat qildingiz. Endi to‘g‘ri javobni aytishdan oldin siz bilan “**Ovoz bering**” o‘yinini qo‘llab ko‘ramiz. O‘quvchilarga 5 xil rangdagi kartochkalar tarqatiladi va har bir rangda qahramonlar keltiriladi. Masalan, Yashil kartochka Yago, qizil kartochka Dezdemonha, qora Otello, ko‘k Rodrigo, oq Kassio.

**O‘rtaga qo‘yilgan masala: Sizningcha, ushbu asarda voqeа fojiali tarzda yakun topishida kimni aybdor deb o‘ylaysiz?**

1-guruh o‘quvchisi: Ro‘molchani olishda Yagoga Rodrigo yordam bergen va ular aybdor.

2-guruh o‘quvchisi: Bu meningcha, Rodrigo va Dezdemonaning rejasi. Bir paytlar adashib Rodrigoni rad etgandi, endi esa u bilan birga bo‘lishga Otello halaqit beradi. Shuning uchun shunday fitna qilishadi, ro‘molchasini Yagoga Rodrigo orqali berib yuboradi...

Bahs shu tarzda davom etishi mumkin. O‘quvchilar o‘zлari aybdor deb topgan qahromonni hamfikrlari bilan yig‘ilib bir guruhni tashkil etadi va o‘sha qahramonni aybdor qilib ko‘rsatadi va boshqalarni ishontirishi orqali boshqa o‘quvchilarni ham o‘zлariga qo‘shib olishadi. Buning uchun asosli dalil keltirishlari so‘raladi. Eng ko‘p ovoz olgan guruh g‘olib hisoblanib, o‘qituvchi xulosalaydi.

Biz quyida “**Tadqiqot**” metodini amaliy jihatdan V.Shekspirning “Otello” tragediyasini tahlil qilib ko‘ramiz. Ushbu metod bir nechta bosqichda kechadi. Sinf o‘quvchilarini 3 ta guruhga ajratamiz va ularni quyidagicha nomlaymiz:

1-guruh “Muhabbat”, 2-guruh “Rashk”, 3-guruh “Ishonch” deb nomlanadi.

1-topshiriqda guruh nomlarini asarga bog‘lab tushuntirib berishlari so‘raladi va ularning javoblari tinglangach keyingi bosqichga o‘tiladi.

2-topshiriqda nima uchun asar “Otello” deb nomlanganini izohlashlari va o‘zлari bu asarni qanday nomlashi mumkinligi so‘raladi hamda 3 daqiqa vaqt beriladi.

1-guruh javobi: Bizning fikrimizcha, asar nomini boshqacha tarzda nomlagan bo‘lardik. Masalan, “Muhabbat nolasi”, “Erta so‘lgan muhabbat”, “Sevgi qurban” va shunga o‘xhash nomlar nilan nomlash mumkin. “Erta so‘lgan muhabbat” deganda....

Uchta guruh ham ijodiy yondashib, o‘z fikrlarini bildiradi. Shunday so‘ng o‘qituvchi topshiriq bo‘yicha xulosalarini bildirib, 3-topshiriqqa o‘tadi. Yozuv taxtasiga asar qahramonlarini nomini yozib, obrazlarni turlarga ajratishni topshiradi.

Otello Emiliya Montano Kassio

Brabansio

Dezdemona Lodaviko Gratsiano

Yago Rodrigo

### **Obrazlarni turlarga ajrating!**

O‘quvchilar bosh obraz, epizodik obraz, ikkinchi darajali obraz kabi turlarga ajratib chiqadi.

1-guruh javobi: Otello, Dezdemona – bosh obraz;

Yago, Rodrigo, Emiliya, Kassio – ikkinchi darajali obraz;  
 Montano, Lodoviko, Gratsiano, Brabansio – epizodik obraz.

4-bosqichda “**Fikrni jamlash**” metodi qo‘llaniladi. Ular qahramonlarga tegishli jumlalarni mosini belgilaydilar:

1-guruhgaga berilgan topshiriq:

Otello	→	Choru nochor taqdirimga bo‘yin egaman, Tole sinab boshim oqqan yoqqa ketaman.
Dezdemona	→	Yig‘layapman biroq bu yosh yo‘qlik yig‘isi Ishqim uchun osmon menga bermoqda jazo
Kassio	↗	Afandim, hoy afandim, ...deyman axir!
Emiliya	↖	Voy, bechora, aldanibdi, men xarob bo‘ldim!

To‘g‘ri javob:

Otello	↗	Choru nochor taqdirimga bo‘yin egaman, Tole sinab boshim oqqan yoqqa ketaman.
Dezdemona	↖	Yig‘layapman biroq bu yosh yo‘qlik yig‘isi Ishqim uchun osmon menga bermoqda jazo
Kassio	↙	Afandim, hoy afandim, ...deyman axir!
Emiliya	↘	Voy, bechora, aldanibdi, men xarob bo‘ldim!

5-bosqichda guruhlarga “Otello”dan parcha tarqatiladi. Shu bo‘yicha muammoli savollar beriladi. O‘quvchilardan parchalarni o‘zlashtirib, tushunganlarini asoslab berishlari so‘raladi.

1-guruhgaga berilgan parcha:

Otello. O’ldiraman, ammo seni yana sevaman...  
 Ana o’zi ko‘zin ochdi, uyg’onib qoldi

Dezdemona. Kim? Otello, bu sizmisiz?

Otello. Ha, Dezdemona.

Dezdemona. Yotmaysizmi, aziz Otello?

Otello. Kechkilik ibodatni qilganmidingiz?

Otelloning ayolini o'lim oldidan ibodat qilishga undashi  
sababini aniqlang.

O'quvchilar shu zaylda parcha asosida javob berishadi.  
O'qituvchi esa bu shartni ham xulosalab, guruhlar javobi va a'zolar  
faolligiga qarab baholanadi.

6-topshiriq. Ushbu oxirgi bosqichda 1-guruh Otello, 2-guruh  
Dezdemona, 3-guruh esa Yago obrazlarini “Sinkveyn” usulida  
to'ldirishlari kerek.

Otello	Dezdemona
Sodda, ochiq ko'ngil	Go'zal, yosh
Ishondi, aldandi, o'ldirdi	Sevadi, seviladi, o'ldiriladi
Otello – halollik, rostgo'ylik timsoli	O'z sevgisining qurbaniga aylandi

Ishonuvchan Ma'suma

O'qituvchi umumiy baholarni aytib, uyg'a vazifa sifatida  
“Otello timsoliga tavsiv” mavzusida insho yozib kelishlari  
topshiriladi.

Ushbu mavzuni yuqoridagi metodlardan tashqari “T-T”  
(**Tanqidiy tahlil**), “SMT” (**Sahnali munozarali tahlil**),  
“Beshinchisi ortiqcha”, “Obrazlarga ta'rif bering”, “Raqamlar  
charxpalagi” kabi metodlarni qo'llagan holda maqsadiga erishishi  
mumkin.

Muammoli ta'lif texnologiyasi asosida V.Shekspirning  
“Otello” tragediyasini o'qitishda bir qancha metodlardan o'rini  
foydalandik va quyidagi xulosalarga keldik:

- “Keys-stadi” texnologiyasi orqali asardan keltirilgan  
vaziyatlar asosida o'quvchilar jamoasida sog'lom ijtimoiy muhit  
shakllantirildi, ijodiy fikrlash qobiliyatni rivojlantirildi;


- “Muammoli vaziyat” metodi orqali o‘quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyati shakllandi;
- “Asalari galasi” metodi o‘quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishda fikrlashni faollashtirdi va uzlusiz tahlilni yuzaga keltirdi;
- “Ovoz bering!” metodi asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllandi;
- “Tadqiqot” metodi orqali o‘quvchilar ilmiy, amaliy, nazariy misollar orqali asarni tadqiq qilishdi;
- “Taqidiy tahlil” o‘quvchilarni darsda faollashtiruvchi, tanqidiy fikrlashga jalb qilib o‘zaro ishchanlik va raqobat, bahslashish muhitini yaratdi;
- “SMT” asosida o‘quvchilarda jamoada ishlash, sardorlik, peshqadamlik sifatlari shakllandi, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, dalil keltira olish, munozara olib borishga erishildi;
- “Beshinchisi ortiqcha” metodida esa bir asar qahramonlarini boshqa bir asar qahramonlaridan farqlay olish, ularni qaysi asar qahramoni ekanligini eslab qolishi va bir-biriga qiyoslash orqali dunyoqarashi kengayishiga erishildi;
- “Raqamlar charxpalagi” metodi asosida o‘quvchilar ijodkorning hayoti va ijodi haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘libgina qolmay, o‘zлari erkin ravishda bir-biriga savollar berishi natijasida zakovati oshirildi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi asosida jahon adabiyotini o‘qitish o‘quvchi shaxsining ma’naviy jihatdan boyishi, estetik jihatdan sezuvchanlikka, topqirlilikka, qaror qabul qila olish va shu vaziyatlardan kerakli xulosalar chiqarishga, dunyoqarashini kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANINI O‘QITISHDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Hamkorlikda ishlash texnologiyasi orqali “Asrga tatigulik kun” asarini o‘qitishda qanday ahamiyatga ega ekanligi texnologiyaning qaysi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lishini, qaysi birini qo‘llash o‘quvchida ko‘proq samaraga erishishi mukinligini tahlil qilamiz.

9-sinf adabiyot darsligida “Asrga tatigulik kun” romanidan “Kazangap o‘limi voqeasi va Nayman ona haqidagi rivoyat” nomli parcha keltirilgan. O‘qituvchi ana shu parchani tahlil qilishda hamkorlikda ishlash texnologiyasining **“Kvadratli test”**, **“Chala xat”**, **“Zehn matni”**, **“Xotira mashqi”**, **“FSMU”**, **“Musbat va manfiy”**, **“Xulosasi – daraxt hosilasida”**, **“U kim?”**, **“Debat”**, **“Raqamlar tilga kirganda”**, **“Solishtiring”**, **“Ramziy timsolni toping!”** kabi metodlarni qo‘llash mumkin.



Hamkorlikda ishlash texnologiyasi asosida **“Kvadratli test”** usulini ko‘rib chiqamiz. Ch.Aytmatov hayoti va ijodi mavzusi o‘tilgach, uni mustahkamlshda yoki o‘tilgan mavzuni takrorlash

qismida bu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini o‘stirish uchun noan'anaviy “Kvadratli test” usuli qo‘l keladi. O‘quvchilar guruhlarga ajratilib, ularga “Kvadratli test” topshiriladi. Namuna: yuqorida.

“Chala xat” usuli o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ijodkor hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ammo ushbu ma’lumotlar to‘liq emas, ayrim o‘rinini ochiq qoldiriladi. O‘quvchilar mantiqiy fikrlab bo‘s h o‘rnlarni to‘ldiradilar. Chingiz Aytmatov hayoti bo‘yicha qo‘llab ko‘ramiz.

Aytmat \_\_\_\_\_ ko‘rmaganman. U 1918-1920-yillarda \_\_\_\_\_. Men esa \_\_\_\_\_ tug‘ilganman. Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi \_\_\_\_\_ daryosi qirg‘og‘ida eski, yerga botib borayotgan tegirmon toshi bor. Ana shu yerda bobomning \_\_\_\_\_ i bo‘lgan. Bu tegirmon bir yilcha ishlagan, xolos, keyin yonib ketgan. Shundan keyin inqirozga uchragan bobom \_\_\_\_\_ o‘g‘li – mening otam bilan u yerdan ketib, temiryo‘l \_\_\_\_\_ lari qurilishida ishlagan. Shu yerdan mening otam rus bojxonasi ma’muriyati yordamida Avliyota shahridagi \_\_\_\_\_ ga o‘qishga kirdi. Qirg‘izistonda \_\_\_\_\_ lavozimlarida ishladi. Onam - \_\_\_\_\_ Hamzayevna Aytmatova o‘qimishli, o‘z davrining ilg‘or ayollaridan bo‘lgan. Bu narsa ota-onamga meni \_\_\_\_\_ madaniayti, til va adabiyotiga oshno qilish imkoniyatini bergen.

**To‘ldirilishi kerak bo‘lgan so‘zlar:** Bobom, vafot etgan, 1928-yilda, Qurqurov, tegirmon, To‘raqul, tonnel, rus-tuzem maktabi, Moskva, rahbarlik, Nagima, rus.

2-3-guruhlarga ham shunga o‘xshash materiallar beriladi.

### “Xotira mashqi”

1-guruuh o‘quvchisi: Chingiz Aytmatov 1928-yil 12-dekabrda tug‘ilgan.

2-guruh o‘quvchisi: Ch.Aytmatov nafaqat, qirg‘iz xalq yozuvchisi, balki jahon tan olgan adib hisoblanadi.

3-guruh o‘quvchisi: Uning ko‘pgina asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan.

Xotira mashqi shu tarzda davom etadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bildirgan fikrlarni to‘ldirib yakunida xulosalaydi va guruhlarni baholaydi.

**“Raqamlar tilga kirganda”** usulida esa ijodkor hayoti va ijodi bilan bog‘liq sanalar, raqamlar jadval ko‘rinishida keltiriladi o‘quvchilar esa ularni eslagan holda to‘ldirishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar 2 ta guruhgaga bo‘linib, hamkorlikda bajarishadi va 3 daqiqa vaqt beriladi.

1942-yil	? (Urush tufayli mактабда о‘qishini to‘xtatib, qishloqqa qaytgach qishloq kengashiga kotib bo‘ladi)
1946-yil	? (8-sinfni bitirib, Jambul Zoovet-texnikumiga o‘qishga kiradi)
1956-yil	? (Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o‘qishga kiradi)
1937-yil	? (Otasi To‘raqul Aytmatov qatog‘on qilingan)
1970-yil	? (“Oq kema” qissasi yozilgan)
1980-yil	? (“Asrga tatigulik kun” asarini yozadi)

**“FSMU” metodi** munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini babs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi. O‘quvchilarga jadval tarqatiladi va ular o‘z fikrlarini aniq dalil bilan yozishi topshiriladi.

Qah-ramon lar	Fikr	Sabab	Misol keltiring	Umumlashma
Edigey	Vafoli	Qabr juda uzoq bo‘lsa ham,	Kazangapga bergen	Sabr matonati bilan qiyinchilikni

	va sabrli do'st	fikridan qaytmay, vasiyatini yerda qoldirmaydi	va'dasini qiyinchilik ko'rsa ham bajaradi	yengib o'tadi va yurtdoshlari orasida hurmat qozonadi. Boshqalarni insonparvarlikka da'vat etadi
Sobit-jon	Mehr-muhab-batsiz, ma'navi-yati qashsho q loqayd	Otasidan hol-ahvol so'rabs turmaydi, ko'rishga ham bormaydi. Tezroq shaharga ketishni o'laydi.	Otasi o'lsa ham u o'zida zarracha ayb sezmaydi iztirobga ham tushmaydi.	Otasining o'limidan ko'ra o'z ishlarini, boshliqlarining topshirig'ini ustun biladi. O'zicha bilimli va aqlli inson.
Kazan-gap	Mehribon ota	Edigey Sobitjonning bolalik paytlarini eslagandagi holatida ko'rish mumkin	Uzoqdagi maktab-internatga joylashtirib, o'qitadi, xabar olib qishin-yozin cho'lda qatnab olib borib keladi	Ortiqcha mehri o'z boshiga yetdi. U istagan orzu amalga oshdi, lekin farzandanidан mehri qaytmadi.
Edil-boy	Insofli hamyurt	Sobitjonnini insofga chaqiradi	Men sening o'rningga bir kaft tuproq tashlab qo'yaman, shoshyotgan bo'lsang ketaver	Sobitjonnini dafnga halal bermasligini o'zligini yo'qtganligini eslatib, to'g'ri yo'lga boshlovchi oqibatli inson.

**“Musbat va manfiy” usuli orqali asardagi qahramonlarning ijobiliy salbiy tomonlari haqida fikr yuritiladi. Ushbu organayzerni to'ldirish orqali qahramonlarning xarakterlarini, xatti-harakatlarni kuzatadi. Shu orqali o'ziga kerakli xulosa chiqaradi.**

## “Musbat va manfiy” metodi

<b>Qahramonlar</b>	<b>Musbat</b>	<b>Manfiy</b>
Edigey	Vafoli do'st, mard, sabrli inson	Qo'rs va jahli tez qiziqqon
Sobitjon	O'qimishli, olivy ma'lumotli, ishli	Loqayd, mehrsiz, e'tiqodtsiz, ma'naviyati qashshoq
Kazangap	Fidoiy, farzandlariga mehribon, chin do'st	Farzandini o'ta erkalab yuborgan, o'qisin deb o'zidan uzoqlashtirgan, unga kerakligicha tarbiya bermagan
Edilboy	Insofli, to'g'ri yo'lga boshlovchi jasur hamyurt	—

Yuqoridagi usullarni qo'llashdan tashqari o'quvchilar fikrini jamlashda, ularni hamkorlikda ishlashida “**U kim?**” usulini qo'llash mumkin. Guruhlarga asardan fikrlar keltirilgan qog'oz beriladi, ular birgalikda fikr egasini topishi kerak bo'ladi. 1-guruhga topshiriq:

1. “Ota-ku seniki, biroq sen o'zing o'zigniki bo'lmay qolibsan”
2. “O'ladigan odamning o'lgani, ketadiganning ketgani yaxshi”
3. “Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim”...

1-savol javobi: Birinchi gapni Edilboy Sobitjonga qarata aytadi. Chunki u otasini Nayman ona baytiga olib borishni istamay, shu atrofga ko'mib tezroq ketishga shoshilganini, otasining o'limiga qayg'urmaganini ko'rib aytadi...

2-savol javobi: Ushbu fikrni Sobitjon ichida o'ylardi va ko'nglidan o'tkazadi. Shundan ham ko'rish mumkinki, o'z otasiga nisbatan shunday o'ylayotgan farzanddan nima ham kutish va uni qanday inson deb atash mumkin?!...

Guruqlar shu zaylda javob berib oxirida o‘qituvchi xulosalab, yakunlab qo‘yadi.

- Hamkorlikda ishlash texnologiyasining “Kvadratli test” usulini Ch.Aytmatov hayoti va faoliyatini o‘rganishda qo‘llash orqali o‘quvchilar guruh bilan ishlash malakasiga ega bo‘ldi, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishga yordam berdi;

- “Chala xat” usuli orqali yozma nutqni o‘stirishga ko‘maklashibgina qolmay, ular zehnini oshiradi, mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tardi;

- “FSMU” texnologiyasi asosida o‘z fikrini erkin ifodalay olish, fikrlarini himoya qilishga turtki bo‘ladi. Egallagan bilimlarini tahlil etib, baholashga va o‘quvchilarda bahslashish madaniyatiga o‘rgatdi;

- “Musbat va manfiy” usulida esa qahramonlar xarakterini ochishga yordam beradi;

- “U kim?” usuli bilan o‘quvchilar asardan keltirilgan parchadan fikr egasini kim kimga qarata gapirganini topishi va nima sababdan shunday deyishini asoslay olishi orqali asar mohiyati oolib berildi;

- “Raqamlar tilga kirganda” metodini qo‘llashda ijodkor faoliyati, hayot yo‘li asarlari bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘rganildi;

- “Zehn matni” usulini qo‘llash orqali o‘quvchilarda topqirlik chaqqonlik, mantiqiy fikrlsh qobiliyati shakllandi;

- “Xulosasi – darxt hosilasida” usuli asosida o‘quvchilar erkin fikrlashga yo‘naltirildi. Keltirilgan muammoli savollarni yechimini topishga, mustaqil qaror qabul qilishga erishildi;

- “Debat” metodini “Asrga tatigulik kun” asari tahlilida qo‘llash orqali o‘quvchining bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bildirish qobiliyatini shakllantirish, asar yuzasidan shaxsiy

munosabatlarni bildirish, fikrlarini dalillar bilan isbotlab, boshqalarni ham ishontira olish ko'nikmasi hosil qilindi.

**II bob yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak**, biz ushbu bobda "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini, "Otello" tragediyasini, "Asrga tativlik kun" asarini o'qitishda interaktiv usullardan foydalangan holda dars tashkil qilishni maqsad qilgan edik. Shu maqsad yo'lida bir necha pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan o'rinni foydalandik. Masalan, "Yevgeniy Onegin" asarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish uchun "Lotereya", "Beshbarmoq", "Audio topshiriq", "Sahna ko'rinishi", "Eslab ko'rchi, unutmadingmi?", "Topqir detektiv", "T-T", "Tushun va bajar", "Tasvirlang", "Tarjimonlik osonmas!", "Qiyoslang", "To'rttasi birda" kabi metod va texnologiyalardan samarali foydalanish texnologiyasini ishlab chiqdik.

9-sinf adabiyot darsligi "Jahon adabiyoti" bo'limida "Yevgeniy Onegin" she'riy romani "Tatyananing Onegining maktubi 3,4,8, fasllardan bo'limlar va Oneginning Tatyana maktubi bo'limi keltirilgan. Bundan tashqari A.S.Pushkin hayoti va ijodi, "Yevgeniy Onegin" haqida ma'lumot va she'riy roman haqida nazariy ma'lumot o'rinni egallagan.

Biz foydalangan metodlar orqali o'quvchilar:

- A.S.Pushkin hayoti va ijodi;
- A.S.Pushkin rus she'riyatining asoschisi ekanligi;
- Pushkin haqida rus olimlarining fikr-mulohazalari;
- Pushkin tavalludining har yili keng nishonlanishi;
- Pushkin nomidagi oliygoh mavjudligi;
- Poytaxtimizda Pushkin haykali o'rnatilganligi;
- "Yevgeniy Onegin"da keltirilgan obrazlar ta'rifi;
- Pushkin yashagan davrning o'ziga xos xususiyatlari;
- "Yevgeniy Onegin" asari darslikda keltirilgan parchaning ilmiy, adabiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega qismlari;

- Tatyananing insoniy fazilatlari: sodda, samimiyligi;
- Onegin o'sha davrning "ortiqcha odam"i ekanligi;
- Pushkin hayoti notinch va tartibsiz o'tganligi;
- "Yevgeniy Onegin" tarjimalari;
- O'zbek tarjimonlari haqida o'rgandilar;
- "Yevgeniy Onegin" asari kimdan ta'sirlanib yozilganini;
- Pushkin va Oneginning bir-biriga o'xshash jhatlari;
- "Yevgeniy Onegin" asari asosida vujudga kelgan o'zbek she'riy romanlari;
- She'riy roman haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.
- "Lotereya" usuli orqali test tuza olish qobiliyati shakllanadi;
- "Sahna ko'rinnishi" orqali o'quvchilar turli rollarni ijro eta olish malakasiga ega bo'лади;
- "Audio topshiriq" metodida parcha tinglanib, tezda fikrlab javob berishga o'rgatadi;
- "Topqir detektiv" metodida o'quvchilarda topqirlik sifatlari shakllantirildi;
- "Tasvirlash" metodi asosida o'quvchilar ijodiy tafakkuri shallantirildi;
- "Tarjimonlik osonmas!" usulida parchalarni tarjima qilish orqali tarjimonlik sifatlari shakllantirildi;
- "Eslab ko'rchi, unutmadingmi?" metodida esa shoir va asari haqida barcha bilimlar umumlashtirildi.

O'quvchi A.S.Pushkin hayoti, ijodi "Yevgeniy Onegin" asari haqida, ularda ifodalangan mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, adolatlilik, oljanoblik kabi xislatlar bilan tanishadilar. Asarda keltirilgan tarbiyaviy ahamiyatga molik o'rirlarni mushohada qilgan holda, dunyoqarashi kengayadi. Asarni o'qish davomida Tatyananing sodda, samimiyligi, chin sevgisi, sadoqati, iroda kabi tuyg'ularini o'zlariga namuna qilib olib, kunini aysh-ishratda, bekorchilikda vaqt o'tkazish, merosga tayanib hunarsiz yashash,

o‘zi mehnat qilib topmagan hayotning mazmunsizligi o‘rnak qilib ko‘rsatiladi va har xil vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini teran mushohada qiladilar.

V.Shekspirning “Otello” tragediyasini o‘qitishda “Keysstadi”, “Muammoli vaziyat”, “Tadqiqot”, “Taqidiy tahlil”, “Asalari galasi”, “Ovoz bering”, “SMT”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Obrazlarga ta’rif bering”, “Raqamlar charxpalagi” metodlardan o‘rinli foydalanildi.

- “Tadqiqot” hamda “Taqidiy tahlil” metodlarida fojia bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar ko‘rib chiqildi, yuzaga kelgan illatlar tahlil qilindi;

- “SMT” orqali o‘quvchilar sahna ko‘rinishini qo‘yishi bilan birga, o‘sha muammoni ko‘rsata olishdi va shu muammolar munozaralarga sabab bo‘lib, tahlilga tortildi. Shunday xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchi ushbu metod va texnologiyalar orqali badiiy asarlani o‘qitishda o‘quvchilarda quyidagi bilim va ko‘nikmalarni hosil qiladi:

- V.Shekspir hayoti va ijodini o‘rganadi;

- Shekspirning “Otello” tragediyasi bilan tanishadilar;

- Boshqalardan bekorga shubhalanmaslik kerakligini gumon paydo bo‘lsa bunga oydinlik kiritish kerakligini bilib oladilar;

- Har doim ham ishonuvchan bo‘lmaslik lozimligini tushunadilar;

- Turli xil vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini mushohada qiladilar;

- Sadoqat, ishonch, vafo, hasadgo‘ylik, mansabparastlik haqida fikr yuritadilar;

- yolg‘on va fitna aralashgan joyda voqeal oxiri fojia bilan tugashini anglab yetadilar;

- Biror bir qaror chiqarishda har tomonlama o‘ylab ko‘rib, yetti o‘lchab bir kesishni o‘rganadilar;

- Yuzaga kelgan muammodan osonlikcha o‘zini o‘ldirib emas, balki oqilona qaror qabul , vaziyatdan chiqib ketish yo‘llarini izlash ko‘nikmalari shakllandi.

“Asrga tatigulik kun” asarini o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining ahamiyatini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin. Ch.Aytmatov asarlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yozuvchilar ichida inson va insoniyat hayotining ijtimoiy, etik va ma’naviy muammolarini to‘la to‘kis va muntazam yoritib kelmoqda. Yozuvchi asarlarining g‘oyasi insoniylik, sadoqat, erkinlik, mehr-muhabbat mavzularida bo‘lib, ularni yaratishda xalq og‘zaki ijodiga tayanganini kuzatamiz. Masalan, 7-sinf darslikdagi “Oq kema” asari ertak yoki rivoyatlar asosida badiiy ifoda kasb etgan.

9-sinf adabiyot darsligi “Jahon adabiyoti” bo‘limida “Asrga tatigulik kun” romanidan Kazangap o‘limi va Nayman ona fojiasi keltirilgan. Ushbu asarni o‘qitishda hamkorlikda ishslash texnologiyasiga asoslanib, “Chala xat”, “Kvadratli test”, “Xotira mashqi”, “FSMU”, “Musbat va manfiy”, “U kim?”, “Raqamlar tilga kirganda” kabi metodlardan samarali foydalanildi. Darsni multimedia vositalari orqali olib borish yaxshi samara berishi amaliy tahlil etildi. Ch.Aytmatov hayoti va ijodini yangi mavzu sifatida o‘tkazilganda taqdimot shaklida yoki video lavhalar orqali jonli tarzda o‘tish mumkin. O‘quvchilar asarni tahlil qilishda ijodkor hayoti va ijodi, inson his-kechinmalari, garchi epik asar bo‘lsa-da, inson tuyg‘ularini junbushga keltiruvchi “xotirasidan mahrum qilish”, insoniy fazilatlarini bilib oladilar. Adib o‘z maqsadini ramzlarga yashirganini “Ramziy timsolni topping?” usuli asosida tahlil qiladi. Milliy qadriyatlar va ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlar, ayniqsa, ma’naviy jihatdan qoloqlik Sobitjonning zamonaviy manqurt ekanligini mushohada qilishadi. Bu orqali hayotda qanday inson bo‘lish kerak, ota-onasiga yaqin

insonlar, Vatanga qay tarzda munosabatda bo‘lish kerakligini, qadriyatlarni, urf-odatlarimiz va an’analarimizni oyoqosti qilmaslikni o‘qib bilim olsak-da, aslida o‘zligimizni anglamasak, “manqurt” ekanligimizni chet elga taqlid qilish orqali madaniyatimiz ham ma’naviyatimiz ham yuksalmasligini anglab, o‘zlariga kerakli xulosalar chiqaradi.

### **Umumta’lim maktablarida jahon adabiyotining o‘rganilishi**

O‘zbekiston xalq ta’limini vazirligi Respublika Ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan 5-9-sinf uchun adabiyot dasturini tuzish quyidagi jihatlar inobatga olingan:

Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo‘libgina qolmay, umumiyligi o‘rtalim maktablarida o‘qitiladigan boshqa fanlar singari, o‘quvchilarga birinchi navbatda, bilim berishi ya’ni ko‘p asrli o‘zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo‘nalishi – yetakchi yozuvchilar ijodi bilan shu yozuvchilar ijodida o‘z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan sifatida o‘ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi lozim. Aniqroq aytganda, umumta’lim maktabini bitirib chiqqan o‘quvchi o‘zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi davriga qadar bosib, o‘tgan yo‘li haqida, atoqli yozuvchilarning hayoti va ijodi to‘g‘risida muayyan bilimga ega bo‘lishi lozim. Umumiyligi o‘rtalim maktablarida Pushkin, Shekspir, Ch.Aytmatov hayoti va ijodini o‘rganish ham ayni maqsadlar uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Xalq ta’limi Vazirligi Respublika Ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan 5-9-sinf uchun adabiyot fanidan taqvim – mavzu rejada 7-sinfda adabiyot darsi uchun 62 soat ajratilgan bo‘lib, Chingiz Aytmatov “Oq kema” qissasi

mavzusiga 3 soat ajratilgan. “O‘ylarimning cheksiz osmoni” ruknida keltirilgan. Bu rukn I chorak bo‘lib 18 soat ajratilgan.

9-sinf adabiyoti darsligida ham Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi kiritilgan. Bu, albatta, quvonarli holat. 9-sinf adabiyot fani uchun jami 102 soat ajratilgan bo‘lib, haftasiga 3 soatdan (A2+:136 soat) ajratilgan. Ch. Aytmatov. “Asrga tatigulik kun” romani mavzusiga 4 soat ajratilgan bo‘lib, mavzu 95-98- mavzularni qamrab oladi. Ushbu mavzu darslikning “Jahon adabiyoti” rukniga keltirilgan. Bu rukn esa IV chorak bo‘lib, 20 soat ajratilgan. Xuddi shu chorak, shu rukn ostida A.Pushkin. “Yevgeniy Onegin” she’riy romani ham kiritilgan. Ushbu mavzu uchun 3 soat ajratilgan. Mavzu 92-94-mavzularni qamrab oladi. Bu ijodkor hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar boshqa darsliklarda uchramaydi. Ta’lim bosqichlarining umumiy o‘rta ta’lim darsliklariga Pushkin she’rlaridan namunalar kiritilganda yanada yaxshiroq bo‘lar edi. “Jahon adabiyoti” bo‘limiga V.Shekspir hayoti va ijodi kiritilgan. Vilyam Shekspir. “Otello” fojiasi mavzusi uchun 4 soat ajratilgan bo‘lib, 82-86- mavzularni qamrab oladi. Ushbu mavzu bilan aloqador bo‘lgan 87-89-mavzularda insho va tahlil mavzusi mavjud. Bu insho va tahlil mavzusi “Otello” fojiasi asosida bo‘lib, “Otello timsoliga tavsif” deb nomlangan. O‘quvchilarning asardan olgan xulosalarini insho tarzida bayon etishi o‘rinli qo‘llangan. Mavzuga oid insho kiritilishi yaxshi, albatta.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limini rivojlantirish instituti tomonidan “Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida”gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-son,

“O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1998-yil 13-maydagি 204-son qarorlariga muvofiq ta’lim turlari o‘rtasida uzviylik va uzliksizligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Fanlar Akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.

Akademik litsey adabiyot darsligi bosqichlarida ham jahon adabiyoti namoyandalari deyarli uchramaydi. Akademik litseyning I bosqichida jahon adabiyoti ijodkorlaridan Rudakiy va Firdavsiy hayoti va ijodi keltirilgan. Ona tili va adabiyot akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsligida esa J.Rumiy, S.Shevzorziy, J.London va Ch.Aytmatov hayoti va ijodi keltirilgan bo‘lsa, 10-sinf adabiyot darsligi va dasturida Ch.Aytmatovning “Jamila” asari mavzusi olib tashlangan va uning o‘rniga A.Dodening “So‘nggi saboq” hikoyasi kiritilgan. 11-sinf adabiyot darsligi jahon adabiyoti bo‘limiga 5 soat (B+4 soat) ajratilgan bo‘lib, 35-39-mavzularni qamrab olgan. Shulardan 35-36-mavzular A.Chexov. “Hikoyalar” mavzusi kiritilgan bo‘lib 2 soat (B+2 soat) ajratilgan bo‘lsa, Rishod Nuri Guntekin. “Choliqushi” romani mavzusiga 3 soat (B+2 soat) ajratilgan.

Joriy yil 9-sinf adabiyoti darsligi to‘ldirilib, qayta ishlangan 4-nashri ishlab chiqiladi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi 2017-yilga nashrida 9-sinf adabiyot darsligining “Jahon adabiyoti” bo‘limi 14 soat (A2+:9) soat ajratilgan. Ushbu dasturda Shekspir hayoti va ijodi uchun 4 soat ajratilgan bo‘lib, 56-59-mavzularni qamrab olgan. 60-62-mavzularda O‘lmas Sulaymonov. “She’rlar” mavzusi o‘tilishi uchun 3 soat ajratilgan. 62-65-mavzularda esa A.S.Pushkin va uning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani o‘rin olgan. 66-69-mavzularda esa Ch.Aytmatov. “Asrga tatigulik kun” romani mavzusi keltirilgan va bu mavzuga soat ajratilgan. Bundan tashqari

Manas – Qirg‘iz xalq qahramonlik eposi mavzusi (A2+: 4 soat), Hofiz She’roziy. G‘azallar mavzusiga esa (A2+:3 soat) ajratilgan.

9-sinf adabiyot ta’limi quyi sinflarda olingen bilimlarni chuqurlashtiradi va rivojlantiradi.

Dastur quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Xalq og‘izaki ijodi (5 soat,A2+: 1 soat)

2.O‘zbek adabiyot tarixi (25 soat, A2+: 7 soat)

3.O‘zbek adabiyotining yangi bosqichi (24 soat, A2+: 14 soat)

4.Jahon adabiyoti (14 soat, A2+: 9 soat)

5.Mustaqillik davri adabiyoti (5 soat, A2+: 3 soat)

9-sinf adabiyot darsligi mavzularni o‘rganish uchun – 74 soat (A2+: 100 soat).

— yozma ishlar uchun – 20 soat (A2+: 24 soat).

— sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat)

— takrorlash uchun – 4 soat .

— jami: 102 soat, A2+: 136 soat.

— o‘quv dasturida har bir mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid va tayanch kompetensiyalarning elementlari mavzuning mazmunidan kelib chiqib namuna sifatida taqdim etildi.

Fanga oid kompetensiyalar ikkiga bo‘linadi: adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish); badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi kabilar.

O‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish – ta’lim tizimiga xos jarayondir. Shu sababli aniqlash bosqichida adabiyot fanida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida bir nech interaktiv metodlar tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU akademik litseyida pedagogik amaliyat davrida tajriba o‘tkazildi. Tajriba uchun

ajratilgan har bir guruhda 1 ta amaliy va 1 ta ma`ruza mashg`ulotlari kuzatildi.

Kuzatishlar natijasidan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyot fanidan o`quv mashg`ulotlarida o`quvchilarning aksariyati “kuzatuvchi”dek qatnashdi. Mashg`ulotda o`quvchilarga topshiriq berishda, bilim darajasi inobatga olinmaydi. Topshiriqlarni bajarishda ayrim o`quvchilar oldinga o`tib, ayrimlari orqada qolib ketadi. O`qituvchi o`quvchilarga topshiriqn ni bajarish tartibini tushuntirish yoki ko`rsatish uchun juda ko`p vaqt sarflaydi.

Aniqlash bosqichida quyidagilar diqqat markazimizda bo`ldi:

1) tanlangan akademik litseylarning guruhlarida o`qitilayotgan adabiyot o`quv predmetining o`quv materiallari mazmuni;

2) adabiyotni o`qitishda o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish

3) adabiyot fanidan o`quv mashg`ulotlari uchun mo`ljallangan topshiriqlar mazmuni va majmuasi;

4) akademik litseylarning “Adabiyot” faniga mo`ljallangan darsliklar, o`quv, uslubiy qo`llanmalar, elektron darslik va qo`llanmalar, hamda ulardan amaliy va ma`ruza mashg`ulotlarini o`tishda foydalanish darajasi;

5) akademik litseylarda “Adabiyot” fanidan mashg`ulotlarini tashkil etish va o`tkazishda AKT (axborot

hlar ikkiga ajratilib, tajriba guruhi, nazorat guruhlari belgilandi. nazorat guruhida esa an`anaviy metodikadan foydalanib, amaliy va ma`ruza mashg`ulotlari tashkil etildi.

Dars davomida qo'llangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinganda, ularning o'quvchilar bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini oshirishga ta'siri haqidagi ma'lumotlar olishdan iborat edi.

Tajribaning bu bosqichida Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademik litseyidan tajriba va nazorat guruhlari tanlandi va unda o'qituvchilardan Sh. Avliyoqulova, M.To'rayev va

o'quv mashg'ulotlarining o'quvchilar bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini oshirishga ta'siri shu akademik litseylardagi nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazilgan mashg'ulotlardagi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi bo'yicha belgilandi. Ta'lim

Tajriba o'tkazish uchun guruhlarni tanlayotganda tajriba guruhi o'quvchilarining ham, nazorat guruhi o'quvchilarining ham DTSlari talabida o'zlashtirishlari qat'iy hisobga olindi.

Taklif qilinayotgan interaktiv usullar va ulardan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlash uchun o'quvchilardan olingan nazorat ishlarining natijalari ham miqdoriy, ham sifat bo'yicha tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarining o'zlashtirishlarini qiyoslash maqsadida 1 para (2

Amaliy va ma'ruza mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan tekshirish mumkin :

- 1) o'quvchilarining topshiriqlarni bajarishni o'zlashtirish
- 2) o'quvchilarining topshiriqlarni bajarishni o'zlashtirish

3) o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishga sarflagan vaqtı kabi mezonlar

asosida o‘rganildi.

Amaliy mashg‘ulotni o‘tish jarayonida tajriba guruhlarida qiyoslash rejalashtirildi.

Mashg‘ulotda 9-sinf adabiyotining “Jahon adabiyoti” bo‘limidagi “Asrga tatigulik kun” asari mavzusiga tegishli

ida o‘qituvchi amaliy mashg‘ulot mavzusi va maqsadini tushuntirgandan so‘ng topshiriqlarni bajarishni ta’kidladi.

1-topshiriq sharti tushuntirildi va proyektor orqali katta ekranda bajarish tartibi keltirildi. O‘quvchilarga topshiriqni bajarishga ruxsat berildi.

ing natijasi proyektor orqali ekranda namoyish qilindi. O‘quvchilarga topshiriqni bajarishga ruxsat berildi.

3-topshiriq sharti tushuntirilgandan so‘ng bu topshiriqning O‘quvchilarga topshiriqni bajarishga ruxsat berildi.


Barcha o‘quvchi topshiriqlarni bajarib bo‘lganidan so‘ng, test o‘tkazilishini e’lon qildik va har bir o‘quvchiga test savollari va ularga mos javoblarni yozish uchun javob varaqasini tarqatdi. O‘quvchilar savollarga javoblarni belgilab bo‘lganidan so‘ng, barcha qog‘oz yig‘ib olindi va tekshirildi.

Mashg‘ulot jarayonida har bir topshiriqning bajarilish vaqtı ham qayd qilib borildi. Bunda topshiriqni bajarish boshlangandan so‘ng, birinchi va oxirgi o‘quvchining ishini tugatishi qayd qilinib, ularning o‘rtachasi topshiriqni bajarishga guruh o‘quvchilari tomonidan sarflangan o‘rtacha vaqt deb qabul qilindi. Shu tarzda

guruh bo'yicha barcha topshiriqlarni bajarishga sarflangan vaqt ham aniqlandi.


Tajriba-sinov guruhlarida mashg'ulot Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi mavzusida tashkil qilindi. Tashkiliy qism o'tkazilgandan so'ng, topshriqni ishlashga ruxsat berildi. Nazorat guruhiga berilgan topshiriqlar va test savollari bajarilishi rejalashtirildi. Tajriba guruhlarida topshiriqlarning bajarilishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilinib, topshiriq va uni bajarish tartibi matn va videorolik ko'rinishida taqdim qilindi. Topshiriqlar bajarildi va nazorat qilindi. O'quvchilarning javoblari emas, balki har bir topshiriqqa sarflagan vaqtlarini ham qayd qilib bordik. Mashg'ulotning oxirida test nazorat sinovi o'tkazildi. O'quvchilarning javoblari qaydnoma shaklida qog'ozga belgilab borildi. Undan har bir topshiriqni va barcha topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchilar tomonidan sarflangan o'rtacha vaqt, hamda test nazorat sinovi bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha bahosi va o'zlashtirishi aniqlandi.

## O'zlashtirish ko'rsatkichi



## O'quvchilar soni

■ To'g'ri javob ■ Noto'g'ri javob ■ Folzi



Nazorat guruhning o'rtacha to'g'ri javob bergan o'quvchilarning sonini topadigan bo'lsak, jami to'g'ri javoblar 1733 % bo'lib, ularning foizini 26 ta o'quvchi soniga bo'lganimizda o'rtacha  $1733/26 = 66.65\%$  ni tashkil etdi (1-jadval).


Tajriba guruhida esa o'rtacha to'g'ri javob bergan talabalarning sonini topadigan bo'lsak, jami to'g'ri javoblar 1917


% bo‘lib, buni 26 ta o‘quvchi soniga bo‘lganimizda o‘rtacha 1917 /26 = 7373 % kelib chiqadi. (2-jadval)

105- guruhiiga nazorat guruh sifatida har doimgiday an’anaviy usulda dars o‘tildi. 104- guruhini esa tajriba-sinov guruhi sifatida tanlab, ularga interaktiv usullar yordamida tayyorlangan dars ishlasmalar asosida dars tashkil etildi. Bu ikki guruh o‘quvchilariga Ch.Aytmatov hayoti va “Asrga tatigulik kun” asari mavzusini an’anaviy va noan’anaviy usullarda to‘liq o‘tganimizdan so‘ng ikkala guruh o‘quvchilariga ham bir xil darajada 15 ta savol tuzilib, shu savollar asosida sinov o‘tkazildi va quyidagi natijalarni olishga erishildi (3-jadval natija guruhi, 4-jadval tajriba guruhi) .

105-guruh o‘quvchilariga Ch.Aytmatov hayoti va “Asrga tatigulik kun” mavzusini an’anaviy usulda o‘tilgandan so‘ng olingan test sinov natijalari quyidagicha:

3-jadval





Nazorat guruhidan test olinib, o‘rtacha to‘g‘ri javob bergen o‘quvchilarning sonini topadigan bo‘lsak, jami to‘g‘ri javoblar 1.751 % bo‘lib, ularning foizini 26 ta o‘quvchi soniga bo‘lganimizda o‘rtacha  $1.751/26 = 67.34\%$  ni tashkil etdi (3-jadval). Tajriba guruhining o‘rtacha to‘g‘ri javob bergen o‘quvchilarning sonini topadigan bo‘lsak, jami to‘g‘ri javoblar 1.998 % bo‘lib, buni 26 ta o‘quvchi soniga bo‘lganimizda o‘rtacha  $1.998/26 = 76.84\%$  kelib chiqadi (4-jadval).

Olingan test bo‘yicha o‘quvchilarni baholaydigan bo‘lsak, natija quyidagicha:

Tajribada ishtirok etgan guruhlar	O‘quvchilar soni	“5”	“4”	“3”	Bahoning o‘rtacha qiymati	Samaradorlik
Tajriba guruhi	26	18	6	2	4.615	9.5 %
Nazorat guruhi	26	5	13	8	3.884	

Ushbu tajriba-sinovni “Zehn matni”, “Debat”, “Audio topshiriq”, “Sahna ko‘rinishi” kabi metodlarni qo‘llagan holda amalga oshirdik. Sinov testi olingach, kichkina so‘rovnoma o‘tkazdik. Ikkala guruhdan ham “Darsni noan’anaviy tarzda o‘tkazilishini xohlaysizmi yoki an’anaviy olib borilishini istagan bo‘larmidингиз?, -deb yozilgan so‘rovnoma o‘tkazildi va unda nazorat guruhidan 26 ta o‘quvchidan 24 tasidan “Ha” degan javobni olgan bo‘lsak, tajriba guruhida esa 22 ta o‘quvchi “Ha” degan variantni tanlashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, 1-guruh ovozi 92% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2-guruhda esa bu natija 82% ni ko‘rsatmoqda. Bu natijalarни ijobjiy deya baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov natijasida adabiyot darslarida darsni noan’anaviy tarzda tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish ta’lim samaradorligini oshirishiga amaliy tatbiq asosida guvoh bo‘ldik. Barcha sa’y-harakatlar o‘quvchilarning har tomonlama o‘sib-rivojlanishi, tafakkurini charxlash, fikrlashini kengaytirish, badiiy asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarni mustahkam ilm egasi qilib tarbiyalash, badiiy asar o‘qishga muhabbat uyg‘otish, ularda hayot haqidagi umumiyl dunyoqarashni shakllantirish, vatanga, xalqqa, oilaga hurmat hislarini tarbiyalash va kitobga oshno etish ko‘zda tutiladi. O‘qituvchilarning butun e’tibori o‘quvchilar bilimli, ongli va mustaqil o‘zlashtirishiga milliy qadriyatlarimiz asosida voyaga yetkazish hamda hayotda barkamol inson bo‘lib, o‘z yo‘lini topib ketishi nazarda tutildi.

## 1.2 Ochiq dars ishlanmasi

22-Mavzu	Chingiz Aytmatovning “Asrga tativlik kun” asari
----------	-------------------------------------------------

### 1.1. Ta’lim berish texnologiyasi modeli

Mashg‘ulot vaqt – 45 daqiqa	O‘quvchilar soni – 26 ta
-----------------------------	--------------------------

<b>Mashg‘ulot shakli</b>	Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan nazariy va amaliy mashg‘ulot.
<b>Mashg‘ulot rejasি</b>	1.Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi. 2. “Asrga tatigulik kun” asari tahlili. 3. Muommoli savollar yechimi 4. Xulosa
<b>Darsning ta’limiy maqsadi:</b>	O‘quvchilarda yozuvchi Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi, “Asrga tatigulik kun” asari haqida tushuncha va malakalar hosil qilish.
<b>Darsning tarbiyaviy maqsadi:</b>	O‘quvchilarda Vatanga, insonlarga, atrof muhitga e’tiborli bo‘lish va mehr ko‘rsatish kabi tuyg‘ularni shakllantirish.
<b>Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:</b>	O‘quvchilarda mavzu yuzasidan o‘z fikr mulohazalarini erkin bayon etish va nutqiy savodxonlik darajasini rivojlantirish.
<b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zaruriy bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati</b>	1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – T. “Ma’naviyat”. 2008. 2. Yo‘ldoshev Q.,Qodirov V.,Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik II qism. –T. 2014. 3. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahsil malakasini shakllantirish. – Nukus. Fan. 2006. 4. <i>Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun”asari.</i> –T. 2015
